

Beshinchi Bob

U suyuq choyni uchunchi piyolasini ichib tugatdi va tagidagi quyqumga qarab, dasturxonida sochilib yotgan qizartirib pishirilgan nonning qotgan bo'laklarini kemira boshladi. Sarg'ish shamadan hosil bo'lgan chuqurcha botqoqdagi o'ydim-chuqurga o'xshar, shama tagidagi suyuqlik esa unga Klougousdagi vannaning torf tusli suvini yodiga soldi. U xayol surib o'tirib hozirgina titkilab chiqqan, shundoq tirsagining tagidagi, garov xati yopishtirilgan qutidan yog' yuqi barmoqlari bilan qarz beradigan Deyli yoki Makiva kassalarining muhri bosilgan ko'k, oq, sarg'ayib ketgan, g'ijimlangan qog'ozlarni birin-ketin oldi.

Bir juft etik.

Palto.

Har xil mayda-chuydalar va choyshab.

Erkaklar shimi.

Keyin Stiven ularni bir chetga olib qo'ydi va ezib tashlangan bitlarning dog'i qolgan qutining qopqog'iga o'ychan termilib, xayoli qochib onasidan so'radi:

- Endi soatimiz qancha oldin ketayapti?

Onasi kaminning tokchasiga yonboshi bilan qo'yilgan jiringlab uyg'otadigan eski soatni ko'tarib qaradi va yana joyiga yonboshi bilan qo'ydi. Soat millari chorak kam o'n ikkini ko'rsatardi.

- Bir soatu yigirma besh minutga, - dedi onasi. - Hozir o'ndan yigirma minut o'tdi...

Darsingga vaqtida jo'nashga harakat qilsang bo'lmaydimi?

- Yuvinishimga joy taxtlang, - dedi Stiven.

- Keyti, Stivenning yuvinishiga joy taxtla.

- Budi, Stivenning yuvinishiga joy taxtla.

- Mening qo'lim band, Meggi, sen taxtlay qol.

Chanoqning yoniga sirlangan tog'orani o'rnatishib, chetiga eski qo'lqopchani ilib qo'yishgandan so'ng, Stiven onasiga bo'ynini ishqalab, quloqlarini, burnining kataklarini yuvishga qo'yib berdi.

- Yaxshimas, - dedi onasi, - kimsan universitetning talabasi-yu kir-chirga botib yursa, yana onasi uni yuvib tozalasa!

- Bu ish sizga yoqadi-ku, - dedi Stiven xotirjam.

Tepadagi xonadan qattiq hushtak tovushi eshitildi va onasi uning bilagiga nam ko'ylakni tashlab, dedi:

- Artinib olgin-da, xudo xayringni bersin, tezroq jo'nab qol.

Ikkinchi marta chalingan qattiq asabiy hushtakdan so'ng qizlardan biri zinaga chiqdi.

- Ha, dada?

- Anov yalqov, akajoning, daf bo'ldimi yoki yo'qmi?

- Ketdi, dada.

- Aldamayapsanmi?

- Yo'q, dada...

Singlisi qaytib kirib, Stivenga tezroq orqa eshikdan juftakni rostla, degan ishorani qildi. Stiven kulib, dedi:

- Dadamniyam miyasi aynib qolibdi.

- Uyalmasanmi shunday degani, Stiven, - dedi onasi, - hali bir kun kelib o'sha universitetga kirganingga afsuslanasan. Seni boplab aldashdi.

- Xayr, - dedi Stiven kulimsirab va barmoqlarining uchini o'pib, xayrlashdi.

Tor ko'cha yomg'irdan balchiq bo'lib yotar, u quruq axlatlarni bosib, ko'chadan sekin yurib o'tayotganda monastir kasalxonasining devori ortidan aqlan ozgan rohibaning faryodi eshitildi:

- Iso! O, Iso! Iso!

Bu faryodga u e'tibor qilmaslikka urinib, alamzadalik bilan boshini silkitdi va badbo'y chiqitlarga turtinib-surtinib qadamini tezlatdi, yuragi esa alam va nafratdan zirqirab ketdi. Otasining hushtagi, onasining yozg'irishlari, devor ortidan eshitilgan telbaning faryodi - barisi qalbni tahqirlovchi bir ohangga birikib, uning izzat-nafsigaga tahdid qilardi. Stiven hatto ularning yuragidagi aks-sadosidan ham nafratlanib, barini xayolidan biryo'la quvmoqchi bo'ldi; biroq u ko'chadan yurib borarkan, yomg'ir yuvgan novdalar orasidan yog'ilib turgan ertalabki xira yog'duni his etib, ho'l barglarning va daraxt po'stlog'ining taxir hididan nafas olib ko'ngli yorishdi, biroq kayfiyati ko'tarilganday bo'ldi.

Yomg'irdan ma'yuslanib qolgan daraxtlar, har galgiday, Gexard Gaupmannning piyesalaridagi qizlar va ayollar haqidagi xotiralarni yodiga soldi va ularning sirli g'am-g'ussalari haqidagi xotiralar, ho'l butoqlardan taralayotgan xushbo'y hid ko'ngliga sokin sevinch tuyg'ularini bag'ishladi. Mana endi shaharni u boshidan bu boshigacha kezib chiqadigan ertalabki sayr boshlandi va u oldindan bilardi: Fervyu mavzeining loy ko'chalaridan yurib borayotganda Nyumenning shafqatsiz, biroq jimjimador prozasi haqida o'ylaydi, oziq-ovqat do'konlarining derazalariga tikilib, Gvido Kavalkantening g'amgin yumorini eslaydi va jilmayadi; Tolbot-pleysdagi Beerning toshtaroshlash ustaxonasi yonida izg'irinday Ibsenning ruhi - go'zal yoshlikning yovqur ruhi joniga ozor beradi; Liffining narigi tarafidagi bandargohning chirkin do'koni bilan baravarlashgan kezda esa u Ben Jonsonning:

"Men dam olgani cho'zildim,

Charchamagan bo'lsam-da garchi...

so'zlari bilan boshlanadigan qo'shig'ini ichida takrorlaydi.

U Aristotel va Foma Akvinskiyning tushunarsiz nutqlaridan go'zallik mohiyatini axtarib toliqqan kezlarda tez-tez yelizavetachilarning dilbar qo'shiqlarini xotirlab dam olardi. Uning aqli, xuddi ikkilangan rohibday allaqachon o'tmishga aylangan bu uzoq asrning ko'lankasiga bekinib olib, lyutenlarning qayg'uli va kulgili musiqalarini hamda sayoq ayollarning jazavali qah-qahalarini tinglar, bu o'ta behayo qiyqiriqlar, gohida allaqanday beadab va tumtaroq gap-so'zlar, garchi almisoqdan qolgan bo'lsa-da, uning rohibona g'ururini qo'zg'ab, bu xilvatni tark etishga majbur qilmaguncha diqqatini tortib turardi.

U o'zini tengqurlari davrasidan tiyib, kun bo'yi titkilab, bosh qotirib o'tiradigan ilmiy asarlar deb atalmish kitoblar Aristotelning poyetikasi va psixologiyasi, "Synopsis Philosophiale Scholasticaye ad mentem divi Thomaye" dan olingan tagdor hikmatli so'zlarning yig'indisi edi, xolos. Uning o'zidan gumonsirashi va ishonchsizligidan paydo bo'lgan fikrlar ba'zan savqitabiy bilan

tuyqusdan yorishib ketar, bunday lahzalarda atrofdagi olam, yonib kulga aylangan gulxanday, ko'zdan yo'qolar, tili esa kalimaga kelmas va xira ko'zlari bilan u o'zgalarning nigohini ilg'ar, go'zallik ruhi misoli rido kabi uni o'rab-chirmab olayotganday tuyular, garchi o'y-xayolida bo'lsa-da, qalbi yuksak tuyg'ularga uyg'unlashib ketardi. Biroq g'ururga to'lgan sukunatning qisqa umri tez o'tib ketdi va u yana qalbida sevinch bilan odatdagi hayot tashvishlariga sho'ng'idi, hech qanday qo'rquv-xavotirsiz o'z yo'lidan, katta shaharning qashshoq, sershovqin va dabdabali ko'chalari bo'ylab yurdi.

Kanal bo'yidagi e'lonlar taxtasi yonidan o'tayotib yuzi qo'g'irchoqning yuziday quriqshib qolgan, boshiga chetlari yirtilgan shlyapa qo'ndirgan silga yo'liqqan odamni ko'rdi, bemor ko'prikdan mayda qadam tashlab, paltosiga burkanib, qo'lidagi yig'ilgan shamsiyani hassaga o'xshatib tutganicha uning qarshisidan kelayotgan edi. Soat o'n bir bo'lib qolgandir, deb o'yladi Stiven va vaqtni aniq bilish uchun sut do'koniga qaradi. U yerdagi soat beshta kam beshni ko'rsatib turardi, biroq u sut do'konidan uzoqlashayotib, shu atrofdagi soatlardan biri o'n birga tez-tez va aniq zang urganini eshitdi. U kulib yubordi: soatning zang chalgani unga Makkenni eslatdi. Hatto Stiven uning oppoq echki soqolini va qoruvli gavdasini ko'rganday bo'ldi. Makkenni egnida ovchilarning kamzuli va ixcham shimda Xopkins-stritda shamolga yuz burib turib, kekkayib so'z qotadi:

«Siz, Dedalus, g'ayriijtimoiy mavjudodsiz va nuqul o'zingizni o'ylaysiz. Men demokratman, bo'lajak Ovrupo Qo'shma Shtatlarida sinflar va jinslarning ijtimoiy erkinligi va tengligi yo'lida ter to'kaman, kurashaman.

Soat o'n bir! Demak, bu leksiyaga ham kechikdi. Bugun qaysi kun? U gazeta do'koni oldida to'xtab, qaysi kun ekanini bilmochi bo'ldi. Payshanba. Soat 10 dan 11 gacha «ingliz tili; 11 dan 12 gacha - fransuz tili; 13 gacha fizika. U ingliz tilidan bo'ladigan ma'ruzani ko'z oldiga keltirdi va sarosimalanib, o'zining nochorligini his qildi.

Kursdoshlarining boshlarini egishib, daftarga yodlashlari lozim bo'lgan so'zlarni: ismga ko'ra aniqlovchi va mazmunga ko'ra aniqlovchini, har xil misollarni, tug'ilgan va vafot etgan yillar yoki asosiy asarlar va ularning yoniga suratlarga tanqidchilar berishgan ijobiy va salbiy baholarni yozayotganini ko'rdi. Uning boshi daftarga egilmaydi, xayoli uzoqlarga olib qochadi. Biroq u tevarigidagi talabalarning mo'jazzina to'dasiga qaraydimi yoki derazadan bog'dagi xiyobonda o'sib yotgan butazorga termiladimi, baribir dimog'idan yerto'la zaxi va chirindining hidi arimaydi. Yana stolga egilgan bitta bosh, muqaddas ne'matlar solingan idishlar oldida mag'rur qad rostlab, cherkovning kambag'al qavmiga rahm-shafqat so'rab duo qilayotgan ruhaniyning boshiday, birinchi qatorida shundoq uning qarshisida so'qqayib turibdi. U Krenli haqida o'ylab, nega faqat uning boshini va yuzinigina tasavvur qila olishi, qomatini ko'z oldiga keltira olmasligiga ajablendi. Mana, hozir ham u bulutli tong yorug'ida - xuddi tushda ko'ringan sharpaday - kesilgan boshni, qop-qora g'ayir sochlari gultojday manglayiga tushib turgan, murdaning basharasidan olingan niqobday ruhoniyning zohidona rangpar qiyofasini, burnining tanoblari tarvaqaylagan, ko'zining tagiga qora ko'lanka tushgan va yupqa, qonsiz lablari kulimsiragan turqini ko'rdi va har kuni Krenliga o'zining iztiroblari, tashvish va orzu-o'ylari haqida gapirgan gaplarini, do'stining esa sergaklanib, ma'nodor sukut saqlashini eslatdi. Stiven bu qiyofa - o'zining gunohini his etayotgan, boshqalarning tavbasini tinglab, gunohlarini quvishga noloyiq ruhoniyning qiyofasi, degan xulosaga kela boshlaganda tuyqusdan ayol kishining o'ziga qadalgan qora ko'zlarini payqaganday bo'ldi.

Bu holat allaqanday g'aroyib va mavhum fikrlarga yo'l ochganday tuyuldi, biroq Stiven ko'nglida hali naryoqqa ketishga erta ekanini tuyub, miyasidan bunday fikrlarni darhol quvdi. Do'stining beparvoligi, xuddi tungi zulmatday, uni xavf-xatar iskanjasiga solib qo'ydi va u bir zum hushini yig'ib, atrofiga ko'z tashlab, yo'l-yo'lakay tasodifan xayoliga kelgan har xil so'zlarni tutib qolishga urinar va ularning bir lahzadayoq o'z mohiyatini yo'qotishiga hayron bo'lardi: mana, do'konlar peshtoqidagi yozuvlar xuddi afsunday, uning xayolini band etdi, ruhi cho'kib, qariyaday uh tortdi; ayni damda o'zi tor ko'cha bo'ylab ana shu o'lik so'zlar orasidan hamon yurib borayotir. Tilning sehru jozibasini his eta bilish tuyg'usi, zarrama-zarra so'zlarga birikib, uning ongidan sizib chiqdi va poyma-poy vaznda chalkashib, ajralib uyusha boshladi:

Chirmoviq chirmashar devorga,

Chirpirar, chirmanar devorda.

Devorga zarpechak pechalar,

Pechaklar devorda sarg'ayar.

Bu qanaqa safsata bo'ldi? O', xudoyim, devorga chirmashgan chirmoviq nimasi? Zarpechak - bunga ham chidasa bo'lar, sariq fil suyagiga ham. Qapishgan fil suyagiga-chi? Buni qanday tushunish mumkin?

So'z endi uning miyasida, fil mo'gizidan arralab olingan fil suyagidan ham tiniq va yorqin charaqladi. Luory, ivoire, avorio, ebur[1]. U maktabda lotin tilidan o'zlashtirgan gaplarning dastlabkilaridan biri: "India mitit ebur"[2] degan gap edi va Ovidiyning "Metamorfozalar"ini nafis, biroq cho'chqalar, sopollar va cho'chqa yog'i so'zlari ishlatilganda g'alati eshitiladigan ingliz tilida ifodali aytib berishga o'rgatgan rektorning shimolliklarga xos qahrli yuzi uning ko'z oldiga keldi. Lotin she'riyati qonunlarining o'ziga ma'lum bo'lgan ozgina qismini u portugaliyalik ruhoniyning eskitirib ketgan kitobidan o'qib bilib olgan edi.

"Contrahit orator, variant in carmine vates"[3].

Rim tarixi inqirozlari, zafarlari va g'alayonlari unga siyqasi chiqqan in tanto discrimiue[4] so'zlari orqali tushuntirilgan edi. U shaharlar shahrining ijtimoiy hayotiga implere ollam denariorym so'zlari orqali nazar tashlashga urindi, bu so'zlarni rektor shirali qilib "idishni dinorlarga to'ldirish", deya tarjima qilgan edi. Goratsiy kitobining qolgan sahifalari hech qachon, hatto barmoqlari sovuqdan uvishib qolgan paytlarda ham, unga sovuq tuyulmasdi; tiriklik nafasi ufurib turgan bu sahifalarni ellik yil burun Jon Dunkan Invererit va akasi Uilyam Malkolm Invereritning jonli barmoqlari varaqlagan. Ha, kitobning eskitirib, o'cha boshlagan ilk sahifasida ularning muborak nomlari saqlanib qolgan va bilinar-bilinmas yozuvlardagi she'rlar, hatto uningday lotin tilining o'rtamiyona bilimdoniga ham go'yo uzoq yillar xushbo'y gul va ko'katlar ichida yotganday, muattar hid taratardi. Biroq unga umr bo'yi jahon madaniyati bayramida oddiy tomoshabin bo'lib qolish, o'zi allaqanday estetik falsafani ifodalashga urinayotgan diniy bilim tili, nazarida, madhiyayu tamg'alar bilan shug'ullanish va yo lochin bilan ov qilishday jazavali, ayni paytda bema'ni mashg'ulotdan ortiq bir narsa emasligini tan olishi alam qilardi.

Ma'rifatsiz shaharning chap tarafida tuyaday og'ir cho'kkan, tor halqaga zo'r lab joylangan jilosiz, so'nik toshni eslatuvchi muqaddas Uchlik kollejining bahaybat kulrang imorati uning ruhini ezib, ongiga ta'sir eta boshladi. Va u protestantcha dunyoqarashning asoratli tushovlaridan idrokini xalos qilishga urinarkan, Irlandiya milliy shoirining beso'naqay haykali oldidan chiqib keldi.

U haykalga jirkanmay qaradi, chunki tana va ruhning notozaligini namoyon etib turgan yodgorlikdagi kir-chirlar, xuddi bir qarashda ko'z ilg'amaydigan bitday, haykalning tizzadan bukilgan oyoqlaridan tortib bor bo'yicha, kiyimining qayrilgan joylariga,

qarollarnikiga o'xshash boshining atrofiga o'rnashib qolgan, go'yo u o'zining nodonligini ilojisiz tan olib turganday tuyulardi. Bu ayni mileziyalikning egnidagi yopinchiqni o'margan firbolgning o'zi edi; Stiven oshnasi, dehqon oilasidan chiqqan talaba Deyvinni esladi. Firbolg uning hazillashib aytiladigan laqabi edi, biroq dehqon bola bunga ko'nikib ketgan edi:

- Nima deyin, Stivi, endi sen ham meni qovoqkalla deb aysang iloj qancha, ixtiyoring.

Ismining qisqartirib aytilgani, birinchi marta eshitganida, Stivenga ta'sir qildi: u odatda boshqa talabalar bilan, xuddi ularning o'ziga qilgan munosabatlariday, muomalada chegarani saqlar, takallufsizlikka yo'l qo'ymas edi. U Grantem-stritdagi Deyvinning uyiga tez-tez borib turar va devor chetiga terib qo'yilgan oshnasining yarqirab turgan etiklariga havas bilan qarar, oshnasi begonalarining she'rларini o'qir, o'qigan satrlari ortida esa uning shaxsiy iztiroblari sezilib turardi.

Firbolgga o'xshab ketadigan to'pori oshnasi ba'zan uni o'ziga torsa, ba'zan tamom bezdirar edi. Deyvinning qishloq bolalariga xos kamsuqum, og'irkarvon fe'l-atvori, ingliz tilidagi eski g'aroyib iboralar bilan gapirishi, qo'pol jismoniy kuchdan zavqqa tushishi - Maykl Kyuzak gellasining muxlisi ekani - Stivenga yoqardi; gohida esa aqlining to'posligi, tuyg'ularining odmiligi yoki ko'zlarida tuyqusdan paydo bo'ladigan, kech kirdi deguncha komendantlik soatidan dahshatga tushib, pana-pastqamga urib ketadigan xilvat va qashshoq irland qishloqlari ahliga xos itoatkorona qo'rquv aksi uni Deyvindan bezdirardi.

Yosh dehqon yigit amakisi Meta Deyvinning ko'rsatgan jasoratlaridan qanchalik g'ururlansa, Irlandiyaning qayg'uli doston va rivoyatlarini ham shu qadar e'zozlardi. Deyvinning oshnalari sportchi haqida gurunglashib, bu bilan kollejdagı zerikarli hayotga jinday zavqli tus berishga urinishar, uni o'zlaricha yosh feniyalik, deb tasvvur qilgilari kelardi. Enagasi Deyvinni bolaligida irland tiliga o'rgatgan va murg'ak tasavvurini irland afsonalarining nimjon shu'lası bilan yoritgan edi. Hali biror kishi biror zamonda zig'irday nafasat hissini tuymagan bu afsonalarga va ularning asrlar osha ilohiyashtirilgan, aslida qovushmagan, lanj cho'pchaklariga Deyvin xuddi katolik diniga munosabatda bo'lganday - qulning ko'r-ko'rona sadoqati bilan ishonib qarardi.

Angliyadan chiqqan yoki ingliz madaniyati namunasi hisoblangan har qanday fikr yo tuyg'uni u, xuddi buyruqqa so'zsiz itoat etadigan askarday, qo'lda qurol bilan qarshi olardi. Uning nazarida Angliyadan tashqaridagi dunyo faqat Fransiyadagi Chet el legionidan iborat bo'lib, o'zining aytishicha, u ana shu legionga kirish niyatida edi.

Bunday o'y-xayollarga Devinning fe'l-huyini chog'ishtirib, Stiven uni xonaki g'ozchal deb atar va bu laqabga oshnasining gaplarıy harakatlaridagi lanjlik, lapashanglikni singdirmoqchi bo'lar, ana shu qusurlarni mulohaza qilish Stivenning intiluvchan, sergak aqli bilan irland hayotining pinhona sirlari orasiga g'ov solardi.

Bir kuni kechqurun Deyvin odatdagıday jo'shib, balandparvoz gaplaridan qizishib, hovliqib Stivenga g'alati bir voqeani gapirib berdi. Ular yahudiylar yashaydigan g'arib mavzening tor jinko'chalaridan sekin yurib, Deyvinning uyiga borishayotgan edi.

- O'tgan yili kuzda, Stivi, qish kirar pallada, g'alati bir voqeaga duch keldim. Men hali bu haqda biror kishiga og'iz ochganim yo'q. Birinchi marta senga aytayapman. Hozir yodimda yo'q, oktabrda bo'lganmidi bu, yoki noyabrdami, harqalay, oktabrda bo'lsa kerak, chunki bu voqea men bu yerga universitetga kirish uchun kelganimdan oldin bo'lgandi.

Stiven oshnasining sodda, samimiy gaplaridan zavqlanib, unga kulimsirab qaradi.

- O'shanda men butun kunni Batteventda o'tkazdim, bilmadim, sen bu shaharning qayerdaligini tasavvur qila olasanmi, yo'qmi? U yerda "Krouk yigitlari" bilan "Jasur terlsliklar" o'rtasida xokkey uchrashuvi bo'ldi. Juda zo'r o'yin bo'ldi-da o'ziyam, Stivi! Mening amakivachcham Fonzi Deyvinning kiyimlarini tilka-pora qilib tashlashdi. U Limerika komandasining darvozaboni edi, biroq o'yinning yarmini u jinniday baqirib-chaqirib hujumchilar bilan olishib o'tkazdi. Bu kunni umrbod unutilmasam kerak!

Krouklardan biri qo'lidagi chavgon bilan uni shunaqa tushirib qoldiki, - azbaroyi xudo, Stiven! - chintog'iga tegishiga sal qoldi.

Ishonasanmi, Stiven! Agar bu zarba sal teparoqdan tekkanda bormi, shu zahotıyoq u tamom bo'lardi.

- Omon qolganini eshitishning o'zi yaxshi, - dedi Stiven kulib. - Biroq bu, harqalay, sening boshingga tushgan o'sha g'aroyib voqea bo'lmasa kerak, deb umid qilaman?

- Ha, albatta, bu gaplar seni qiziqirtirmaydi. Xullas, o'sha uchrashuvdan so'ng qancha gap-so'z, shov-shuvlar bo'lmadi deysan, men poyezdga kech qoldim, yo'lda birorta arava ham uchramadi, chunki Kaslaunroshda cherkov yig'ini bo'lishi kerak edi, dehqonlarning hammasi ketishgandi. Iloj qancha! Yo shu yerda yotib qolish kerak, yoki yayov ketish kerak. Men yayov ketmoqchi bo'ldim. Qorong'i tusha boshlaganda Bellixaur qirlariga yetdim, u yerdan Kilmelokkacha yana o'n mil, agar ko'p bo'lmasa, uzundan-uzoq yo'l bosish kerak, biror-bir qora ko'rinmaydi. Butun yo'l bo'yi odam yashaydigan bittayam kulbani uchratmaysan, tiq etgan tovushni eshitmaysan. Hammayoq qop-qorong'i, zimiston. Ikki marta, trubkamni tutatib olish uchun, butalar panasida to'xtadim, agar qalin shudring tushmaganida cho'zilib yotib, uxlab qolishim aniq edi. Nihoyat yo'lning burilgan bir joyiga kelib, bundoq qaragam - kichkina uycha turibdi, derazasi yorug'. Men borib, taqillatdim. Ichkaridan kim, deb birov so'radi va men ovozi berib, Batteventdagi o'yindan chiqib, uyga qaytayapman dedim va suv so'radim. Bir necha daqiqadan keyin yoshgina kelinchak eshikni ochdi va katta kosada sut olib chiqdi. Kelinchak ichki kiyimda edi, aftidan, men taqillatgan paytda u to'shakka kirgan chog'i; uning sochlari to'zg'igan, qomatidan va ko'zlarining qarashidan u menga homiladorday ko'rindi. Biz bo'sag'ada tik turib uzoq gaplashib qoldik va hatto men: g'alati-ya, uning ko'kragi, yelkalari ochiq, deb o'yladim. U mendan charchamadingmi, deb so'radi va bu yerda tunab qolishni xohlaysanmi, dedi; keyin uyda yolg'iz ekanini, eri ertalab Kuinstaunga singlisini kuzatib ketganini aytdi. Biz qancha vaqt gaplashib turgan bo'lsak, Stivi, u mendan hecham ko'zini uzgani yo'q va menga o'zini juda yaqin olib keldi, men uning nafas olishini eshitib turdim. Men unga kosani qaytarib uzatayotganimda u qo'limdan ushladi va bo'sag'adan ichkariga tortdi: "Kir, kechasi yotib qol shu yerda. Qo'rqma, nimadan qo'rqasan. Ikkalamizdan boshqa hech kim yo'q", dedi. Men kirmadim, Stivi, unga rahmat aytdim-da, yo'limga tushib jo'nab qoldim. Bilsang, a'zoyi-badanim bezgak tutganday titraydi. Muyulishda orqaga o'girilib qaradim, kelinchak hali ham bo'sag'ada qarab turardi.

Deyvinning hikoyasidagi so'nggi so'zlar beixtiyor Stivenning xotirasida jaranglaganday bo'ldi va o'sha yolg'iz ayolning siymosi boshqa qishloq ayollarining qiyofasi bilan qo'shilib, bir paytlar kollej faytunlarida ular Kleynni yoqalab o'tganlarida uylarining eshiklari oldida turgan ayollarday, uning ko'z oldida gavdalandi: bu ayol xalqining tirik timsoli, uning xuddi ko'rshapalakday tunda pinhona va yolg'izlikda uyg'onadigan ruhi; begona kishini to'shagiga taklif etgan soddadil ayolning ko'zlari, ovozi va harakatlari.

Yelkasiga kimningdir qo'li tushdi va yosh qizaloqning qichqirgan ovozi keldi:

- Menikini ola qoling, ser. Birinchi qo'lni qaytarmang! Mana, chiroyli guldasta. Oling, ser!

Qizaloq uzatib turgan moviy gullar va uning moviy ko'zlari shu daqiqada Stivenga eng pokiza soddadillikning ifodasi bo'lib ko'rindi; bu taassurot xayolidan ko'tarilib, qizaloqning yirtiq ko'yilagiga, ho'l, dag'al sochlariga va issiq istarasiga ko'zi tushguncha Stiven biroz kutdi.

- Sotib oling, ser! Kambag'al qizga rahm qiling!

- Menda pul yo'q, - dedi Stiven.

- Oling ser, bu chiroyli guldastaga qarang! Bor-yo'g'i bir penni!

- Men nima dedim, eshitmayapsizmi? - so'radi Stiven unga biroz engashib. - Menda pul yo'q, dedim. Yana bir bor aytayapman.

- Iloj qancha, xudo bersa vaqti kelib sizdayam pul bo'ladi, nega bo'lmas ekan, - deb javob qildi qizaloq bir soniya jim turgach.

- Kim biladi deysiz, - dedi Stiven, - menimcha bunday bo'lishi dargumon.

U qizaloqning qo'lidagi matohini allaqanday angliyalik sayyohga yoki muqaddas Uchlik kollejining birorta talabasiga yalinib uzatib, farosatsizligi bois kulgiga qolishidan cho'chib, bunday ko'ngilsiz holni ko'rmaslik uchun tez-tez yurib undan uzoqlashdi. Yurib borarkan, Grefton-strit ko'nglidagi nochorlik hissini battar kuchaytirdi. Ko'chaning boshida, yo'lning qoq o'rtasida Xolf Ton xotirasiga tosh qo'yilgan edi va u otasi bilan bu yodgorlikning ochilishida qatnashganini esladi. Masxarabozlikka aylangan o'sha tantanani u alam bilan xotirladi. Tadbirda to'rt nafar fransuz delegati ham bor edi, ular hatto minib kelishgan foytunlaridan tushishmadi ham, ulardan biri, kulimsirab o'tirgan baqaloq yosh yigit, tayoqqa qadab olingan bosma harflardagi shiorni ushlab turardi: "Live I'irlande".

Endi fransuz tilidan ma'ruzaga borishning hojati yo'q, kech qoldi. U katta zalni ortda qoldirib, dahliz bo'ylab o'ngga, fizika xonasiga burildi. Dahliz qorong'i va jim-jit edi, biroq jimlik uni sergaklantirdi. Bunday xavotir hissi unga qayerdan yuqdi ekan, bu nimaning ta'siri? Balki Uyeyli yashagan vaqtlar bu yerda maxfiy yo'lak bo'lgani haqida eshitganidandir? Yoki, ehtimol, bu uy faqat iyezuitlarga mansubligi va bu yerda u o'zini begona his qilganidanmikan? Ton va Parnellning Irlandiyasi qayergadir g'oyib bo'lganday go'yo.

U auditoriya eshigini ochdi va chang bosgan derazalardan tushib turgan xira yorug'likda to'xtadi. Cho'nqayib o'tirgan jussa kaminning enli panjarasi oldida olovni tutashtirmoqchi bo'lib kuymalanar, harakati va sochining oqidan u dekanni tanidi. Stiven eshikni sekin yopdi va kaminga yaqin keldi.

- Salom, ser! Mening yordamim kerakmasmi?

Ruhoniy boshini ko'tarib qaradi.

- Bir daqiqa, mister Dedalus, - dedi u. - Mana hozir guvoh bo'lasiz. Kaminni yoqish - buyam bir ilm. Ijtimoiy fanlar bor, foydali fanlar bor. Mana bu foydali fanlardan biri.

- Men uni o'zlashtirishga harakat qilaman, - dedi Stiven.

- Buning siri bitta - ko'mirmi ko'p qalamaslik kerak, - davom etdi dekan qo'llari bilan chaqqon harakat qilarkan.

U yaktagining yon cho'ntagidan yonib tugagan to'rtta sham qoldig'ini chiqardi va ularni ko'mir bilan qog'ozlar orasiga yaxshilab joyladi. Stiven jim turib kuzatdi. Kamin oldidagi tosh plitaga tiz bukib turgancha, olov yoqishdan oldin, qog'oz o'ramlarini va sham qoldiqlarini to'g'rilarikan, u boshqa paytlardan ko'ra hozir ko'proq tangrining itoatkor, bo'm-bo'sh cherkovida qurbonlik olovini yoqayotgan levitni2 eslatardi. Levitning qo'pol kiyim-kechagiga o'xshagan, rangi o'chgan, to'zigan yaktak uning tiz bukib turgan jussasini o'rab olgan, yaktak serhasham ruhoniycha libos yoki mayda shiqildoqchalar qadalgan yefoddagi jussaga torlik qilar, noqulaylik tug'dirardi. Uning jismi umr bo'yi tangriga kamtarona xizmat qilganidan ushshoqday bo'lib qolgan edi: u mehrobdan olov yoqar, maxfiy ma'lumotlarni yetkazar, cherkov qavmiga vasiylik qilar, ularni yuqorining buyrug'iga ko'ra shafqatsiz jazolardi. Biroq baribir uning jussasida ezgulik alomati sezilmas, avliyolik yoki yuqori ruhoniy martaba egasiga xos to'kislikning asari ham ko'zga tashlanmasdi. Aksincha, qalbi bu xizmatda qarib, to'nib qoldi, na bir yorug'likka, na bir to'kislikka yetishdi, ilohiy tarovatga emas, balki atigi pajmurda, ojiz irodaga ega bo'loldi, xolos. Bu majruh iroda ana shunday ezgu xizmat quvonchidan benasib edi, xuddi bujmayib, tomirlari bo'rtib chiqqan, oqara boshlagan serjun tanasiday ramaqijon, sevinch va kurashlarga loqayd edi.

Dekan cho'nqayib o'tirgancha, payraxalarning yonishini kuzatardi. Oradagi noxush jimlikni buzmoqchi bo'lib, Stiven so'z qotdi:

- Men, ehtimol, kaminni yoqa olmasman.

- Siz musavvirsiz, to'g'rimi mister Dedalus? - dedi dekan, nursiz xira ko'zlarini tepaga ko'tarib qarab. - Musavvirning burchi - go'zallik yaratish. Go'zallik degani nima? Bu, endi boshqa masala.

U savolning murakkabligi haqida o'ylarkan, quruqshab qolgan qo'llarini asta-sekin artdi.

- Siz bu savolga javob bera olarmidingiz? - so'radi u.

- Foma Akvinskiy, - deb javob qildi Stiven, - "Pulsza suaye visa placent"2 deydi.

- Mana bu olov ko'zni quvontiradi, - dedi dekan. - Shundan kelib chiqib uni go'zal deyish mumkinmi?

- Olov ko'z bilan ko'rib anglanadi, bu esa ayni paytda estetik idroklashga kiradi, demak, olov go'zal. Biroq Foma Akvinskiy yana shunday deydi: "Bonum est in guod tyndit appetitus".3 Modomiki, olov tiriklik ehtiyojini qondirar ekan, demak, bu olov - ezgu.

Do'zaxda esa olov - yomon.

- Juda to'g'ri, - dedi dekan. - Siz mutlaqo haqsiz.

U o'rnidan chaqqon turib, eshikning oldiga keldi va uni qiya ochib, dedi:

- Olovning yonishi uchun juda zarur deyishadi.

Dekan biroz oqsoqlanib, biroq tez-tez odimlab kaminning oldiga kelgan chog'da uning xira, hissiz ko'zlaridan Stivenga iyezuitning qora qalbi nigoh tashlab turardi. Avliyo Ignatij Loyolaga o'xshab u ham cho'loq edi, biroq uning ko'zlarida g'ayrat ishtiyoqi porlamasdi. Hatto iyezuitlar ordenining afsonaviy makrlari, ularning nozik va teran donoliklari haqidagi mashhur kitoblaridan ham o'tib tushadigan nozik ayyorliklar ham uning yuragini havoriyga xos tug'yon bilan alangaladmadi. "Similiter afgul senis baculus", ya'ni u jamoa asoschisi o'ylagan, mo'ljallagan narsaga - misoli hassaga aylangan edi: hassaga qorong'uda tayanish mumkin yoki uni bog'chadagi o'rindiqdagi biror-bir xonim tashlab ketgan guldastaning yoniga qo'ysa bo'lar, ehtimol, dag'dag'a qilib, ko'tarib sermash ham mumkindir.

Dekan kamin oldida iyagini silab turardi.

- Biz qachon sizdan estetika masalalari haqida biror-bir fikr eshitamiz? - deb so'radi u.

- Mendanmi?! - dedi ajablanib Stiven. - Mayli, agar ikki haftada bir marta qandaydir fikrga duch kelish menga nasib etsa...

- Ha. Bu juda chuqur masalalar, mister Dedalus, - dedi dekan. - Ularning mohiyatiga yetish - Moxer qoyasida turib dengiz qa'rini ko'ra bilishday gap. Suv tubiga sho'ng'iganlar qaytib chiqishmaydi. Faqat tajribali g'ovvosgina bu teranlikka tushishi, tekshirishi va qayta suzib chiqa olishi mumkin.

- Agar siz manfaat nuqtai nazaridan aytiladigan mulohazalarni nazarda tutayotgan bo'lsangiz ser, - dedi Stiven, - u holda, meningcha, erkin fikrning o'zi yo'qday tuyuladi, chunki ana shunday sharoitda bu kabi fikrlar o'ziga yarasha qonunlarga bo'ysunishi va shu doirada cheklanishi lozim bo'ladi.

- Hm!..

- Fikrlab turib, men hozir Aristotel va Foma Akvinskiyning ba'zi bir qoidalarini asos qilib olayapman.

- Tushunayapman sizni, yaxshi tushunayapman.

- Men o'zimning fikrimga ega bo'lmagunimcha ularning fikrlariga tayanaman. Agar chiroq buriqsiq tutay boshlasa, men uni tozalashga harakat qilaman. Agar u yaxshi yoritmasa, men uni sotaman va boshqasini xarid qilaman.

- Epiktetning ham, - dedi dekan, - chirog'i bor edi, o'limidan so'ng uni juda qimmatga sotib yuborishdi. Bu chiroq yorug'ida u o'zining falsafiy asarlarini yozgan. Siz Epiktetni o'qiganmisiz?

- Ruh suv quyilgan idishga o'xshaydi, degan qariya-da, - dedi keskin javob qilib Stiven.

- U o'ziga xos soddalik bilan, - davom etib dedi dekan, b"b"bizga shunday hikoya qiladi: ilohlardan birining haykalchasi oldiga temir chiroqni qo'yishgan ekan, o'g'ri chiroqni o'maribdi. Xo'sh, faylasuf nima qildi? U o'g'rilik - o'g'ringing tabiatiga xos, degan xulosaga keldi va ertasi kuni temir chiroq o'rniga sopol chiroq xarid qildi.

Sham qoldiqlaridan erigan yog'ning hidi chiqdi va hid Stivenning ongida: idish, chiroq, chiroq, idish so'zlarining g'alati jarangi bilan qorishdi. Ruhoniyning ovozi ham bunga jo'r bo'ldi. Stiven bu g'alati tovushlar, obrazlar va ruhoniyning qiyofasi ta'siridan beixtiyor fikrlay olmay qoldi, ular yoqilmagan chiroqqa yoki noto'g'ri burchak ostiga ilib qo'yilgan nur qaytargichga o'xshab tuyuldi. Ularda yoki ularning ortida qanday sir yashiringan? Xuddi tangrining qahru g'azabi bilan to'lib toshgan qora bulutday badqovoq, fikrlab turishga odatlantirilgan idrokning to'posligi.

- Men biroz boshqacha chiroqni nazarda tutgan edim, ser, b"b"dedi Stiven.

- Albatta, - dedi dekan.

- Estetika haqida mulohaza yuritishning qiyin tomonlaridan biri, - dedi davom etib Stiven, - shundan iboratki, bunda so'z qaysi ma'noda - adabiyi yoki maishiy ma'noda ishlatilayotganiga ahamiyat berish lozim. Men hozir N'yumenning bir gapini esladim, unda aytilishicha, Bibi Maryam pravoslav mazhabidagi xalqning ongida chuqur o'rnashgan. Kundalik turmushda bu so'zni ishlatishganda butunlay boshqacha ma'no yuklashadi. Umid qilamanki, men o'zimning nodonligimda chuqur ketmayotgan bo'lsam kerak?

- Yo'q, albatta, - dedi ehtirom bilan dekan.

- Yo'q, - dedi kulib Stiven, - men aytmoqchimanki...

- Bo'ldi, bo'ldi, tushundim, - gapni ilib ketdi dekan, - siz "chuqur ketmoq" fe'lining turli ma'no belgilarini nazarda tutayapsiz.

U iyagini oldinga cho'zdi va qisqa, quruq yo'taldi.

- Xo'p, yaxshi, endi chiroqqa qaytamiz, - dedi u. b"b"Unga moy quyish ham xiyla qiyin yumush. Avvalo, moy toza bo'lishi kerak, quyayotganda ehtiyot bo'lish lozim, chetiga to'kilib ketmasin, voronkaga sig'adiganidan ortiq quyib yubormaslik kerak.

- Qanaqa voronka? - so'radi Stiven.

- Idishning og'ziga quyib, moy quyadigan asbob.

- Ha... - dedi Stiven.

- Shuni voronka deydimi? Menimcha, bu suzgich.

- "Suzgich" nima?

- Bu o'sha... voronka.

- Buni irlandlarda suzgich deyishadimi? - deb so'radi dekan. - Umrimda birinchi marta eshitishim bu so'zni.

- Quyi Dramkondrda suzgich deyishadi, - dedi kulib Stiven, - u yerda sof ingliz tilida gapirishadi.

- Suzgich, - o'ychan takrorladi dekan, - ajoyib so'z. Uni lug'atdan bir qarab ko'rish kerak ekan. Albatta qarayman.

Dekanning sertakallufli shu qadar soxta tuyuldi, Stiven bu yangi ingliz maslakdoshiga, xuddi rivoyatda aka oqqadar ukasiga qaraganday qaradi. Bir paytlar ko'p shov-shuvlarni qo'zg'agan da'vatnomalarning bu itoatkor muxlisi, Irlandiyadagi kambag'al ingliz, so'nggi kelgindi, kechikkan ruh fisqu fasodlar komediyasining asosiy voqeasi - azob-uqubatlar, havasu hasadlar, kurashlar va sharmandaliklar xotimasiga yetayotgan pallada iyezuitlarning tarix sahnasiga chiqib qolganday tuyulardi. Bunga uni nima majbur qilgan ekan? Balki u najot faqat Isoda deb umidvor bo'lgandir va ramziy cherkovning sertashvish dabdabalaridan hazar qilgan aqidaparast mazhabchilar orasida tug'ilib o'sgandir? U ko'r-ko'rona e'tiqodga mazhabparastlarning marosimlarida va ashaddiy bid'atchilarning irim-sirimlarida, olti a'molning jami muxlislari, alohida xislatga ega kishilar, baptistlar izdoshlari, supralapsarian aqidaparastlari orasida yurganda ehtiyot sezmaganimkan? U haqiqiy cherkovni, muqaddas ruhning tushishi yoki boshqa cherkov marosimlari mohiyatini, xuddi g'altakdan ingichka ipni ziyraklik bilan ajratib olganday, ehtiyotkor mulohazalar bilan tushunib favqulodda anglab tanlab olganmikan? Yoki u allaqanday tomiga tunuka qoplagan butxona eshigi oldida esnab, cherkovga tushgan chaqalarni sanab o'tirganda, bir zamonlar boj yig'ib o'tirgan2 ummatiga da'vat etgan tangri kabi, Masih ham uning boshini silab, o'ziga ergashishga chorlaganmikan?

Dekan yana gap boshladi:

- Suzgich! Ha, haqiqatan ham bu juda qiziq!

- Sizning bundan oldin menga bergan savolingiz qiziqroq edi. Musavvir loydan yaratishga urinayotgan go'zallikning mohiyati nimada? - dedi Stiven sovuqqon ohangda.

Shu birgina so'z ko'nglidagi xavotirning zaharli tig'ini sertakalluf va sergak raqibiga qarshi qaratganday tuyuldi. Xo'rlikning achchiq alamini ko'nglidan kechirarkan, Stiven o'zi bilan suhbatlashayotgan bu odam Ben Jonsonning vatandoshi ekanini his etdi. U o'yladi:

"Hozir biz gaplashgan til - avvalo uning tili, ikkinchi navbatda meniki. Oila, Iso, pivo, o'qituvchi so'zlari uning og'zidan boshqacha va mening og'zimdan boshqacha chiqadi. Men bu so'zlarni xotirjam aytolmayman ham, yozolmayman ham. Uning tili menga qanchalar yaqin va naqadar begona, men uchun ter to'kib egallangan bir vosita, xolos. Men uning so'zlarini yaratganim yo'q, ularni qabul qilganim yo'q. Mening ovozim ularni o'ziga yaqin yo'latmaydi. Mening ruhim uning tili zulmatida g'azabga minadi".

- Xo'sh, go'zallik bilan ko'tarinkilik o'rtasida qanday farq bor, b"b"dedi dekan, - ma'naviy va moddiy go'zalliklar o'rtasida-chi? San'atning qaysi turiga qanday xildagi go'zallik xos? Mana, astoydil shug'ullansa arziydigan qiziqarli muammolar.

Dekanning ovoqidagi quruq, qat'i ohangdan shashti qaytgan Stiven jim qoldi. Oraga cho'kkan jimlikni buzib, zinapoyadan ovozlarning shovqini va etiklarning dupuri eshitildi.

b"b" Biroq mana shunday oldi-qochdi gaplarga berilib, - deya xulosa qildi dekan, - ochingdan o'lib ketish ham mumkin. Birinchi navbatda siz diplomni qo'lga kiritib olishingiz kerak. Buni oldingizga birinchi maqsad qilib qo'ying. Keyin asta-sekin yo'lingizni

topib ola boshlaysiz. Men keng ma'noda gapiryapman - hayotga eltadigan yo'lni va fikrlash tarzini nazarda tutayapman. Ehtimol, dastlabki paytlarda bular juda qiyin tuyular. Mana, mister Munenni olaylik - uning yuqori cho'qqini egallashi uchun hazilakam vaqt talab qilingani yo'q. Biroq shunga qaramay u cho'qqini zabt etdi.

- Ehtimol, menda uning talanti yo'qdir, - xotirjam e'tiroz bildirdi Stiven.

- Kim biladi deysiz? - dadillanib javob qildi dekan. - Botinimizda nimalar borligini biz hech qachon bilolmaymiz. Menga qolsa, har qanday holatda ham ruhan tushmasdim. Per aspera ad astra[5].

U o'choqdan ildam uzoqlashdi va birinchi kurs talabalarini kutib olish uchun maydonchaga yo'l oldi.

Stiven kaminga suyanib, uning har qaysi talaba bilan alohida-alohida qo'l berib, birday betakalluf va birday tetik ko'rishib so'rashayotganini eshitdi, beadab talabalarning uni masxaralab oshkora iljayishayotganini ko'z oldiga keltirdi. Achehiq alam, xuddi sovuq shudringday, uning ta'sirchan yuragini achishtirdi, Stiven bahodir Loyolaning bu sodiq askariga, ruhoniylarning bu o'gay inisiga, qolaversa, o'z fikriga egalik qilishda ulardan ko'ra ko'ngilchanroq, bo'sh-bayov, ammo ruhi bardam ruhoniya achindi; hech qachon o'ziga ma'naviy ota deb hisoblamaydigan bu ruhoniya rahmi keldi; bu odam va uning safdoshlari, deya o'yladi u, nafaqat tirikchilik g'amini unutilib, bu dunyo tashvishlariga qo'l siltaganlar orasida, balki o'zlarining butun kechmishlari davomida ojiz, kuchsiz, omadsiz va uddaburron avom o'rtasida ham, yaratgandan ularga rahm-shafqat, omad so'rab, katta obro' orttirishgan.

Auditoriyaning yuqoridagi qatorida, o'rgimchak to'rlari qoplab yotgan derazalar tagidagi o'rindiqlarda o'tirishgan talabalar tarafidan ko'tarilgan og'ir etiklar dupur-dupuri o'qituvchi kirib kelayotganidan darak berdi. Yo'qlov boshlandi va navbat Piter Bernga yetib kelguncha har kim har alpozda javob qildi.

- Shu yerda!

Yuqori qatordan do'rillagan yo'g'on ovoz eshitildi va shu daqiqadayoq boshqa o'rindiqlardan e'tirozli ma'noda tomoq qirishlar, zo'raki yo'talishlar quloqqa chalindi.

O'qituvchi biroz to'xtab kutdi va ro'yxat bo'yicha navbatdagi ism-sharifni o'qidi:

- Krenli!

Hech kim javob qilmadi.

- Mister Krenli!

Do'stining mashg'ulotini ko'z oldiga keltirib, Stivenning kulgisi qistadi.

«B»Uni Leperdstaundan qidiringlar, - dedi kimdir orqaroqdagi o'rindiqdan.

Stiven chaqqon burilib qaradi. Biroq xira yorug'da Moynixenning tumshuqdor basharasi xotirjam, qilt etmasdi. O'qituvchi formulani aytib turdi. Atrofdagi daftarlar shitiray boshladi. Stiven yana ortiga o'girilib dedi:

«B»Qog'oz berib turing, xudo xayringizni bersin.

«B»Ha, senikiyam qistab qoldimi? - ishshayib kulib so'radi Moynixen.

U o'zining daftaridan bir varaq yirtib uzatarkan, pichirladi:

«B»Majbur bo'lganda har qanday odamning, har qanday xotinning bunga haqqi bor.

Bir parcha qog'ozga eshitib turib yozib olgan formula yechimining yig'ilib, yoyilib borayotgan ustunlari, kuchning ko'z ilg'amas timsollari va tezliklari Stivenning aql-hushini sehrlab, toliqtira boshladi, u kimdir birovdan qariya - dahriy va mason, deb eshitgan edi. O', bunchalar ro'shnosiz, qayg'uli bo'lmasa bu kun! Go'yo aql-idroki beozor va itoatkorona tumanli g'ira-shira yorug'da uzundan-uzoq, bir tekis chizmalarni olamning behudud, tubsiz va ko'z ilg'amas puchmoqlari bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa surib, qo'shib-ayirib yurgan matematiklarning ruhlari izg'igan limbga cho'kayotganday.

- Shunday qilib, biz ellipsni ellipsoiddan farqlashimiz lozim. Balki, jentelmenlar, orangizda mister U.Sh. Gilbertning asarlarini o'qiganlar bordir. She'rlaridan birida u billiard o'ynashga mahkum g'irrom billiardchi haqida shunday yozadi:

Qiyshiq stolga

Qayrilgan kiyda

Cho'zinchoq soqqada.

U, asosiy o'qlari haqida men hozir aytgan, ellipsoid shaklidagi soqqani nazarda tutgan.

Moynixen Stivenning qulog'iga engashib shipshidi:

«B»Hozir ellipsoidli soqqalar qancha turarkan?! Qani, ortimdan ergashing xonimchalar, men suvoriyman!

Do'stining qo'pol hazili Stivenning xayolini cherkov ichi bo'ylab quyunday olib qochdi, devorda shalvirab osilib turgan liboslarni silkitdi, ularni jazavali jinlar bazmidagiday qiyshanglab o'yin tushishga majbur etdi. Cherkov qavmi a'zolari quyunda hurpayib ketgan ridolar ichidan birin-sirin sirg'alib chiqib keldi: oppoq sochli boshiga shapka qo'ndirib olgan dekan; rektor; silliq sochli, xudojo'ylik mazmunidagi she'rlar yozib yuradigan miqtigina ruhoni; girdig'um, beso'naqay iqtisod o'qituvchisi; mantiqdan dars beradigan, xuddi ohular galasi ustida mag'rur bo'y cho'zib, daraxt barglarini yamlab yutayotgan jirafaday, maydonchada o'zining kursidagi bolalar bilan vijdan masalasini muhokama qiladigan o'qituvchi; boshi dum-dumaloq, tulkiko'z italyan tili o'qituvchisi. Ular shum niyatli harakatchanlikka berilishgan, yelday uchishadi, turtinib-surinib dumalashadi va irg'ishlaydi; cho'qloqlashib, zo'rma-zo'raki xoxolashadi, bir- birining ketiga shappatilab qo'yishadi, o'zlarining shumliklaridan shod bo'lishadi va tuyqusdan izzat nafsleri tahqirlanganday, allaqanday qo'pol hamladan xunobi oshganday xavotirlanib kaftlari bilan og'izlarini bekitishib, pinhona pichirlashadi.

O'qituvchi devordagi shisha shkaf oldiga keldi va javondan sim o'ralgan g'altakni olib changini pufladi-da, ehtiyot qilib stolga qo'ydi va bir barmog'i bilan stolga tayanib, ma'ruzani davom ettirdi. U hozirgi g'altaklardagi simlar platinoid deb ataladigan, yaqinda F.U. Martino kashf etgan qotishmadan tayyorlanishini tushuntirdi.

U kashfiyotchining ism-sharifini dona-dona qilib, aniq eshittirib aytdi. Orqadan Moynixen shipshidi:

«B»Balli, qariya. Fu, Martin! Martin irg'ishlaydi, Martin o'ynaydi...

- So'ra-chi undan, - shivirladi Stiven yarim hazil, yarim chin ohangda, - elektr stulda tajriba o'tkazish uchun odam kerakasmikan?

U mendan foydalanishi mumkin.

O'qituvchining g'altakka egilganini ko'rib, Moynixen o'rnidan turdi va o'ng qo'lining barmoqlarini ovoz chiqarmay qisirlatdi, shum bolaning tovushi bilan hiringladi:

- Ser, manavi bola beta'miz so'zlarni aytayapti, ser!

- Platinoidni, - kuchanib davom etdi o'qituvchi, - neyzilberdan afzal bilishadi, chunki harorat o'zgarganda uning qarshilik koeffitsiyenti kam bo'ladi. Platinoidli simlarni izolyatsiya qilish uchun ipak ishlatiladi, ipak ebontli g'altakning mana bu yeriga,

mening barmog'im turgan joyiga o'raladi. G'altakka qaynoq parafin shimdiriladi.

Quyidagi o'rindiqdan, Stivenning old tarafidan keskin ovoz olstercha lahzada so'radi:

- Bizni amaliy fanlar bo'yicha ham imtihon qilishadimi?

O'qituvchi tushunchalarni ustalik bilan ishlatib, gapdonlik qila boshladi: eng sof fan - amaliy fandır. Tilla ko'zoynak taqqan semiz talaba savol berganga biroq ajablanib qaradi. Moynixen orqadan o'zining odatdagi ovozi bilan pichirladi:

вЂ”Ol-a, bu Makalister o'zining luqmasini yulib olishni uddalaydi.

Stiven pastga, zig'irpo'ya tolasining rangidagi soch tolalari to'zg'igan cho'zinchoq bosh suyagiga sovuq nazar tashladi. Savol berganning tovushi, lahjasi, fe'l-atvori uning g'ashini qo'zg'adi, u o'zining jahliga erk berdi va ongli badxohlik bilan: agar bu talabani otasi uni o'qitish uchun Belfastga jo'natganida aqlli ish tutgan va shu zayl yo'l haqini tejagan bo'lardi, deb o'yladi.

Cho'zinchoq bosh suyagi Stivenning xayolan otgan o'qlariga qayrilib qaramadi va o'qlar nishonga yetib bormadi, aksincha, kamoning tarang tortilgan ipiga qaytdi, chunki uning ko'ziga tuyqusdan talabani bo'zargan, qonsiz yuzi ko'rinib ketdi.

"Bu fikr menikimas, - degan o'y Stivenning miyasida yalt etib o'tdi. - Uni mening ko'nglimga orqamdagi o'rindiqda o'tiradigan nayragboz irland soldi. Sabr-toqat. Xo'sh, sen o'zing ishonch bilan o'z xalqingning ruhini sindirgan va uning asl o'g'lonlarini sotgan kimligini ayta olasanmi: bu savolni bergan o'sha kimsami yoki keyinchalik uni tahqirlagan kishimi? Sabr-toqat. Epiktetni esla. Ehtimol, bu Makalisterning fe'l-atvorida bordir: shunday vaziyatda shunaqa savol so'qish va so'zga noto'g'ri - "amaliy" deb urg'u berish?"

O'qituvchining zerikarli nutqi bir maromda g'altak tevaragida ohista g'o'ng'illab aylanar, tovush o'zining uyquni keltiradigan darajadagi ta'sir kuchini, xuddi g'altakning qarshilik kuchi oshib borganday, ikki karra, uch va to'rt karra oshirib borardi.

Uzoqdan eshitilgan qo'ng'iroq jarangiga Moynixenning tovushi jo'r bo'ldi:

- Do'konchani yopamiz, jentelmenlar!

Katta zal tiqilinch va shovqin edi. Eshik oldidagi stolda ramkaga solingan ikkita surat turibdi, ularning o'rtasida imzolarning qing'ir-qiyshiq ustuni aks etgan uzun qog'oz varag'i yotibdi. Makkenn talabalar orasida izg'ib, jag'i tinmay, qo'l qo'yishga e'tiroz qilganlarga tushuntirib, ularni birin-ketin stol oldiga olib kelardi. Zalning to'rida dekan turibdi, u yosh o'qituvchi bilan gaplashayotir, iyagini ma'nodor silab qo'yadi, boshini sermaydi.

Olamon eshikkacha siqib borgan Stiven bir qarorga kelolmay to'xtadi. Yumshoq shlyapaning tushurilgan keng peshayvoni tagidan Krenlining qora ko'zlari uni kuzatib turgandi.

- Sen qo'l qo'ydingmi? - so'radi Stiven.

Krenli o'zining yupqa lablarini qisdi va bir soniya o'ylab, javob qildi:

- Ego habeo?[6]

- Bu nima degani?

- Quod?[7]

- Bu nima degani?

Krenli bo'zargan, qonsiz yuzini Stivenga burdi va qisqa, ma'yus ohangda dedi:

- Pez pax universalis[8].

Stiven barmog'i bilan podshohning suratiga ishora qilib, dedi:

вЂ”Uning yuzi sarxush Isonikiga o'xshaydi.

Ovozidagi qahr va g'azab Krenlini zalning devorlariga xotirjam qarab, tomosha qilishdan chalg'ishga majbur etdi.

- Sen bir nimadan norozimisan?

- Yo'q, - javob qildi Stiven.

- Kayfiyating yomonmi?

- Yo'q.

- Grebo ut vos sanguinazius mendax estis, - dedi Krenli, - guia facies vostra monstrat ut vos in damno malo humore estis[9].

Moynixen stolga yaqin kelib, Stivenning qulog'iga shipshidi:

- Makkennning oshig'i olchi. Yana bir tomchi qo'shilsa bas, tap-tayyor bo'ladi. Yap-yangi, chaqmoqday kiyingan. Hech qanday o'tkir spirtli ichimliklar yo'q, urg'ochilar ovoz berish huquqiga ega.

Stiven bu xabarning ishonchli ohangidan kulimsiradi, Moynixen ketgach, yana boshini burib qaradi va Krenlining ko'ziga ko'zi tushdi.

- Balki sen tushuntirarsan, - dedi u, - nega endi u dardu alamini mening qulog'imga quygisi kelib qoldi? Xo'sh, tushuntir-chi.

Krenlining peshonasida ma'yus tirishlar paydo bo'ldi. U Moynixen egilib, imzo chekayotgan stolga qaradi va cho'rt kesib dedi:

- Yopishqoq.

- Quis est in malo humore, - dedi Stiven, - ego aut vos?[10]

Krenli hazilga javob qilmadi. U g'amga botib, yana qanday keskinroq gap qilsam, deb o'yladi va oldingiday qat'i ohangda dedi:

- Uchiga chiqqan pastkash yopishqoq!

Bu uning odatda barham topgan do'stlik qabriga xoch qo'ndirgandan keyingi epitafiyasi edi; Stiven bu ibora bir vaqt kelib xuddi shunday ohangda mening xotiram uchun ham aytilmasmikan, deb o'yladi. Bu og'ir, nojo'ya gap uning qulog'iga singib ketdi, xuddi yoriqqa tushib ketgan toshday sekin cho'kdi. Stiven bu gapning, xuddi bir paytlar ko'ngliga og'ir botgan tahqirli so'zlarday, yuragiga vazmin cho'kayotganini his etdi. Krenli, Deyvindan farqli o'laroq, gaplashganda na yelizaveta zamonidagi kamyob qadim inglizcha iboralarni, na inglizcha ohangga solinib o'zgartirilgan zavqli irdandcha so'zlarni ishlatardi. Uning cho'ziq talaffuzi dublinliklarning qirg'oqda turib qorong'i, qarovsiz bandargohdagilar bilan bir-birlariga tovush berishlariga o'xshar, gaplarining burroligi esa Uiklou minbaridan yangraydigan Dublin cherkovi voizining chechanligi ta'siri edi.

Zalning nariga tarafidan ularga tamon yaqinlashib kelayotgan Makkenni ko'rganda Krenlining peshonasidagi g'amgin tirishlar yozildi.

- Ana, sizlar! - dedi Makkenn yayrab.

- Ana, men, - dedi Stiven.

- Odatdagiday, yana kech qolinibdi! Sizlarning yutuqlaringga gap yo'q, biroq intizomga ham jinday e'tibor qaratishning iloji bormi?

- Bu masala kun tartibida turgani yo'q, - dedi Stiven. - Keling, ishdan gapiring.

Uning kulimsirayotgan ko'zlari targ'ibotchining kamzuli yuqori cho'ntagidan chiqib turgan kumushrang qog'ozga o'ralgan bir

bo'lak shokoladga qadalgan edi. Hayal o'tmay ularning atrofini hangomatalab ishqibozlar o'rab olishdi. Terisi zaytunrang ozg'in, qora silliq sochli talaba bolalar orasidan boshini suqib, bir unga, bir bunga qarab, go'yo aytilayotgan gaplarni ilib olmoqchiday og'zini ochib alanglardi. Krenli cho'ntagidan jajji koptokcha chiqarib, qo'lida aylantirib sinchkovlik bilan kuzata boshladi.

- Qani, ishga! - dedi Makkenn. - Xo'sh! U og'zini katta ochib qattiq kuldi va to'rtburchak iyagida selkillab turgan sarg'ish soqolini ikki marta tortqilab qo'ydi.

- Ish shundan iboratki, qo'l qo'yish kerak, xolos.

- Haqini to'laysizmi, agar men qo'l qo'ysam? - so'radi Stiven.

- Men sizni idealist, deb o'ylagandim, - dedi Makkenn.

Lo'libashara talaba o'grilib atrof digilarga qarab oldi va ming'irlagan ovozda dedi:

вЂ”Qiziq gap bo'ldi-yu, jin ursin! Menimcha, bu manfaatparastlikdan boshqa narsa emas.

Uning ovozi jimlikka singib ketdi. Bu talabaning gapiga hech kim e'tibor qilmadi. U o'zining zaytunrang, otnikiday uzunchoq yuzini Stivenga burib, go'yo undan javob kutdi.

Makkenn rus podshosining yorlig'i haqida, Sted haqida, ommaviy qurolsizlanishu xalqaro ziddiyatlar chog'ida arbitrajning ahamiyati haqida, hozirgi zamonning eng muhim hodisalari haqida, jamiyatga kam chiqim qilib ko'p sonli aholini katta baxt va farovon turmush bilan ta'minlash majburiyatini yuklaydigan yangi gumanizm va yangi axloq haqida dadil turib nutq irod qila ketdi.

Lo'libashara talaba nutqning yakunini qiyqiriq bilan qarshiladi:

- Yashasin, umumjahon birodarligi!

- Jo'na, jo'na, Templ, - dedi uning yonida turgan qizil yuzli barvasta talaba. - Mendan haqingni hali olasan.

вЂ”Men umumjahon birodarligini yoqlayman! - qichqirdi Templ, qisiq ko'zlari bilan tevarakka alanglab. - Marksning gaplari quruq safsata.

Krenli sekinroq degan ma'noda uning qo'lidan mahkam siqib ushladi va zo'rma-zo'raki jilmayib, bir necha marta takrorladi:

- Sekinroq, sekinroq, sekinroq!

Templ, qo'lini bo'shatishga urinib, og'zidan ko'pik sachratib qichqirdi:

- Sotsializmga irlandlar asos solishgan, Yevropada fikr erkinligini targ'ib qilgan birinchi kishi Kollinz edi. Ikki yuz yil oldin midlesseklik bu faylasuf ruhoniylarni fosh etdi. Yashasin Jon Entoni Kollinz!

Orqarodagi qatordan ingichka ovoz javob qildi:

- Ura!

Moynixen Stivenning qulog'iga shipshidi:

- Jon Entonining mushtipar singlisining ahvoli qalay:

Lotti Kollinz lozimasiz,

O'zingiznikini berib turing.

Stiven kulib yubordi va xursand bo'lgan Moynixen yana uning qulog'iga shipshidi:

- Jon Entoni Kollinzga qancha pul tikma, baribir besh shillingdan ortiq yutulmaysan.

- Sizing javobingizni kutayapman, - dedi qisqa qilib Makkenn.

- Bu savol meni zig'ircha qiziqitirmaydi, - dedi horg'in ohangda Stiven. - Bu sizga ma'lum-ku. Nima masalada bahs qo'zg'ab o'tiribsiz?

- Yaxshi, - dedi Makkenn lablarini chapillatib. - Xo'sh, demak, siz reaksionersiz, shundaymi?

- Qo'lingizdagi yog'och qilichni sermaganingiz menga ta'sir qiladi, deb o'ylayapsiz shekilli? - so'radi Stiven.

- Yana metaforalar! - keskin ohangda dedi Makkenn. - Keling, ishdan gaplashaylik.

Stiven jahli chiqib, teskari burildi. Biroq Makkenn yalinmadi.

- O'rtamiyon shoirlar, aytish mumkinki, o'zlarini umumjahon tinchligi muammosiday mayda masalalardan yuqori olishadi.

Krenli boshini ko'tardi va tinchlik sulhiga chorlaganday qo'lidagi koptokni ikki talabaning o'rtasida tutib, dedi:

- Pax super totum sanguinarium giobum[11].

Yonidagilarni chetga surib, Stiven qahr bilan rus podshosining surati turgan tarafga yelkasi bilan ishora qilib, dedi:

- O'zingizning ikonangizdan ajralmang. Agar sizga Iso shunchalik zarur ekan, mayli bu siz uchun qonuniy Iso bo'la qolsin.

- Mana bu zo'r gap bo'ldi, - deb yubordi lo'libashara talaba atrof digilarga bir-bir qarab. - Zo'r gap. Menga judayam yoqdi sizning gapingiz.

U so'lagini, xuddi gapni yutganday, yutib yubordi, keyin shapkasini peshayvonidan ushlab, Stivenga murojaat qildi:

- Kechirasiz, ser, bu bilan siz nima demoqchi edingiz?

Yonida turgan talabalar turtayotganini sezib, u o'girildi va davom etdi:

- Mening bilgim kelayapti, bu gap bilan u nima demoqchi o'zi?

Keyin u yana Stivenga o'girildi va shivirlab dedi:

- Siz Isoga ishonasizmi? Men insonga ishonaman. Men, albatta, bilmayman, siz odamga ishonasizmi, yo'qmi. Ser, sizga hurmatim oshdi. Men inson aqliga ishonaman, u bilan g'ururlanaman, uning qaysi dindaligi men uchun baribir. Aytinch, siz Isoning aqli haqida ham shunday fikrdamisiz?

- Jo'na, jo'na, Templ! - dedi qizil yuzli barvasta talaba. - Haqingni mendan olasan hali.

- U meni ahmoq deb o'ylaydi, - tushuntira boshladi Templ Stivenga, - chunki men inson aqlining qudratiga ishonaman.

Krenli Stivenning va uning muxlisining qo'ltig'idan olib, dedi:

- Nos ad manum ballum jocabimis[12].

Zaldan chiqayotib Stiven Makkennning qizarib ketgan beso'naqay basharasiga ko'z tashladi.

- Mening imzom hech qanday ahamiyatga ega emas, - dedi u xushmuomalalik bilan. - Siz o'z tanlagan yo'lingizdan yurishga haqlisiz, biroq meni o'zimning yo'limdan ketishga qo'ying.

- Dedalus, - dedi Makkenn tovushi titrab. - Mening nazarimda, siz yomon odammassiz, biroq sizga alturizm va shaxsiy mas'uliyat hissi yetishmaydi.

Kimdir ovozini chiqarib dedi:

- Biroq bizning harakatda intellektual lo'ttibozlarga joy yo'q.

Stiven Makalistrning shang'illagan keskin ovozini tanidi, biroq u turgan tarafga qayrilmadi. Krenli Stiven va Templning

qo'ltig'idan olib, namoyishkorona, xuddi kichik martabalilar kuzatuvida viqor bilan mehrob tomon odimlayotgan ruhoniyyday, talabalar to'dasini yorib o'tib borardi.

Templ chaqqon egilib Stivenga dedi:

- Siz eshitdingizmi Makalistrning gapini? Bu bola sizga hasad qilayapti. Sezdingizmi? Garov o'ynayman, Krenli buni sezmedi, men esa, jin ursin, darrov sezdim.

Ular zalni oralab o'tayotib, dekaning o'zini gapga solayotgan talabadan qutulishga harakat qilayotganini ko'rishdi. Dekan zinapoyaning oldida, bir oyog'ini quyi zinaga qo'yib, ayollarga xos saranjomlik bilan ohori ketib qolgan yaktagining etagini yig'ib, shu orada qoshini qoqib, bir gapni takrorlardi:

- Hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, mister Xekket! Ha, ha, hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

Zalning o'rtasida iyezuitlar birodarligining ma'muriy boshlig'i allaqanday talaba bilan norozi ohangda sekin suhbatlashib turardi. U gapira turib sepkilli manglayini tirishtirar va gap orasida suyakdan ishlangan ingichka qalamni tishlab qo'yardi.

- Men birinchi kurslar hammasi borsa kerak, deb o'ylayman. Ikkinchi kursga ham ishonsa bo'ladi. Uchinchiga ham. Yangilarini bilmadim.

Eshikning oldida Templ yana Stivenga egildi va shoshilib pichirladi:

- Uning uylanganidan xabaringiz bormi? Katoliklikka o'tishidan oldin u uylangan edi. Allaqayerda xotini, bolalari bor. Jin ursin, g'alati taqdir. To'g'rimi?

Uning pichir-pichiri ayyorona qiqqillagan kulgiga aylandi. Eshikdan chiqishgan zahoti Krenli uning yoqasidan mahkam tutamlab oldi va silkilab dedi:

- Miyasiz, befarosat, yaramas ahmoq! Ajal bilan yuzma-yuz kelganimda ham, bu ahmoqona dunyoda sendan o'tadigan yaramas maymun yo'qligiga qasam ichaman, agar!

Templ yulqinib, ayyorona qiqqillashini davom ettirdi, Krenli esa har yulqiganda takrorladi:

- Miyasiz, befarosat, yaramas, ahmoq!..

Ular qarovsiz qolgan bog'dan o'tishdi; yo'laklardan birida og'ir keng plashga o'ranib, ro'paralaridan duo o'qib kelayotgan rektorni ko'rishdi. Yo'lakning tugagan joyida, muyulishdan berida u to'xtadi va boshini ko'tardi. Talabalar unga ta'zim qilishdi. Templ, odatdagiday, shapkasining peshayvoniga qo'lini tekizdi. Keyin jim yurib ketishdi. Ular maydonchaga yaqinlashganda Stiven o'yinchilarning zarbalaridan taralayotgan bo'g'iq tovushni, ho'l koptokning tapillagani va Deyvinning har zarbadan so'ng hayajonlanib qichqirganini eshitdi.

Ular uchchalasi ham o'yinni kuzatib turgan Deyvin o'tirgan qutining oldida to'xtashdi. Bir necha soniyadan so'ng Templ yonboshi bilan Stivenga yaqinlashib dedi:

- Kechirasan, men sendan so'ramoqchi edim, sen nima deysan, Jan-Jak Russo samimiy kishi bo'lganmi?

Stiven beixtiyor xoxolab kuldi. Krenli maysaning ustida yotgan yog'och bochkaning siniq bo'lagini qo'lga oldi-da, tez o'girilib, g'azab bilan dedi:

- Templ, xudo haqqi, yana bir og'iz gapirsang, men seni tinchitaman super spottum!

- Ehtimol, - dedi Stiven. - U ham senday ehtirosli odam bo'lgan.

- E, balo bo'lmaydimi! - keskin javob qildi Krenli. - Shu bilan endi adi-badi aytishamanmi. Bu nima-yu, munda nima! Qani, tuyog'ingni shiqqillat, Templ. Jo'na bu yerdan! Yo'qol!

- Tupurdim senga, Krenli, - javob qildi Templ, baland ko'tarilgan yog'ochdan o'zini chetga olib qocharkan, Stivenga ishora qildi. - Mana, bu dargohda yakka-yu yagona o'zining fikrlash tarziga ega odam.

- Dargoh! O'ziga xos! - ta'kidladi Krenli. - Yo'qol bu yerdan, jin ursin seni. G'irt jinning o'zi!

- Men ehtirosli odamman, - dedi Templ. - Bu juda to'g'ri gap. Va men bundan faxrlanaman, his-hayajonlar bilan yashashimdan g'ururlanaman.

U yonboshi bilan yurib uzoqlashdi, maydonchadan qadam tashlab ketayotib mug'ombirona kuldi. Krenli uning izidan qotib qarab qoldi.

- Ko'rdingizmi, - dedi u, - siz bunaqa muttahamanmi hech uchratganmisiz?

Uning gapiga shapkasini ko'ziga tushirib olib, devorga suyanib turgan talaba g'alati xoxolab kuldi. Katta gavdadan chiqqan bu kulgi xuddi filning ingichka, chiyildoq tovushiga o'xshab eshitildi. Talabaning badani selkillar, huzur qilganidan u qo'llarini butiga ishqalardi.

- Linch uyg'ondi, - dedi Krenli.

Bu gapga javoban Linch qaddini rostladi va ko'kragini kerdi.

- Linchning ko'kragini kergani - hayotga tanqidiy munosabatining belgisi, - dedi Stiven.

Linch ko'kragiga gursillatib urdi va dedi:

- Mening qomatimga kimning e'tirozi bor?

Krenli uni gapidan tutdi va ular aytishib qoldi. Har ikkalasi hayajondan qizarib-bo'zarishgandan keyin, chuqur-chuqur nafas olishib ajralishdi. Stiven o'yinni berilib tomosha qilayotgan, tevaragidagi gap-so'zlarga e'tiborsiz Deyvinga egildi.

- Xo'sh, mening erkak g'ozcham qalay? - so'radi Stiven. - Qo'l qo'ydimi?

Deyvin boshini irg'adi va dedi:

- Sen-chi, Stiven?

Stiven yo'q degan ma'noda boshini sermadi.

- Dahshatli odamsan sen, Stiven, - dedi Deyvin og'zidan trubkani olarkan, - doim yakkasan.

- Endi, umumjahon tinchligi murojaatnomasiga imzo chekkaningdan keyin, - dedi Stiven, - men qo'lingda ko'rgan o'sha kichkina daftarchani yoqib tashlasang kerak, deb o'ylayman.

Deyvindan sado chiqmagach, Stiven daftarchadagi gaplardan parcha keltira boshladi:

- Fianna oldga yur! Fianna o'ngga burilib, oldga yur! Fianna, salom qil, raqaming bilan sana, bir, ikki!

- U boshqa masala, - dedi Deyvin. - Birinchidan, men irland millatchisiman. Sen esa hammasidan chetda yurasan. Sen, Stiven, maynavozchi bo'lib tug'ilgansan.

- Sizlar chavgonlaring bilan qurollanib, navbatdagi isyonlaringni boshlaganlaringda, - dedi Stiven, - sizlarga xabarkash kerak bo'ladi, menga aysang, men senga kollejdani ulardan bir juftini topib beraman.

- Seni hech tushunolmayman, - dedi Deyvin. - Bir qarasang ingliz adabiyotini tuproqqa qorib tashlaysan, bir qarasa irland

xabarkashlarini. Isming ham allaqanday... va mulohazalaring ham. Irlandmisan o'zi sen?

- Yur men bilan arxivga, men senga oilamning nasl-nasabini ko'rsataman, - dedi Stiven.

- Unda biz bilan birga bo'l-da, - dedi Deyvin. - Nega sen irland tilini o'rganmaysan? Nega birinchi mashg'ulotdan keyinoq ligadan chiqding?

- Bitta sabab senga ma'lum, - dedi Stiven.

Deyvin boshini sermab kuldi.

- Qo'ysang-chi, - dedi u. - O'sha yosh qizaloq va hazrat Moren uchunmi? Bularni sen o'zing o'ylab topgansan, Stivi. Ular shunchaki gapirishgan, kulishgan, xolos.

Stiven churq etmadi va qo'lini birodarlarcha Deyvinning yelkasiga qo'ydi.

- O'sha kunni, biz sen bilan tanishishgan kunni, eslaysanmi, - dedi u, - biz birinchi marta uchrashganimizda sen mendan birinchi kurslar qayerda o'qiydi, deb so'raganding va birinchi bo'g'inga urg'u berganding? Esleysanmi? Sen o'shanda hamma iyezuitlarni hech ikkilanmay "taqdir" derding. Ba'zan men: "U xuddi gapirgan gapiday, lafziday samimiy, makr-hiyladan yiroqmikan?" deb o'ylanib qolaman.

- Men oddiy odamman, - dedi Deyvin. - Buni sen bilasan. Sen menga o'sha Xarkort-stritdagi oqshomda o'z hayoting haqida gapirib berganingdan so'ng, gapning ochig'i, Stivi, men keyin ovqat yeyolmadim. Kasal bo'lib qoldim. O'sha oqshom uxlay olmay chiqdim. Nega sen buni menga aytding?

- Rahmat senga, - dedi Stiven. - Sen menga yovuz odamsan, deb shama qilayapsan.

- Yo'q, - dedi Deyvin. - Buni gapirmasliging kerak edi.

Sirdan do'stona muomalani saqlab turgani bilan Stivenning ichi qaynab-toshib kelardi.

- Meni shu xalq, shu mamlakat va shu hayot paydo qilgan, - dedi u. - Borim shu va shundayligimcha qolaman.

- Bizga qo'shilishga urinib ko'r, - takrorladi Deyvin. - Ruhan sen irlandisan, biroq g'urur senga yo'l bermayapti.

- Mening ota-bobolarim o'z tilidan voz kechishgan va boshqa tilni qabul qilishgan, - dedi Stiven. - Ular bir to'da kelgindilarga o'zlarini ezishga qo'yib berishgan. Xo'sh, menga ularning xatosi uchun shaxsiy hayotim va budu-shudimni qurbon qilishni buyurasanmi? Nimaning evaziga?

- Bizning ozodligimiz uchun, - dedi Deyvin.

- Ton yashagan zamondan to Parnell zamonigacha, - dedi Stiven, - sizlar uchun o'z hayotini, yoshligini va mehr-muhabbatini bag'ishlagan birorta halol, samimiy inson yo'qki, sizlar sotmagan bo'lsanglar, azobga duchor etmagan, boshidan mag'zava to'kmagan bo'lsanglar, xiyonat qilmagan bo'lsanglar. Endi sen menga o'zlaring bilan birga bo'lishni taklif qilayapsanmi! La'nat sizlarga!

- Ular o'z ideallari uchun qurbon bo'lishdi, Stivi, - dedi Deyvin. - Biroq bizning ko'chada ham bayram bo'ladi, menga ishon.

O'z xayollariga berilib ketgan Stiven bir daqiqa jim qoldi.

- Ruh, - dedi u xayolchan, - ayni shu, men senga aytgan daqiqalarda tug'iladi. Bu sekin, sirli tug'ilish, vujudning tug'ilishidan ko'ra sirliroq. Bu mamlakatda inson ruhiga tug'ilayotgandayoq, parvoz qilmasligi uchun, to'r tashlanadi. Sen menga milliylik, din, til haqida gapirasan. Men bunday to'rlardan qochishga harakat qilaman.

Deyvin trubkasining kulini qoqib tushirdi.

- Bu gaplardan men hech qanday ma'no uqmayapman, Stivi, - dedi u. - Biroq birinchi galda vatan. Irlandiya birinchi galda, Stivi.

Shoir bo'lasanmi, mutasavvirmi, bu keyingi masala.

- Bilasanmi, Irlandiya nima? - so'radi Stiven sovuq qahr bilan, - Irlandiya - bu o'z bolalarini yeydigan qari cho'chqa.

Deyvin o'rnidan turdi va boshini g'amgin sermab, o'ynayotganlar tomon yurdi. Biroq sanoqli daqiqalar ichida g'amgin kayfiyat uni tark etdi, u endi Krenli va ikki o'yinchi bilan hozirgina tugagan o'yinni qizg'in muhokama qilayotir. Ular kechqurun bir qur o'ynashga kelishib olishdi, biroq Krenli mening koptogim bilan o'ynaysizlar, deb turib oldi. U koptogini yerga ikki-uch marta urib, keyin jahd bilan maydonchani uzoq etagiga qaratib uloqtirdi-da, qichqirdi:

- Qorangni ko'rmya seni!..

Stiven o'yinda hisob orta boshlaguncha, Linchning yonida turdi. Keyin Linchning yengidan tortib, uni o'ziga qaratdi. Linch unga bo'ysundi va g'ashiga tegib dedi:

- Krenli aytmoqchi, uzdikmi?

Stiven bu qochiriqqa kulimsiradi.

Ular bog' orqali qaytishdi va munkillagan qari qorovul taxtaga allaqanday e'lonni qaltirab qadayotgan zal bo'ylab o'tishdi.

Zinapoya oldida ikkalasi ham to'xtadi va Stiven, cho'ntagidan sigaret qutisini chiqarib, hamrohiga chekishni taklif qildi.

- Bilaman, bir miriyam yo'q senda, - dedi u.

- Eh senimi, sulloh shumqiliq! - javob qildi Linch.

Linchning so'zga chechanligi ikkinchi bor asoslangani Stivenning kulgisini qistadi.

- "Shumqiliq" so'zi sening suyuqlik so'kishingga aylangan kun, - dedi u, - Yevropa madaniyati uchun bayram sanaladi.

Ular chekishdi va o'ng tarafga yurishdi. Biroz sukut saqlab, Stiven dedi:

- Aristotel rahm-shafqat va qo'rquvga ta'rif bermaydi. Men esa beraman. Mening nazarimda...

Linch to'xtadi va bepisandlik bilan uning gapini bo'ldi:

- Bas! Eshitishni xohlamayman. Ko'nglim ayniydi. Kecha kechqurun bizlar Xoren va Goggins bilan o'lguday ichdik.

Stiven gapida davom etdi.

- Rahm-shafqat - bu shunday tuyg'uki, u inson musibatlaridagi jamiki muhim va muntazam jihatlar oldida fikrni to'xtatib qo'yadi va bizni izillab turgan fojialarga bog'laydi. Qo'rquv tuyg'usi inson musibatlaridagi jamiki muhim va muntazam jihatlar oldida fikrni to'xtatib qo'yadi va bizni ularning yashirin sabablarini izlashga majbur etadi.

- Takrorla-chi, - dedi Linch.

Stiven ta'rifni sekin takrorladi.

- Yaqinda Londonda, - davom etdi u, - bir qizaloq izvoshga o'tiradi. U uzoq vaqtlar ko'rmagan onasini kutib olishga borayotgan edi. Qaysidir ko'chaning muyulishida aravaning shotisi chiqib ketib, izvoshning derzasini chilparchin qiladi, xuddi ignaday uzunchoq shisha siniqlari qizning yuragiga sanchiladi. Qiz shu zahotiyoq jon taslim qiladi. Muxbir buni fojiali o'lim, deb ataydi. Bu to'g'rimas. Bu rahm-shafqat va qo'rquv haqidagi mening tushunchamga to'g'ri kelmaydi.

Fojia tuyg'usi, mohiyatan, har ikki tomonga, qo'rquvga va rahm-shafqatga yuzlangan bir kishining diqqat-e'tibori, ularning har

qaysisi - uning ayni damdagi holati. E'tibor qildingmi, men to'xtatib qo'yadi degan iborani ishlatdim. Bu bilan men fojia tuyg'usining turg'unligini, harakatsizligini ta'kidlayapman. Aniqrog'i, dramatik tuyg'uning. Soxta, haqiqiy bo'lmagan san'at paydo qiladigan tuyg'ular - bu mayl, intilish va nafratlanish, hazar qilish. Mayl-rag'bat bizni yaqinlashishga, qo'lga kiritishga chorlaydi. Nafrat-hazar tuyg'usi tark etish, inkor qilishga undaydi. Bunday tuyg'ularni uyg'otadigan san'at - pornografiya va didaktika - haqiqiy bo'lmagan, soxta san'atlar. Shu bois, bu holatda estetik tuyg'u harakatsiz, turg'un holatda bo'ladi. Fikr to'xtab qoladi va mayl hamda nafrat tevaragida aylanadi, xolos.

- Sen aytmoqchisanki, san'at mayl-rag'batni uyg'otmasligi kerak, demoqchisan, - dedi Linch. - Esimda, men bir kuni senga muzeyda qalam bilan Veneraning dumbasiga ismimni yozganimni aytgan edim. Bu maylga kiradimi?

- Men odatdagi, tabiiy naturani nazarda tutayapman, - dedi Stiven. - Sen menga yana o'zingning g'aroyib karmelitlar maktabingda qanday qilib sigir tezagini yeganingni gapirib berganding.

Linch tag'in otga o'xshab pishqirdi.

- Ha, shunday ish bo'lgandi! - xitob qildi u.

Stiven hamrohi tomon burildi va bir soniya uning ko'zlariga tik qaradi. Linch kulishdan to'xtadi va kamsitilganday mulzam bo'lib, uning ko'ziga qaradi. Uzun peshayvonli shapka tagidagi cho'zinchoq, ensiz, pachoq boshi allaqanday o'rmlab yuruvchi jonivorni eslatardi. Xira yiltillab turgan ko'zlari va ruhsiz, o'lik nazari ham ilonning qarashini yodga solardi. Biroq ayni daqiqadagi uning kamsitilgan, bezovta qarashida odamga xos bir ma'no - ezgin, baxsiz, azob chekkan va darg'azab qalbning behalovatligi aks etib turgandi.

- Xo'sh, nima bo'пти, - dedi shunchaki xushmuomala ohangda Stiven, - biz hammamiz jonivorlarmiz. Men ham.

- Ha, sen ham, - dedi Linch.

- Biroq biz hozir ruhiy olamda mavjudmiz, - davom etdi Stiven. - Haqqoniy bo'lmagan estetik vositalar ta'sirida uyg'ongan mayl va nafratni faqat ularning tabiatan haqqoniy emasligi uchun estetik tuyg'umas, deyish kamlik qiladi. Chunki ular atigi jismoniy sezgilarga aloqador, xolos. Qo'rquvni sezganda vujudimiz kichrayadi va asab sistemasiga beixtiyor ta'sir qilgan narsaga javob qaytaradi. Qovog'imiz, hali anglab, payqab ulgurmasidan burun, ko'zimizga pashsha urilayotganini sezganday, oldindan beixtiyor yumiladi.

- Har doim ham emas, - kinoya qildi Linch.

- Shunday qilib, - davom etdi Stiven. - Sening tanang senga yalang'och haykal ko'rsatgan ta'sirga javob qaytargan, biroq bu, takror aytaman, asab sistemasining g'ayriixtiyoriy reaksiyasi. Musavvir tomonidan aks ettirilgan go'zallik esa bizda, jismoniy sezgi deb atash mumkin bo'lgan, yuzki ehtiros va hissiyotlarni paydo qila olmaydi. U estetik stasisni, ya'ni ideal mehr-shafqatni yoki ideal qo'rquvni - yuksak darajada yuzaga keladigan, davom etadigan va nihoyat, men go'zallik ritmi, deb ataydigan tuyg'uga aylanadigan taassurotni uyg'otadi yoki uyg'otishi lozim, paydo qiladi yoki paydo qilishi kerak.

- Buni endi qanday tushunsa bo'ladi? - so'radi Linch.

- Ritm, - dedi Stiven, - bu har qanday estetik butunlikda qismlarning o'zaro ilk yuzaki estetik aloqalari yoki estetik butunlikning uning qism yo qismlariga yoxud estetik butunlikdagi har qanday qismning butunlikka yalpi munosabati.

- Agar bu aytganlaring ritm bo'lsa, - dedi Linch, - unda marhamat qilib ayt-chi, sen nimani go'zallik deb ataysan? Yana, iltimos, unutmaginki, men faqat go'zallik oldida ta'zim qilaman.

Xuddi bировga salom berayotganday, Stiven shapkasini ko'tarib qo'ydi. Keyin, biroz qizarinqirab, Linchning kamzulining yengidan ushladi.

- Biz haqmiz, - dedi u, - boshqalar esa adashadilar. Bu narsalar haqida gapirish, ularning siru sinoatini bilishga urinish va sirini anglab-bilib, sekin-asta, qat'iyat va izchillik bilan ta'riflash, tavsiflash, zamindagi oddiy narsa-hodisalardan: tovush, shakl yoki ranglarni his etishdan uyg'ongan tuyg'ularga, qalbimizning bu zimiston qa'rlariga nazar tashlash - biz ilg'agan go'zallik timsollari - san'at deganlari aslida mana shu.

Ular kanal ustidagi ko'prikka yaqinlashishdi va yo'ldan burilib, daraxtlar tagidan yurib ketishdi. Ko'lmak suvda aks etgan kir-kulrang shu'la va tepalaridagi nam shox-shabballarning hidi - barchasi Stivenning fikrlash tarziga ziddiy tuyulardi.

- Biroq sen mening savolimga javob bermading, - dedi Linch, - san'at nima o'zi? U ifodalagan go'zallik nima?

- Buni men senga, badbaxt, qovoqkalla hayvonga aytgan birinchi ta'rifimdayoq bayon qilgan edim, - dedi Stiven, - o'shanda men bu savolning javobini endi ichimda pishitib olayotgan edim. O'sha oqshom esingdami? Krenlining achchig'i chiqqan va uiklou cho'chqasining go'shti haqida gapira boshlagan edi o'shanda.

- Esimda, - dedi Linch. - Esimda, uning o'sha la'nati semiz cho'chqalar haqida gapirgani.

- San'at, - dedi Stiven, - bu insonning predmetni estetik butunlikda aqlga muvofiq yoki sezgi-idroki orqali qabul qilish qobiliyati. Cho'chqalar haqida eslaysan-u, bu gaplarni esa esingdan chiqaribsan-da. Sen bilan Krenliga o'zi ishonib bo'lmaydi.

Linch bulutli kulrang osmonga qarab, aftini burishtirdi.

- Modomiki, men sening estetik falsafangni tinglashga mahkum ekanman, unda hech bo'lmasa, menga yana bitta sigareta ber. Bu gaplar meni umuman qiziqitirmaydi. Hatto ayollar ham meni qiziqitirmaydi. Jin ursin, sizlarni! Boshimga uramanmi bu gaplarni! Menga bir yilda besh yuz funt to'laydigan ish kerak. Menga shunday ishdan gapir, mard bo'lsang.

Stiven unga sigaret qutisini uzatdi. Linch qutidagi oxirgi sigaretani olib, dedi:

- Davom et.

- Foma Akvinskiy aytadi, - dedi Stiven, - bizning idrokimizga xush yoqqan narsa go'zaldir.

Linch boshini irg'adi.

- Esimda, - dedi u. - Pulcra sunt guaye visa placent.

- U visa so'zini ishlatadi, - davom etdi Stiven, - bu bilan har qanday estetik idroklashni: ko'rish, eshitish yoki idroklashning boshqa turlarini nazarda tutadi. Bu so'z, mujmal bo'lishiga qaramay, baribir bizda mayl va nafrat hissini uyg'otadigan yaxshi yoki yomon tushunchani istisno qilish uchun yetarli darajada aniq. Shubhasiz, bu so'z stasisni nazarda tutadi. Xo'sh, haqiqat nima? Haqiqat ham ongning stasisini uyg'otadi. Sen hech qachon to'g'riburchakli uchburchak gipotenuzasiga ismingni qalam bilan yozib qo'ymading.

- Hecham, - dedi Linch, - menga Veneraning gipotenuzasini ko'rsat, yozaman.

- Demak, bundan chiqdiki, haqiqat muvozanatda, turg'un. Nazarimda, Platon aytgan, go'zallik - haqiqat yog'dusi, deb. Fikrimcha, bu ta'rif haqiqat va go'zallik bir-biriga aynan o'xshash, degan ma'nodan boshqa ma'noni bermaydi. Haqiqat aql bilan anglanadi, go'zallik tasavvur orqali qabul qilinadi. Haqiqatga tomon tashlangan birinchi qadam - aqlning chegaralarini va imkoniyatlarini

anglashdan, tushunishga harakatning o'zini tushunib olishdan iborat. Aristotelning butun falsafiy sistemasi uning psixologiyaga bag'ishlangan asarlari zamirida yotadi, bu asarlar o'z navbatida uning ayni bir atribut bir paytning o'zida va bir xil munosabat bilan ayni bir sub'ektga tegishli bo'lishi va tegishli bo'lmasligi mumkin, degan fikriga tayanadi. Go'zallikka tomon tashlangan birinchi qadam - tasavvurning chegaralarini va imkoniyatlarini anglab olmoq, estetik idroklashga harakatning o'zini tushunishdan iborat. Tushunarlimi?

- Biroq go'zallik o'zi nima? - betoqat bo'lib so'radi Linch. - Biroq boshqa aniqroq ta'rifini ayt-chi. Qaraganningda ko'zing quvonadigan narsami u? Nahotki, Foma Akvinskiy bilan ikkalangning bor bilganlari shular bo'lsa?

- Masalan, ayolni olaylik, - dedi Stiven.

- Xo'p, olaylik, - dedi qizishib Linch.

- Yunonlar, turklar, xitoyliklar, koptlar, gottentolar - ularning har qaysisida ayolning go'zalligi haqida o'zining ideali bor, - dedi Stiven. - Bu shunaqa chalkash masalaki, boshi-ketini topolmaysan. Biroq men unda ikki xil yechimni ko'raman. Birinchi taxminga ko'ra, ayollarning erkaklarda rag'bat uyg'otadigan har qanday jismoniy latofati erning naslini davom ettirishi bilan bog'liq, deb qaraladi. Balki haqiqatan shundaydir. Hayot, sen tasavvur qilganingdan ko'ra, zerikarliroq, Linch. Biroq bunday xulosa mening ko'nglimga o'tirmaydi. Chunki u estetikadan ko'ra, ko'proq yevgenikaga taalluqli. Bu xulosa seni chalkash yo'llardan yangigina, didsizlik bilan bo'yab-bejalgan auditoriyaga olib boradi va u yerda o'zing bilgan Makkenn bir qo'lida "Turlarning kelib chiqishi"ni, boshqasida Yangi Ahdni ushlagancha, senga o'zing bilgan - Veneraning bo'liq sonlarini yoqtirishingni, u senga sog'lom bolalar tug'ib berishini, sening va o'zining bolalarini to'yimli sut bilan boqishini - o'zing bilgan narsalarni tushuntiradi.

- Bu Makkenn uchiga chiqqan badbo'y shumqiliq! - dedi azbaroyi ishonch bilan Linch.

- Yana boshqa bir yechim ham bor, - dedi kulib Stiven.

- Xo'sh, qanaqa? - so'radi Linch.

- Yana bir taxmin... - deb boshladi Stiven.

Ser Patrik Dan kasalxonasining muyulishidan temir-tersak ortilgan uzun arava chiqib keldi, uning shovqin-suroni Stivenning gapini oxirigacha eshittirmay qo'ydi. Linch quloqlarini bekitdi va arava o'tib ketguncha ijirg'anib so'kinib turdi. Keyin keskin ortga burildi. Stiven ham burildi va hamrohining jazavasi bosilishini kutib, bir necha soniya jim turgach, dedi:

- Bu taxmin oldingisining aksini taklif etadi. Garchi ayni bir ob'ekt hamma uchun birday go'zal bo'lib tuyulmasa-da, biroq unga oshufta bo'lgan har qaysi odam bu ob'ektdan muayyan estetik tasavvurning u yoki bu darajasiga mos, o'ziga ma'qul mutanosiblikni ko'radi. Shunday qilib, tuyg'u bilan anglanadigan, senga bir shaklda, menga boshqa bir shaklda ko'rinadigan bu uyg'unlik go'zallikning muhim sifati sanaladi. Shu o'rinda biz yana kekxa birodarimiz Fomaga murojaat qilishimiz va undan to'rt pullik hikmat qarz olib turishimiz mumkin.

Linch xoxolab kuldi.

- Juda qiziq, - dedi u, - har qadamda sen uni eslayverasan, xuddi xushchaqchaq meshqorin rohibday. Gaplaring jiddiymi o'zi?

- Makalistr, - javob qildi Stiven, - mening estetik nazariyamni Foma Akvinskiy nazariyasiga amaliy qo'llanma, deb atagan bo'lardi. Filosofiyada estetikaga doir neki bo'lsa, bu masalada men Akvinskiyga ergashaman. Biroq biz badiiy g'oya fenomeniga yondashganimizda, badiiy g'oya qanday olib kirilishi va singdirilishiga kelganimizda menga yangi terminologiya va yangi shaxsiy tajriba zarur bo'ladi.

- Albatta, - dedi Linch, - axir, Akvinskiy o'zining aqlliligiga qaramay, bir dilkash meshqorin rohib bo'lgan, xolos. Biroq yangi shaxsiy tajriba va yangi texnologiya haqida sen menga boshqa safar aytarsan. Hozir birinchi qismini muxtasar qila qol.

- Kim biladi, - dedi Stiven kulimsirab, - ehtimol, Akvinskiy meni sendan ko'ra yaxshiroq tushunarmidi. U shoir edi. Otashin payshanbada aytiladigan madhiyani u yozgan. Madhiya: Pange, lingua, gloriosi[13] co'zlari bilan boshlanadi va uni bejiz shirinsuxanlarning eng yaxshisi, deb hisoblashmagan. Bu murakkab, chuqur taskin beradigan madhiya. Men uni yaxshi ko'raman. Biroq hech bir madhiya Venansiy Fortunatning xochli namoyishda kuylanadigan tantanavor Vexilla Regis[14] qasidasiga tenglasholmaydi.

Linch sokin, tantanavor ohangda, do'rillagan ovoz bilan xirgoyi qila boshladi:

Impleta sunt guae coneinit

David fideli carmine

Dicendo nationibus

Regnavit a ligno Deus[15]

- Zo'r, - zavq bilan yakunladi u. - Mana bu muzika!

Ular Quyi Maunt-stritga burilishdi. Muyulishdan bir necha qadam o'tishganda, ipak sharf boylagan semiz yosh yigit ular bilan salomlashdi.

- Imtihonlarning natijalari haqida eshit-dinglarmi? - deb so'radi u. - Griffin yiqildi, Xelpin bilan O'Flinn ma'muriy fuqarolik ishlari bo'limi bo'yicha o'tishdi. Munen hind ma'muriy ishlar bo'yicha beshinchi bo'lib o'tdi. O'Shonnessi o'nto'rtinchi bo'lib o'tdi.

Klarkning qo'lida ishlaydigan irlandlar ularga ziyofat uyushtirishdi, hammasi kerri yeyishdi.

Uning qonsiz, so'ljaygan yuzidan muloyim ichiqoralik aks etib turar, yog' bosgan kichkina ko'zlari xabarlarini yetkazishiga mos tarzda qisilib, butunlay ko'rinmay qolar, chiyillagan tovushi zo'rg'a eshiltildi.

Stivenning savoliga javob qaytarayotib uning ko'zchalari kosasidan chiqquday bo'lar edi.

- Ha, Makkalli bilan men, - dedi u. b"b" Makkalli nazariy matematikani tanladi, men - tabiiy tarixni. U yerda programmada yigirmata fan bor. Men yana botanikani tanladim. O'zlaringga ma'lum-ku - men endi dala klubining a'zosiman.

U sollarib bir qadam ortga tisarildi, jun qo'lqopdagi semiz qo'llarini ko'ksiga qo'ydi, bu joydan chiyillaganga o'xshash hirqiroq kulgi tovushi chiqdi.

- Keyingi safar, dalaga chiqqaningda, bizlarga sholg'om bilan piyoz olib kel, - dedi tundlik bilan Stiven, - dimlab go'sht pishiramiz.

Baqaloq talaba takabburlik bilan kulib yubordi va dedi:

- Bizning dala klubimiz jamoasiga hurmatli insonlar yig'ilgan. O'tgan shanba kuni hammamiz birvarakayiga Glenmalyur ga bordik. b"b" Ayollar bilanmi, Donovan? - so'radi Linch.

Donovan yana qo'llarini ko'ksiga qo'yib, dedi:

- Bizning maqsadimiz - bilim olish.

Shunday deb u darhol qo'shib qo'ydi:

«B» "Mening eshitishimcha, sen estetika bo'yicha ma'ruza yozayotganmishsan?"

Stiven noaniq, yoqtirmagan ishora bilan javob qildi.

- Gyote va Lessing bu mavzuda ko'p yozishgan, - dedi Donoven. - Klassik maktab, romantika maktabi va hokazolar. "Laokoon" meni juda qiziqtirib qo'ydi. Albatta, bu asar idealizm mafkurasi bilan sug'orilgan, sof nemischa va judayam chuqur...

Hech kim gap qo'shmad. Donoven ular bilan muloyim xayrlashdi.

«B» "Xo'p menga ruxsat, - dedi u mayin va dilkash ohangda. «B» "Men judayam, hatto aytish mumkin bo'lsa, ishonchga yaqin darajadagi xavotirdamanki, singilchalar bugun Donovenlarning tushligiga quymoq tayyorlashayotgan bo'lishsa kerak."

«B» "Xayr, - dedi Stiven uning ortidan, - sholg'om bilan piyozni yodingdan chiqarma."

Linch uning ortidan qarab, nafrat bilan lablarini burishtirdi, basharasi iblis niqobiga o'xshab ketdi.

- O'ylaysanmi, bu shumqiliq, quymoqxo'r muttahaq yog'li joyga joylashib olishi hech gap emas, - dedi u nihoyat, - men esa xashaki tamakini tutatib yuraverishim kerak.

Ular Merriion-skverga burilishdi va biroz jim ketishdi.

- Go'zallik haqida aytganlarimni yakunlay, - davom etdi Stiven. - Tuyg'u bilan erishiladigan nisbatan rohatbaxsh uyg'unlik, shu tariqa badiiy idroklashning muhim bosqichlariga mos kelishi lozim. Ularni topa bilsang, mutlaq go'zallik xossasini topasan. "Ad pulcritudinem tria reguiruntur integritas, consonantia claritas", deydi Foma Akvinskiy. Men buni shunday tarjima qilaman: "Go'zallikning uchta sharti bor: butunlik, garmoniya, nur". Xo'sh, bu idroklashning bosqichlariga mos keladimi? Senga tushunarlimi?

- Albatta, - dedi Linch. - Agar sen mening yelkamdagi kallani qovoq deb o'ylayotgan bo'lsang, yugur, Donovenni to'xtatib, gaplaringni tinglashini undan iltimos qil.

Stiven go'sht do'konining sotuvchisi boshiga kiyib olgan savatchaga ishora qildi:

- Mana bu savatchaga qara, - dedi u.

- Xo'sh, ko'ryapman, - javob qildi Linch.

- Bu savatchani ko'rish uchun, - dedi Stiven, - sening onging, avvalo, uni tevarakdagi olamdan ajratib oladi, tevarak olam savatcha emas. Idroklashning birinchi bosqichi - bu idroklanayotgan ob'ekt bilan chegaralanadigan marra, chiziq. Estetik obraz bizga makon yoki vaqt doirasida namoyon bo'ladi. Quloq orqali idroklanadigan narsa vaqt doirasida, ko'z orqali idroklanadigani - makonda namoyon bo'ladi. Biroq vaqtdami yoki makondami - estetik obraz, avvalo, makon va zamonning bepoyon fonida o'zicha cheklangan yoki o'zicha mustaqil ob'ekt sifatida idroklanadi. Sen uni alohida bir narsa sifatida qabul qilasan. Bir butun narsa sifatida ko'rasan. Uni yaxlitlik tarzida idrok etasan. U ayni integritazning o'zi.

- Nishonga aniq tegdi, - dedi Linch. - Qani, davom et.

- Keyin, - davom etdi Stiven, - sen bir nuqtadan boshqasiga o'tib, shaklning sirtiga ko'z yugurtirasan va narsani, uni ichidan tashkil etgan, qismlari muvozanatida anglaysan. Sen uning qurilishi ritmini his etasan. Boshqacha aytganda, bevosita idroklash sintezidan keyin fahmlash analizi keladi. Dastlab bu allaqanday butunlik ekanini idroklagan bo'lsang, endi sen uni bir narsa deb his etasan. Sen uni muvofiq, uyg'un yaxlitlik, murakkab, bo'linuvchi, qismlardan tashkil topgan, shu qismlarning natijasi, ularning majmui deb qabul qilasan. Bu consonanta bo'ladi.

- Nishonga aniq urding, - dedi kulib Linch. - Endi menga claritas haqida tushuncha ber, sigareta mendan.

- Bu so'zning ma'nosi unchalik aniq emas, - dedi Stiven. - Foma Akvinskiy ishlatgan termin, meningcha, mavhumroq. Meni u ancha chalg'itdi. Uning ta'rifidan gap idealizm va simvolizm haqida ketayotgani anglashiladi: uningcha, go'zallikning oliy mohiyati - allaqanday boshqa olamdan taralayotgan nur, ayni paytda mavjudlik - atigi uning soyasi, materiya - uning timsoli, xolos. U claritas so'zida hamma narsada zuhur bo'luvchi ilohiy niyatning, rejaning badiiy inkishofini va mujassamlashuvini nazarda tutgan, demak, claritas - bu estetik obrazga umumiy mohiyat bag'ishlaydigan va uni ichdan yoritib turadigan umulashtiruvchi kuch, deb o'yladim. Endi esa buni men shunday tushunaman: sen dastlab savatchani allaqanday yaxlit narsa deb qabul qilding, keyin uni, shakl nuqtai nazaridan kuzatib, bir buyum ekanini anglading - mantiqiy va estetik nuqtai nazardan o'rinli sintez shunday. Sen ko'rib turibsan - ko'z oldingda shu buyum turibdi, boshqa narsa emas. Akvinskiy aytgan nur suxolastikada - guidditas - g'oyibdan berilgan xabar belgisi. Bu oliy sifat ijodkor tomonidan, dastlab uning idrokida estetik obraz tug'ila boshlagan chog'da, his etiladi. Shelli buni alanga olayotgan ko'mirga juda chiroyli qiyoslagan: bu shunday lahzaki, unda go'zallikning oliy sifati, estetik obrazning yorqin yog'dusi ong orqali aniq-tiniq anglanadi; bu yog'du sochuvchi estetik zavqdan so'zsiz, tovushsiz stasisi, ruhiyatning uyg'oq lahzasi yurakning ajab holatiga juda o'xshaydiki, bu holatni italyan fiziologi Lundji Galvani hatto Shellinikidan kam bo'lmagan go'zal lutf bilan yurak afsuni, deb chiroyli ta'riflagan.

Stiven jimib qoldi, garchi hamrohi gapirmayotgan bo'lsa-da, o'zining aytgan gaplari fikrlar afsunidan iborat g'alati sukunat paydo qilganday tuyuldi.

- Mening aytganlarim, - davom etdi u, - keng ma'nodagi, adabiy an'analarga bog'liq bo'lgan go'zallik ma'nosidagi so'zga taalluqli. Biz go'zallik haqida gapirib, bu so'zning ikkinchi darajadagi ma'nosini nazarda tutganimizda, mulohazalarimiz, avvalo, san'atning o'ziga va uning turlariga taalluqli bo'ladi. Obraz, o'z-o'zidan ravshanki, ijodkorning ongi va tuyg'ularini boshqa kishilarning ongi va tuyg'ulari bilan bog'laydi. Agar buni yodda tutsak, u holda, albatta, san'at uch xilga bo'linadi, degan xulosaga kelamiz; ya'ni lirika, bunda ijodkor o'z-o'ziga bevosita munosabatidan kelib chiqib obraz yaratadi; epos, bunda ijodkor o'ziga yoki boshqalarga bevosita munosabatidan kelib chiqib obraz yaratadi; va, drama, bunda obraz boshqalarga bevosita munosabatdan kelib chiqib yaratiladi.

- Sen buni menga bir necha kun oldin tushuntirganding, - dedi Linch, - o'shanda rosa bahslashganmiz ham.

- Uyimda mening bir daftarim bor, - dedi Stiven, - unda o'sha kuni sen menga bergan savollaringdan ko'ra qiziqroq savollar yozilgan. Ana shu savollar ustida bosh qotirib, men g'aroyib estetik nazariyani o'ylab topdim, hozir senga uni tushuntirishga urinib ko'raman. Mana, men o'ylab topgan savollar: chiroyli qilib yasalgan stul fojiviyami yoki kulgilimi? Shunday deyish mumkinmi: Mona Liza portreti shuning uchun chiroyli, men unga qaraganimda rohatlanaman? Filip Kremptonning byusti lirikmi, epikmi yoki dramatikmi? Yo'q deydingan bo'lsak, sababi nimada?

- Haqiqatan ham, sababi nimada? - dedi kulib turib Linch.

- Agar odam, qahr bilan boltani g'o'laga urib, sigir shaklini bo'laklab tashlasa, - davom etdi Stiven, - bu tasvir san'at asari bo'la oladimi? Yo'q deydingan bo'lsak, sababi nimada?

- Bu zo'r gap bo'ldi, - dedi Linch, yana kulib. - Haqiqiy sxolastik safsata.

- Lessing, в Ъ” dedi Stiven, - haykaltaroshlik to'g'risida yozmagani ma'qul edi. Haykaltaroshlik u qadar yuksak san'at emas va shu boisdan ham, o'sha men aytgan, san'at turlarini o'zida lozim darajada aks ettirmaydi. Hatto adabiyotday yuksak va o'ta ruhiy-ma'naviy san'atda ham san'at turlari ko'pincha qorishgan bo'ladi. Lirik tur - bu, mohiyatan, ehtirosli lahzaning oddiy so'zlarga o'rab berilgan ko'rinishi, ming yillar burun, qadim zamonda odam mashaqqat chekib eshkak eshib yoki tog'da tosh tashib o'ziga-o'zi dalda berib bexosdan aytib yuborgan ritmik xirgoyisi. Bunday xirgoyi ehtirosli lahzaningina anglatadi, ehtirosni yuragidan kechirayotgan odamni emas. Oddiy epik shakl lirik adabiyotdan tug'iladi, bunda ijodkor epik hodisaning markazi sifatida diqqat-e'tiborni o'ziga qaratadi, ehtirosning og'irlik markazi o'zgartirguncha va ijodkor o'zidan hamda boshqalardan uzoqlashmaguncha bu shakl rivojlanadi, takomillashadi. Endi bu holda hikoya tarzi shaxsiy bo'lishdan to'xtaydi, ijodkor shaxsi hikoya tarziga ko'chadi, rivojlanadi, harakatda bo'ladi, xuddi tiriklik manbai bo'lmish dengizday to'lg'anadi, kishilar atrofida aylanadi. Ayni shunday hodisa rivojini biz qadim ingliz balladasi "Terpin - qahramon"da kuzatamiz; unda dastlab hikoya birinchi shaxs tilidan olib borilsa, oxirida uchinchi shaxs tiliga ko'chadi. Dramatik shakl shu lojuvard dengiz to'lqinlanganda, ya'ni sahnada harakat qilayotgan har bir odamni o'ziga tortib, barchasini hayotiy kuch bilan quvvatlantirganda paydo bo'ladi, bundan ularning har biri o'z shaxsiy estetik mavjudliklarini kasb etadi. Ijodkor shaxsi - bu, avvalo, xirgoyi, ritmik nido yoki tovushlar uyg'unligi, keyin u bir maromda oquvchi, o'zgaruvchan ohanglardagi dostonga aylanadi; oxir-oqibat san'atkor asarda o'zining ishtirokini nihoyatda nozik, sezilmaydigan darajagacha olib keladi, boshqacha aytganda, shaxsiy xususiyati, qiyofasini yo'qotadi. Dramatik shakldagi estetik obraz - tasavvur orqali tozargan va amalga oshirilgan hayot. Moddiy yaratuvchilikka o'xshatish mumkin bo'lgan estetik ijodning siru asrorlari, imkoniyatlari yakun topdi. San'atkor yaratuvchi-tangri kabi, botinda, ortda, tepada yoki o'z yaratganining tashida qoladi, o'ta noziklashadi, sezilmaydigan darajaga keladi.

- Ularni ham o'ta noziklashtirishga, sezilmaydigan darajaga keltirishga urinib, - qo'shimcha qildi Linch.

Tepadan, bulutlar qoplab olgan osmondan mayda yomg'ir tomchilari tusha boshladi va ular jala quyib bermasidan burun Milliy kutubxonaga yetib olishga ulgurish uchun maysazorga burilishdi.

- Buncha jag'ing ochildi sening, - dedi tajanglik bilan Linch, - go'zallik haqida og'iz ko'pirtirib, bu baxtiqaro, tangri marhamatidan benasib oroldagi xayolu farazlarini javraganing-javragan. O'sha yaratuvchi-ijodkor mana shunday bema'nilikni yaratib qo'yib, o'zi kelgan joyiga daf bo'lgani nahot seni ajablantirmaydi.

Yomg'ir kuchaydi. Ular irland Qirollik akademiyasining darvozasiga yetganda kutubxona ayvonida yomg'irdan panalab turishgan talabalarni ko'rishdi. Krenli ustunga suyanib, tishini gugurt cho'pi bilan kovlagancha, o'rtoqlarining gapini tinglardi. Tashqariga chiqiladigan eshik oldida bir nechta qiz turishibdi. Linch Stivenga shipshidi:

- Sening mahbubang shu yerda.

Stiven yomg'irning tobora kuchayib borayotganiga e'tibor qilmay, talabalardan bir zina quyiroqdan joy egalladi va ora-sira qiz turgan tomonga qarab qo'ydi. Qiz ham dugonalari davrasida miq etmay turardi. "Ruhoniy yo'q - ermak qilgani yo'q biror kimsa", deya u alam bilan qizni oxirgi marta qachon ko'rganini esladi. Linch to'g'ri aytdi. Haqiqatan ham uning aqli nazariy muhokamalardan boshqasiga yaramay qolgan.

U talabalarining gapiga quloq soldi. Ular hozirgina bitiruv imtihonini topshirishgan tibbiyot fakultetidagi do'stlari haqida, okeanda suzadigan kemaga qanday qilib ishga joylashish mumkinligi, daromadli va daromadsiz amaliy mashg'ulotlar haqida gaplashishardi.

- Bular bari bir tiyin. Irland qishloqlaridagi amaliy mashg'ulotlarning nafi katta bo'ladi.

- Xaynz Liverpulda ikki yil bo'ldi, uyam xuddi shunday fikrda. Akusherlikdan boshqa hech ish yo'q deydi.

- Xo'sh, seningcha, bunday boy shahardan ko'ra, qishloqda ishlash yaxshi ekanmi? Mening bir tanishim bor.

- Xaynzgayam ishonadimi odam, miya yo'g'u unda. Qoriday yodlab baho olardi, faqat yodlab.

- Nimasini gapirasan o'shani... Katta shaharda zo'r pul topsa bo'ladi.

- Hammasi tajribaga bog'liq.

- Ego credo vita panperum est simpliciter atrox, simpliciter sanguinarius atrox, in Liverpoolio[16].

Ularning ovozlari Stivenning qulog'iga juda uzoqdan sezilar-sezilmas eshitalayotgan edi. Qiz dugonalari bilan ketishga chog'landi.

Qisqa, yengil jala quyib o'tdi, qorayib ketgan yerdan bug' ko'tarildi. Qizlar poshnalarini taqillatishdi; ular ustunlar yonida, zinapoyada turishar, ochilib-sochilib gaplashishar, osmondagi bulutlarga qarab qo'yishar, yomg'irning so'nggi tomchilariga shamsiyalarini tutishar va yana yig'ishtirib, nozu ishva bilan ko'ylaklarining etagini ko'tarib, silkib qo'yishardi.

U qizni qoralaganda me'yoridan oshirib yubormadimikan? Nima bo'пти, axir, u kunlarini bo'm-bo'sh o'tkazayapti-ku, xuddi erkin qushchaday tongda chaq-chaq, kunduz pirillab uchib, shomda charchab - o'tkinchi hoyu-havaslariga sovrurmayaptimi? Yuragi ham qushchanikiday hurkak, o'jar emasmi?

* * *

Tong yorishganda u uyg'ondi. O', qanday yoqimli musiqa! Ruhi shudringga cho'milgan bargday yengil va toza. Quyoshning oppoq, tafsiz nurlari uning hali uyqu tark etmagan badanida sirg'aladi. U qimir etmay yotar, ruhi esa sokin yoqimli musiqa og'ushida, salqin, orombaxsh nur quchog'ida yayraydi. Idroki asta-sekin uyg'onib, ertalabki bilim, ertalabki ilhomni o'ziga singdirib olmoqqa chog'lanadi. Borlig'ini suvday toza, shudringday shaffof, musiqaday shiddatli bir ko'tarinki kayfiyat egalladi. U shu qadar yengil va shu qadar huzurbaxsh, go'yo unga oliy maqomdagi farishtalar dam solganday edi. Ruhi go'yo lazzatli holatini yo'qotib qo'yishdan cho'chiganday, ohista uyg'onardi. Bu shunday bir sohir tong pallasi ediki, ayni damda anvoyi gullar nurga yuzlanib qulf urib ochiladi, kapalaklar sassiz parvoz qiladi.

Yurak qaynab-toshadi! Oqshom afsungar misol sehrli edi. Tushidami yoki o'ngidami, u o'zini yo'qotar darajada zavq-shavq tuydi.

Bu jazavali lahzalar qancha davom etdi: faqat bir afsunli daqiqami yoki bir necha soat yoki yillar va asrlarga cho'zildimikan?

Ilhom lahzalari endi bir yo'la hamma yoqdan - ro'y bergan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan son-sanoqsiz xayoliy tasodiflardan ko'rinish berayotganday tuyuladi. Lahza xuddi yog'duday yarq etdi va mana, tasodifiy, noayon shakl uning nurli izini chulg'ab olayotir. O', tasodifning bokira quchog'ida So'z yetilayotir. Tangri elchisi farishtalar sarkori Gavriil Bibi Maryam dargohiga tushib keldi. Porloq nur uning ruhini chulg'adi, qip-qizil qaynoq yog'duga aylanib toshdi va ruhi alanga otashiga burkandi. Qip-qizil qaynoq yog'du - bu bokiraning o'jar, sirli-sehrli yuragi: uni burun payqashmagan, keyin ham sezmadilar, abadiy sirli-sehrli va o'jar yurakni. Va bu qip-qizil qaynoq nurdan sarxush bo'lgan farishtalar qavmi ko'k toqidan qulab tushadi.

Toliqdinmi qaynoq nurlarda
Mahzun jonni sehriga olgan?
Uxla, yodim, kunlar sehrila.

Idrokining tub-tublaridan satrlar lablariga quyulib keldi va ularni pichirlab aytib, u villanella ohangi qanday paydo bo'lishini his etdi. Shaffof yog'du qofiyalarni yoritadi: nurlarda, sehrila, ko'zingda. Lov etib yongan alanga olamni nurafshon etgan, odamlar va malaklarning yuragini yoqqan; atirgul yolqini bokiraning o'jar yuragi.

Olovlanar yurak ko'zingda
Qismatiga egadirsan san.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?

Davomi-chi? Ohang yo'qolib qoldi, o'chdi, yana paydo bo'ldi va jonlana boshladi. Davomi-chi? Tutun, olam mehrobidan taralayotgan xushbo'y tutatqi.

Fimiam tutuni ko'kda suzar-da
Hatto yer qa'ri-yu dengizga ko'char.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?

Yer yuzi bo'ylab xushbo'y tutatqi dudi o'rlaydi, bug'ga cho'lg'angan okeanlardan ko'tariladi - barchasi Bokira sharafiga! Yer - sokin chayqalayotgan isriqdon, tutantiriq solingan shar. Ohang tuyqusdan yo'qoldi. Yurak faryodi uzilib qoldi. Lablari ilk misralarni qayta-qayta pichirladi. Keyin, adashib, tag'in bir necha satrlarni pichirladi va duduqlanib, jimib qoldi. Yurak faryodi uzilib qoldi. Tumanli, shabadasiz sokin damlar o'tdi, parda tutilmagan deraza ortida tong yorug'i yoyildi. Allaqayerdan jomning hazin sadosi eshitildi. Qushcha chirqilladi, mana, yana chirqilladi, yana... Keyin jom chaldi - qushlar tinchidi; xira, oqish yog'du olamni chulg'ab sharqu g'arbga quyiladi, uning yuragini qizil shafaqqa burkaydi.

Unutib qo'yishdan cho'chib, u chaqqon tirsagiga tayanib turdi, qog'oz va qalam qidirdi. Stolda kecha kechqurun o'zi guruchli ovqat yegan chuqur taqsimcha, shamning erib tushgan qoldiqlari va kuygan qog'ozlar uyumidan boshqa hech vaqo yo'q edi. U qo'lini horg'in cho'zib karavotning suyanchig'iga tashlab qo'yilgan kamzulining cho'ntagini kovlay boshladi. Barmoqlariga qalam va sigaret qutisi ilindi. U yana cho'zildi, qutini yirtib, oxirgi papirosni olib deraza peshtaxtasiga qo'ydi va dag'al kartonga mayda aniq harflar bilan villanellaning bandlarini qoralay boshladi.

She'rni yozib bo'lib, g'ijimlangan yostiqqa boshini tashladi va tag'in misralarni pichirlab takrorladi. Boshiga yostiq ichida to'da bo'lib qolgan patlarning botayotgani yotoqdagi divanga tushgan ot qilining uyumini yodiga soldi. Odatda u shu joyda - goh jilmayib, goh xayolga tolib o'tiradi, shunday damlarda qizdan ham, o'zidan ham norozi kayfiyatda, idish-tovoq joylangan shkakf ustidagi toshbosmada bosilgan Isoning muqaddas yuragi suratidan dili xijil bo'lib, o'zidan: nega bu yerga keldim, deb so'raydi. Suhbat to'xtaydi, qiz uning qoshiga keladi va yoqimli ashulalardan birortasini kuylab berishini so'raydi. U eski pianino ro'parasiga o'tiradi, sarg'aygan klavishlarni bir-bir bosib, yana boshlangan oldi-qochdi gaplar og'ushida qizga - u kamin oldida turibdi - yelizaveta zamonining ayriliq azobidan beozor shikoyat qilgan oshiqning go'zal ashulasini, Azenkur bo'yidagi g'alaba qo'shig'ini va suyumli "Yashil yenglar" qo'shig'ini kuylaydi. U kuylayotganda qiz eshitadi yoki o'zini eshitayotganday qilib ko'rsatadi, uning yuragi esa xotirjam, biroq qadimgi nafis ashulalar tugaganda va tag'in qulog'iga oldi-qochdi gap-so'zlar chalinganda, beixtiyor bu uyda hademay yoshlarni sansirab, ismini aytib chaqira boshlashlari haqidagi istehzoli mulohazasi yodiga tushadi.

Ayrim lahzalarda qizning ko'zlari unga ishonch bilan qarayotganday tuyuladi, biroq uning umidi oqlanmaydi. Endi uning xotirasida qiz yengil raqsga tushgan, xuddi o'sha ko'ngilochar oqshomdagiday, keng-mo'l oppoq ko'ylakda, sochlariga oq gullarni butog'i bilan tang'igan ko'yi jonlanadi. Qiz nigohini xiyol chetga burgan, yonoqlari nim pushti tovlanadi. Jo'r bo'lganlarning qo'l ushlagan halqasi siqib kelganda qizning qo'llari bir lahza mayin, nozik sovg'aday uning qo'llariga qo'ndi.

- Siz anchadan beri ko'rinmaysiz.

- Ha, men ruhoniytabiatroqman.

- Shakkokmisiz deb qo'rqaman.

- Bu sizni qattiq cho'chitadimi?

Javob berish o'rniga qiz raqs tushib, tutashgan qo'llar zanjiridan uzoqlashadi, hech kimga tutqich bermay yengil, ozod aylanib o'ynaydi. Sochidagi oq gul butog'i harakatiga mos tebranadi. Aylanib soya joyga kelganida yonog'idagi qizillik yanada aniq-tiniq alanganadi.

Ruhoniy! Uning shaxsiy obrazi ro'parasida qad rostladi: ruhoniylik martabasini xor qilgan, shakkok-fransiskanlik, birida xizmatga xohish bildirib, birida qasam ichadigan, Gerardino da Borgo San-Donninoga o'xshab, yuzaki qaraganda haqiqatday tuyuladigan, aslida tagi puch safsatalar to'rini to'qiydigan va bu bema'ni gaplarni qizning qulog'iga shivirlaydigan kimsa.

Yo'q, bu uning obrazi emas. Bu - qiz bilan birga ko'rgani va qiz o'zining irlandcha so'zlashuv kitobini titkillab, mehri balqib yuziga qaragan o'sha yosh ruhoniyning obrazi.

- Xonimlar bizni tinglagani qatnaydilar. Ha, ha! Men bunga kunosha ishonch hosil etayapman. Xonimlar biz bilan birga. Ular irland tilining eng ishonchli ittifoqchilari.

- Cherkov-chi, taqsir Moren?

- Cherkov ham. Cherkov ham biz bilan. U yoqda hali ish ketayotir, cherkovning tashvishini qilib o'tirmang.

Tfu! O'shanda u jirkanib xonani tark etib to'g'ri qildi. Qizga kutubxona zinasida ta'zim etmay to'g'ri qildi, unga ruhoniyga noz-ishva qilishga, cherkov bilan, nasroniylikning bu yuvindixonasida hazil-mazax o'ynashga yo'l qo'yib berib to'g'ri qildi.

Qo'pol, darg'azab nafrat botinidagi so'nggi, zo'rg'a tutib turgan jazavaning yuragidan otilib chiqishiga sabab bo'ldi, tasavvuridagi qizning porloq obrazini chilparchin qilib, siniqlarni to'rt tarafga itqitdi. Xayolida choratrofdan qalqib chiqayotgan qizning parchalangan akslari jonlanardi: ko'ylagi yirtiq, dag'al sochlari ter bilan manglayiga yopishgan, basharasidan suyuqoyoqligi ayon, o'zini kambag'al qizman, deb atagan va undan bir dasta gul sotib olishini o'tingan gulfurush u; qo'shni uydagi, idish-tovoqni sharaqlatib "Killarni tog'lari va ko'llari bo'ylab"ning birinchi bandlarini qishloqchasiga uv tortib aytadigan xizmatkor xotin u;

Kork-xilldagi yo'lakda yirtiq poyafzali temir panjaraga ilinib-surinib ketganida ustidan kulgan befarosat qiz u; u o'sha - lo'ppigina,

og'zi o'ymoqday qiz - konditer fabrikasi darvozasi oldida og'ziga qarab qolganda zavqi toshib unga yelkasi osha: "Hoy, paxmoq baroqqosh, men senga yoqamanmi?" deya qichqirgan behayo.

Uning obrazini qanchalik kamsitmasin, xayolida uni qanchalik xo'rlamasin, ko'nglidaga g'ashlik qizga nisbatan o'ziga xos ehtirom ekanini u yuragida tuyardi. O'shanda u jahl bilan sinfdan chiqib ketdi, biroq nafrati xolis emasdi, chunki qizning uzun qalin kipriklari soya solgan ko'zlarida, ehtimol, o'z xalqining siru asrorlari bekingandir. O'shanda u ko'chalarda sang'ib yurib o'ziga-o'zi bu qiz - o'z mamlakati ayollarining timsoli, deya takrorlardi; ha, u qorong'uda, xilvatda va yolg'izlikda shuuri uyg'onadigan ko'rshapalakka o'xshaydi; qalbi hali ehtirosdan xoli, gunohdan forig'; hozircha mo'mingina sevgilisi bilan birga, biroq ruhoniyning qulog'iga yuragidagi pinhon sodda gunohchalarini shivirlash uchun uni tark etishga tayyor. Uning yuragidagi nafrat qizning xushrotlariga nibatan qo'pol masxaromuz tahqirlarga aylandi, chunki ularning ismi, ovozi va hatto yuz-ko'zlariyoq xo'rlangan g'ururini toptardi: zotan, ruhoniyni shunday erkaklar sirasidanki, uning bir akasi Dublinda politsiyachi, boshqasi Moykallendagi mayxonada oshxona malayi. Shunday odamga, endigina cherkov rasm-rusmlarini o'rganayotgan kimsaning qulog'iga qiz o'zining sharmli sirlarini shivirlab aytadi, unga, o'lmas tafakkur zahmatkashiga, tajribaning halol nonini abadiy tiriklikning porloq vujudiga aylantirayotgan kishiga esa sirlarini ravo ko'rmaydi.

Qovushish marosimining yorqin manzarasi lahza ichida uning achchiq, noumid o'y-fikrlarini qovushtirdi va ular tantanavor minnatdorlik madhiyasiga aylandi:

Titroq nola, g'amli zorlarda
Yerda o'rlar yaralmoq madhi.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?
Qurbonim-da ochiq qo'llarda
Jom limmo-lim hayot shavqiga.
Uxla, yodim, hayot sevrila.

U misralarni musiqasi va ohangi ongiga singib, ko'ngli taskin topguncha ovoz chiqarib takrorladi; keyin ularni chuqurroq his etish uchun sinchkovlik bilan qayta ko'chirib chiqdi va ko'zi bilan o'qib, tag'in yostiqa boshini tashladi.

Kun allaqachon yorishib ketgan. Chetdan "tiq" etgan tovush eshitilmaydi, biroq u tevaragidagi hayot hayal o'tmay odatdagi shovqini: qo'pol ovozlari, uyqu aralash o'qilgan duolar tovushi bilan uyg'onishini bilardi. Bu hayotdan bekinib, u yuzi bilan devorga o'girildi, qalpog'ini bostirib, ko'rpaga boshini burkadi va yirtilgan devorqog'ozdagi rangi o'chgan qizil gullarni tomosha qilishga chog'landi. U gullarning alvon rangidan so'nib borayotgan sevinchiga madad olishga urindi, uni o'zicha samoga eltadigan qizg'ish, alvon gullar to'shalgan yo'l, deya tasavvur qildi. Qanchalik toliqdi! Judayam toliqdi! O'zi ham ularning qaynoq nurlaridan charchadi!

Issiq, charchoq ko'rpaga yaxshilab burkangan boshidan umurtqalari bo'ylab butun taniga yoyildi. U charchoqning vujudiga yoyilib borayotganini his etdi va unga qarshilik qilmadi, kulimsiradi. Hozir uyqu eltadi.

Oradan o'n yil o'tib, u tag'in qizga she'r bag'ishlagan edi. O'n yil burun uning boshini sholro'mol burkab olgan, issiq nafasidan chiqqan bug' oqshom havosida o'rlar, poshnalari muz qotgan yo'lga urilib taqqillardi. O'sha eng oxirgi chana jo'nashga shay edi, to'riq otlar buni sezishar va pishqirib qo'ng'iroqchalarini silkitishardi. Konduktor yetakchi bilan gaplashdi va ikkalasi ham fonusning yashil yog'dusida boshlarini sermashdi. Gapira turib qiz bir necha bor uning oyog'i turgan zinaga oyog'ini qo'ymoqchi bo'ldi va yana o'zining zinasiga tushirdi, birmi, ikki marta qizning oyoqlari unikiga tegdi, qiz oyoqlarini uzatishni unutdi, biroq keyin uzatdi. Mayli-da. Bo'lsa bo'lar.

Aqlli bolalik davridan hozirgi telbalikkacha oradan o'n yil o'tdi. Xo'sh, unga she'rini jo'natsa nima bo'ladi? Ertalabki choy payti, choyqoshiq bilan tuxumning po'chog'ini tiqqillatib, shu tovushga monand ovoz chiqarib o'qishadi. Mana, chinakam telbalik! Qizning aka-ukalari masxaralab kulib, biri-biridan qizg'anib, qo'pol, dag'al barmoqlari bilan varaqlarni tortilab yirtadi. Shirinsuxan ruhoniyni, qizning amakisi oromkursida oldga cho'zilgan qo'lida varaqni ushlab, kulimsirab o'qiydi va she'rning badiiy shaklini ma'qullaydi.

Yo'q, yo'q, bu telbalik! Hatto jo'natgan taqdirda ham qiz she'rni boshqalarga ko'rsatmaydi. Yo'q, yo'q, u bunday qilishga qobil emas.

Nazarida, u qizga nisbatdan nohaqlik qilayotganday tuyuladi. Qizning bokiraligiga ishonchi o'ziga ta'sir qildi, ko'nglida achinishga yaqin tuyg'u uyg'otdi; bokiralik nimaligini u gunohga qo'l urganidan keyingina angladi, bokiralik haqida qiz ham, hali gunohga yo'l qo'ymagan yoki ayol tabiatining g'alati tahqirlovchi dardlari unga ilk bor ayon bo'lgunicha, hech qanday tasavvurga ega emas. Faqat xuddi uning yuragi jo'shib birinchi marta gunohga yo'l qo'yganday, ilk bor qizning qalbi ham hayot shavqiga talpingandi, xolos. Qizning rangpar ozg'in jussasini, ojizaligidan o'kingan, xo'rlangan ko'zlarini eslaganda uning yuragi nozik dardkash tuyg'ulariga to'lib ketdi.

Qiz qayerda edi uning ruhi jazavadan yonib, toliqqanida? Ehtimol, ayni o'sha daqiqalarda sirli ruhiy rishtalar bilan qiz qalbi uning ehtiromini his etgandir. Ehtimol.

Xohish ishtiyoqi tag'in alangalandi va butun vujudini qamrab oldi. Uning xohishini his etib, o'sha - villanelladagi yo'ldan ozdirguvchi afsungar tag'in uyqudan bosh ko'tardi, qop-qora, xumor ko'zlari uning ko'zlariga peshvoz ochildi. Unga o'zini yalang'och, porillab, muattar hid taratib, ochilib-sochilib baxshida etdi, xuddi yorqin parqu bulutday bag'riga olib, zilol suvday cho'mdirib huzur bag'ishladi; va misoli yer bag'irlab, oqqan tumanday nutqning ravon tovushlari - sirning ayni mohiyati bo'lmish timsollar quyilib keldi:

Toliqingmi qaynoq nurlarda
Mahzun ruhni sevriga olgan?
Uxla, yodim, kunlar sevrila.
Olovlanar yurak ko'zingdan
Qismatiga egadirsan sen.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?
Fimiam tutuni ko'kda suzar-da

Yer qa'ri-yu dengizga ko'char.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?
Titroq nola, g'amli zorlarda
Zamin uzra yaralmoq madhi.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?
Qurbonim-da ochiq qo'llarda
Jom limmo-lim hayot mayiga.
Uxla, yodim, kunlar sehrila.
Sen qotgansan horg'in ko'zlarda
Xumor ko'zlar sehri chorlaydi.
Toliqingmi qaynoq nurlarda?
Uxla, yodim kunlar sehrila.
* * *

Bular qanday qushlar bo'ldi? U shumtol tayog'iga horg'in tayanib, qushlarning parvozini kuzatmoqchi bo'lib, kutubxonaning zinasida to'xtadi. Ular Mulsvort-stritdagi uying turtib chiqqan burchagi ustida charx urib aylanardi. Mart oyining shom osmonida qushlarning parvozi aniq-tiniq ko'rinardi, chaqqon, titroq qoralari shiddat bilan charx urayotgani kulrang samoda ravshan bilinardi.

U qushlarning uchishini kuzatib turdi: birining ortidan boshqasi titrab, qanot qoqib uchadi. Parvoz shiddatli tus olguncha ularni sanashga urindi: olti, o'n, o'n bir... Ko'nglida tasmolladi - toqmi yoki juft. O'n ikki, o'n uch... mana, yana ikkitasi, aylanib, yer bag'irlab tushib uchayotir. Qushlar goh tepalab, goh pastlab, biroq har gal doira hosil qilib uchardi.

U qushlarning chirqillashiga quloq tutdi: xuddi devorga qoplangan yog'och ortidagi sichqonning chiyillashiga o'xshaydi - o'tkir, siniq tovush. Biroq sichqonning chiyillashiga qaraganda bu o'tkirroq, cho'ziqroq; qushlarning tovushi, tumshuqlari havoni tilib uchganda, goh bir necha parda tushar, goh ko'tarilardi. O'tkir, tiniq va nozik tovushlar guvillab aylanayotgan urchuqqa o'ralayotgan ipak ipday eshilib taralardi.

Bu g'ayriinsoniy g'ovur-g'uvur uning quloqlariga yoqimli eshitaladi, quloqlaridan esa onasining yozg'irishlari va tanbehlari ketmaydi; qorayib ko'ringan, nozik, titroq qushchalarning yer bag'irlab parvoz qilishi uning ko'zini quvontiradi, biroq ko'z o'ngidan onasining qahrli yuzi ketmaydi.

Nega u zinada turib tepaga qarayotir, qushlarning parvozini kuzatib, ularning achchiq, siniq chug'ur-chug'urini eshitayotir?

Qanday alomatni ilg'amoqchi: yaxshiliknimi yoki yomonliknimi? Xayolidan Korneliy Agrippa aytgan gapi o'tdi; keyin Svedenborgning qushlar bilan ruhiy hayot alomatlari o'zaro muvofiqligi haqidagi fikrlarini uzuq-yuluq esladi. Bu samo mavjudotlari, degan edi Svedenborg, o'zlariga xos aql-idrokka ega va ular o'zlariga belgilab berilgan muddatni, yil fasllarini bilishadi, chunki ular odamlardan farqli o'laroq, o'z hayotlari tartiblariga sobitdirlarki, o'zlariga ato etilgan aql-idrokni bu tartibni buzishga yo'llamaydilar.

Asrlar mobaynida odamlar, hozir u kuzatayotganday tepalarida uchib yurgan qushlarni kuzatishgan. Boshi uzra tizilgan qushlar qatori unga eskidan qolgan ibodatxonani eslatdi, horg'in suyanib turgan shumtol tayog'i esa avgurning mayishgan hassasini yodiga soldi.

Horg'in vujudida ro'yo qarshisidagi qo'rquv hissi g'imirladi - bu timsollar, alomatlar qarshisidagi, o'zi ismini ko'tarib yurgan qirg'iyisifat odam - tol shoxlaridan yasagan qanotlar yordamida tutqinlikdan ozod bo'lgan inson ro'parasidagi qo'rquv edi; bu lavhalariga qamish cho'p bilan bitiklar bitgan va o'zining laylakmonand qush - ibisning ensiz boshida o'roqnuksa ikki shoxni ko'tarib yurgan mirzalar tangrisi - Tot qarshidagi qo'rquv edi.

Bu tangrini ko'z oldiga keltirib jilmaydi, chunki tangri unga boshiga yasama soch qo'ndirib olgan sudyani eslatdi; sudya oldinga cho'zilgan qo'lidagi sud aktiga vergul qo'yib chiqadi va agar tangrining ismi "mot", ya'ni isrofgar so'ziga o'xshab jaranglamaganda men uning ismini eslamagan bo'lardim, deb o'yladi u. Mana bu borib turgan telbalik. Biroq ayni telbaligi tufayli u o'zi tug'ilib voyaga yetgan duoxon va farosatli insonlar yashaydigan xonadonni butunlay tark etishga jazm etmadimikan?

Qushlar yana bo'zargan osmon bo'ylab, uying chiqib turgan burchagi ustidan qattiq chirqillab uchib o'tdi. Bular qanday qushlar bo'ldi? Aftidan, janubdan qaldirg'ochlar qaytganga o'xshaydi. Demak, uning ham jo'nash vaqti yetgan, axir, qushlar uchib keladi va uchib ketadi, xonadonlarning tomiga omonatgina uya quradi va yana yangi safarlarga shaylanib uyalarini tark etadi.

Yuzingizni yerga qadang, Una va Alil.

Ulargam qaldirg'ochday mahzun qarayman

Bo'g'otdan, uyadan xayrlasha turib,

Mavj urgan to'lqin uzra safar oldidan.

Xotirjam sevinch tuyg'ulari, misoli bostirib kelgan to'lqinday, uning xotirasiga quyildi va yuragida so'ngsiz suvli kengliklar ustidagi bepoyon osmon sokinligini, okean sukutini va shom qorong'usida suv mavjlari ustida uchib yurgan qaldirg'ochlarning xotirjamligini his etdi.

Xotirjam sevinch tuyg'ulari uning yuragiga ana shu satrlardan quyildi, bu so'zlar tarkibidagi mayin va cho'ziq undoshlar sassiz to'qnashar, ayri tushar, bir-biriga uyg'unlashib, qo'shilib-singishib mavjlanar, sassiz mavjlar bag'rida to'lqinlarning oq qo'ng'iroqchalarini tebratib tinch so'nayotgan qushlar chug'ur-chug'uri zamirida tovushsiz sado taratardi; va u qushlarning aylanib uchishidan, tepasidagi osmonning bo'zrang kengliklaridan o'zi izlagan nishona yuragidan porillab, xuddi minorada uchgan qushday - shiddat bilan, vazmin otilib uchganini his etdi.

Bu nima - ayriqlik belgisimi yoki yolg'izlikdan nishonami? Uning xotirasiga kelgan - quloqlarida shivirlab sado bergan she'r satrlari ko'z o'ngida beixtiyor Milliy teatrning ochilishiga bag'ishlangan oqshomdagi tomosha zalini jonlantirdi. U balkondagi oxirgi qatorda yolg'iz o'zi, toliqqan ko'zlari bilan parterdagi Dublin jamoatchiligining kazo-kazolariga, didsizlik bilan ishlangan bezaklarga va yarqiragan chiroqlar yorug'ida qo'g'irchoqlarday harakatlanayotgan aktyorlarga qarab o'tirardi. Uning ortida esa xohlagan damda zalni tartibga solib qo'yishga shay semiz politsiyachi terga botib tik turardi. U yer, bu yerda o'tirgan talabalar orasidan onda-sonda darg'azab hayqiriqlar, hushtaklar, masxaralovchi kinoyalar, tahqirlovchi so'zlar eshilib turardi.

- Bu Irlandiyaga tuhmat!

- Nemislarning ig'vosi bu!
- Haqorat!
- Biz e'tiqodimizni sotganimiz yo'q!
- Hech qaysi irland qizi bunday qilmagan!
- Yo'qolsin xudosislar!
- Yo'qolsin buddizm malaylari!

Derazadan tepada tuyqusdan qisqa shitirlagan tovush eshitildi, demak, qiroatxonada chiroqni yoqishdi. U xira yoritilgan dahlizdan ustunlar oralab o'tib, tepaga ko'tarildi.

Krenli javon yonida lug'atga qarab o'tirardi. Uning oldida yog'och kursida muqovasi ochilgan qalin kitob yotibdi. U o'zini stulga tashlab, qulog'ini xuddi gunohkorning tavbasini tinglayotgan ruhoniiday medik-talabani og'ziga tutgan, talaba unga gazetadagi shaxmat jumbog'ini o'qirdi. Stiven uning o'ng tarafiga o'tirdi, o'tirgan ruhoni o'zining "Teblet"ini asabiy yopib, o'rnidan turdi.

Krenli ruhoniyaning ortidan xayolchan qarab qo'ydi. Medik-talaba ovozi pasaytirib o'qishni davom ettirdi:

- Piyoda ye4 ga yuriladi.
- Kel, yaxshisi tashqariga chiqaylik, Dikson, - dedi Stiven ehtiyotkor ohangda. - U arz qilgani ketdi.

Dikson gazetani yig'ishtirib, salobat bilan qaddini rostlab turib, dedi:

- Biznikilar yoppasiga chekinishmoqda.
- Qurollari va hayvonlar bilan, - qo'shimcha qildi Stiven Krenlining oldida yotgan, muqovasiga "Shoxdor hayvonlar kasalliklari" deb yozilgan kitobga ishora qilib.

Ular stollarni oralab o'tishayotganda Stiven:

- Krenli, men sen bilan gaplashib olishim kerak, - dedi.

Krenli hech nima demadi, hatto qayrilib qaramadi ham. U kitobni topshirib tashqariga chiqiladigan eshikka yo'l oldi; uning yaltiroq botinkasi yerga taqillab urilardi. Zinapoyaga yetganda u to'xtadi va allaqanday parishon holda Diksonga qarab, takrorladi:

- Piyodani o'sha bema'ni 4e ga yurdim.
- Nachora, ixtiyoring, buyam ma'qul, - javob qildi Dikson.

Uning ovozi xotirjam, muomalasida o'zgarish sezilmasdi, semiz qo'lining bir barmog'ida uzuk yarqirab turardi.

Dahlizda ularga pak-pakana, kichkina bir odam yaqinlashdi. Jimitday shlyapasining tagidagi soqoli olinmagan yuziga kulgi yoyilgan bu odamcha shivirlab gap boshladi. Uning ko'zlari maymunnikiday qayg'uli edi.

- Xayrli kech, jentelmenlar, - dedi yuzini tuk bosgan maymunbashara pakana.
- Mart oyida shunday isib kesa-ya, - dedi Krenli, - tepadagi derazalarni ochishdi.

Dikson kulimsiradi va uzugini aylantirib o'ynadi. Qorachadan kelgan maymunbashara nusxa og'zini kulgiga rostladi va ming'irlagan ovoz chiqardi:

- Mart oyi uchun bu kutilmagan g'aroyib havo. Juda ajoyib.
- Tepada ikki nafar yoshgina jonon sizni kutib qolishdi, kapitan, - dedi Dikson.

Krenli kulimsiradi va xushmuomalalik bilan dedi:

- Kapitanning faqat bitta yaxshi ko'rgani bor: bu ser Valter Skott. To'g'rimi, kapitan?
- Hozir siz nimani o'qiyapsiz kapitan? - so'radi Dikson. - "Lammermurlik nozanin"nimi?
- Qariya Skottni yaxshi ko'raman, - dedi maymunbashara nusxa. - Uning yozganlarida uslub qanaqadir ajoyib. Biror-bir yozuvchi ser Valter Skott bilan tenglasholmaydi.

Uning gaplarini eshitish Stiven uchun zerikarli edi: gapidan latta hidi anqirdi. Uni eshita turib Stiven o'zicha: u haqda aytilgan gaplar to'g'rimikan, deb o'yladi.

Bog'dagi daraxtlar yomg'irdan nam tortib shishgan, yomg'ir esa to'ng'arilgan qalqonday bo'zarib yotgan ko'l ustiga tinimsiz shig'alab yog'ib turibdi. Bu yerdan oqqushlar galasi uchib o'tdi, suv yuzi va qirg'oq oqish-yashil balchiqqa belanib yotibdi.

Ular bo'zrang yomg'irli havodan salovat to'kib turgan ho'l daraxtlar va qalqonga o'xshab ko'ringan ayg'oqchi-ko'ldan, oqqushlardan ta'sirlanib, bir-birining pinjiga kirishdi.

Ular hech bir sevinchsiz, ehtirossiz quchoqlashishdi. Uning qo'li qizning bo'ynidan quchdi, yelkasidan oshirib tashlagan bo'zrang jo'n ro'mol qizni beligacha burkab olgan, qiz uyalinqirab boshini quyi solib olgan. Yigitning kumushrang-sariq sochlari hurpaygan, qo'llari mayin, epchil, qoruvli, sepkil bosgan. Yuzi-chi? Yuzi ko'rinmasdi. Yigitning yuzi ko'zining yomg'ir hidi ufurib turgan sochlariga egilgan, qo'li - sepkil bosgan, qoruvli, epchil va mehribon, Deyvinning qo'li.

Stiven xayolidan kechgan o'ylariga va xayolini bo'lgan maymunbashara odamchaga achchiq qilib, qovog'ini uydi. Uning xotirasidan Bantridan chiqqan to'da haqida otasining aytgan achchiq-tiziq gaplari o'tdi. U boshqalarga qo'l siltadi va g'amgin kayfiyatda o'zinning o'y-xayollariga berildi. Nega endi bu Krenlining qo'llari emas? Yoki Deyvinning soddadilligi va beozorligi zimdan uning havasini keltirdimikan?

U pakana odamcha bilan xayr-ma'zur qilishni Krenliga qoldirib, Dikson bilan katta zalni oralab yurib ketdi.

Qator ustunlar oldida bir guruh talabalar orasida Templ turardi. Talabalardan biri qichqirdi:

- Hoy, Dikson, bu yoqqa kel, bir eshit. Templning ilhomi qaynayapti.
- Templ unga o'zining qop-qora lo'li ko'zlari bilan olayib qaradi.
- Sen, O'Kiff, munofiqsan, - dedi u. - Dikson esa - kuldirguvchi. Qiziq-a, jin ursin, yaxshi adabiy ibora - kuldirguvchi.

U, Stivenning yuziga qarab olib, mug'ombirona kuldi va qo'shib qo'ydi:

- To'g'rimi, chindanam zo'r laqab - kuldirguvchi.

Zinapoyaning quyirog'ida turgan semiz talaba gap qotdi:

- Haligi ma'shuqa haqidagi gappingning oxirini ayt. Bizga shu qiziq.
- Uning ma'shuqasi bor edi chin so'zim, - dedi Templ. - Buning ustiga u uylangan edi. Ruhoniylar ham o'sha joyga ovqatlangani borishardi. Jin ursin, ularning hammasi, menimcha, o'sha suyuqoyoq bilan don olishgan.
- Bu xuddi yo'rg'a otni ayab qirchang'i bilan poygaga tushganday gap, - dedi Dikson.

ВЪ”Bugun qorningga necha krujka piva quyding, - dedi O'Kiff, - qani, bir tan olib ayt-chi?

- Sening patos boylagan ziyolinamo yuraging mana shu gappingda ko'rinib turibdi, - dedi Templ nafratini yashirmay.

U oyoqlarini tapillatib, uymalashib turgan talabalarni aylanib o'tdi va Stivenga murojaat qildi:

- Forsterlar Belgiya qirollari ekanini sen bilarmiding? - so'radi u.

Shapkasini teskari kiyib olgan Krenli tishlarini kavlab kirib keldi.

- Mana, bizning donishi zamonamiz keldi, - dedi Templ. - Sening Forsterlar haqidagi gapdan xabaring bormi?

U javobni kutib, sukut saqladi. Krenli tishining orasidan cho'pni oldi va unga tikilib qaradi.

- Forsterlar sulolasi, - davom etdi Templ, - Flandriya qiroli Bolduin Birinchidan boshlanadi. Uni Forester deyishgan. Forester bilan Forster - bitta. Bolduin Birinchining avlodi, kapitan Frensis Forster Irlandiyada yashab qolgan, Bressil urug'-aymog'ining oxirgi yo'l boshchisi qiziga uylangan. Yana qora Forsterlar ham bor, biroq bu boshqa shajara.

- Bu sajara Dovdirdan, Flandriya qiroolidan tarqalgan, - dedi Krenli, yana qorday oppoq tishlarini o'ychan kavlab turib.

- Qayerdan topa qolding bu gaplarni? - so'radi O'Kiff.

- Men sizlarning shajaranglarni ham bilaman, - dedi Templ Stivenga qarab. - Bilasanmi, bu haqda Girald Kambriy nima degan?

- Nima uyam Bolduindan tarqaganmi? - deb so'radi uzun bo'yli, yuzi zahil, ko'zлари qora talaba.

- Dovdirdan tarqagan, вЂ” dedi Krenli, tishlari orasidan nimanidir so'rib.

- Pernobilis et pervetusta familia[17] - dedi Templ Stivenga.

Pastdagi zinada turgan semiz talaba qo'nqilladi. Dikson burilib unga qaradi va sekin so'radi:

- Iye, farishtayam og'zini ochdimi deyman?

Krenli ham o'girildi va ta'sirli qilib, biroq g'azablanmay dedi:

- Bilasanmi Goggins, sen dunyodagi eng iflos, sassiq hayvonning o'zisan.

- Men og'zimga kelgan gapni aytdim-qo'ydim, - dedi qat'i ohangda Goggins, - bundan birovning obro'yi to'kilib qolgani yo'q.

- Umid qilamizki, - dedi Dikson, - bu aljirash ilmiy kashfiyotlar haqida paulo post futurum[18] aytiladigan yangilikka o'xshagan gap-so'zlar sirasidan emas.

- Men sizlarga hozirgina aytdim-ku, u kuldirguvchi, - dedi Templ bir o'ngga, bir chapga alanglab, - bu laqabni unga men qo'ymadimmi?

- Eshitdik, kar emasmiz, - dedi bo'ychan zahil yuzli talaba.

Krenli qovog'ini osib, pastdagi zinada turgan semiz talabaga g'azab bilan qaradi. Keyin jirkanib pishqirdi va uning biqinidan turti.

- Qani, jo'na, - baqirdi u qo'pollik bilan, - tuyog'ingni shiqillat, sassiqpopishak.

Goggins yo'lakka sakrab tushdi va shu zahotiyog, kulib, oldin turgan joyiga qaytdi. Templ, Stivenga qarab dedi:

- Sen irsiyat qonuniga ishonasanmi?

- Nima balo, kayfing bormi? - so'radi Krenli unga hayron bo'lib tikilarkan.

- Juda zo'r gap, - dedi qizishib Templ, - zoologiya darsligining oxirida shunday yozilgan: yaralish o'limning boshlanishidir.

U ehtiyotkorlik bilan Stivenning tirsagidan ushladi va hayajonlanib dedi:

- Sen sho'irsan, bu gapni juda teran his qilishing kerak!

Krenli ko'rsatkich barmog'i bilan unga ilkis ishora qildi.

- Ana, qaranglar, - dedi u qahri qo'zib. - Havas qiling - Irlandiyaning umidi!

Uning gapi va qo'l harakatidan hamma quldi. Biroq Templ bo'sh kelmadi, Krenliga burilib qarab, dedi:

- Krenli, sen doim meni mayna qilasan. Men buni juda yaxshi bilaman. Biroq mening sendan kam joyim yo'q. Bilasanmi, seni o'zim bilan qiyoslaganda qanday fikrga kelaman?

- Azizim, - dedi Krenli muloyimlik bilan, - axir, sen fikrlashga mutlaqo yaroqsizsan, mutlaqo.

- Xo'sh, seni o'zim bilan qiyoslaganda nimani o'ylaganimni bilishni xohlaysanmi? - davom etdi Templ.

- Ayt, ayt, Templ, - qichqirdi baqaloq zinada turib, - bo'la qol, ayt!

Templ qo'lini paxsa qilib, bir o'ng, bir chap tomonga burilib qaradi.

- Men to'nkaman, - dedi u boshini afsuslanib chayqab. - Buni bilaman. Tan olaman ham.

Dikson sekingina uning kiftiga qoqdi va erkab dedi:

- Kamtarga kamol deganlar, balli Templ.

- Biroq u, - davom etdi Templ Krenliga ishora qilib, - u ham to'nka, menga o'xshagan. Farqimiz shundaki, u buni bilmaydi.

Birdan yangragan qahqaha uning gapini bo'lib qo'ydi, biroq u yana Stivenga o'girilib, favqulodda qizishib dedi:

- Bu juda qiziq so'z, bu so'zning kelib chiqishi ham juda g'aroyib.

- Yo'g'-e - dedi parishonlik bilan Stiven.

U zo'rma-o'zraki kulimsirab turgan Krenlining mardonavor, biroq iztirob chekayotgan yuziga qaradi. Qo'pol so'z, xuddi tahqiru haqoratlariga ko'nikib qolgan qadimgi haykalga sepilgan iflos suvday, Krenlining yuzidan oqib tushardi. Ularga qarab turib Stiven Krenlining birov bilan ko'rishayotib shapkasini ko'tarib qo'yganini ko'rdi, Krenlining qop-qora g'ayur sochlari temir gultojoyday manglayida dikkayib turardi.

Qiz kutubxonadan chiqib keldi va Stivenga qiyo boqmay, Krenlining egilib bergan salomiga javob qildi. Bu qanaqasi? Krenliga nima bo'ldi? Krenlining yonoqlari qizarganday tuyuldi yoki unga shunday ko'rindimi? Balki bu Templning gaplari ta'siridan qizargandir? Allaqachon qorong'u tushib qolgan edi. U yaxshilab qaray olmadi.

Do'stining beparvoligi, loqaydligi, Stivenning jo'shqin, telba-teskari gaplarini shartta bo'lib tashlaydigan qo'pol tanbehlari, kutilmaganda tashlanib qolishlarining sababi balki bu yoqdadir? Shunday paytlarda Stiven undan gina qilmas, kechirib ketaverardi, axir, uning o'zida ham shunday qo'rslik bor edi. Bir kuni kechqurun o'rmonda, Malaxayd yaqinida, ibodat qilish uchun, kimdir birovdan so'rab minib kelgan shaloq velosipeddan tushganini esladi. U duoga qo'llarini ko'tardi va jazavaga tushib, nigohini o'rmonning qalin qorong'i joyiga qarab, o'zining muqaddas dargohda va muborak bir damda turganini his etdi, ibodat qila boshladi. Qorong'i yo'lning muyulishida ikki politsiyachining qorasi ko'ringanda esa, u ibodat qilishdan to'xtadi va baland tovushda ko'pchilikka yoqib qolgan bir tomoshadagi kuyga monand hushtak chaldi.

U qo'lidagi tol xivichning po'sti archilgan uchi bilan ustunga tiqillatib ura boshladi. Ehtimol, Krenli uni eshitmagandir? Mayli, u kutadi. Ularning gapi bir zum to'xtab qoldi, keyin yana tepadagi derazadan sekin pichirlagan ovozlari eshitildi. Biroq atrof jim-jit edi, u mahliyo bo'lib parvozini tomosha qilgan qaldirg'ochlar ham allaqachon uyquga ketishgan.

Qiz qorong'iga singib, g'oyib bo'ldi. Shundan so'ng, tepadan eshitilayotgan uzuq-yuluq pichirlagan tovushni aytmaganda, atrofga jimlik cho'kdi. Keyin bu safsata ham tindi. Yerga zim-ziyo qorong'ulik tushdi.

"Zulmat tushar osmon qa'ridan"...

Miltillagan, nimjon shu'laday ozurda sevinch tuyg'usi misoli elfning sehrli galasiday pirpirab uni chulg'ab oldi. Bu nimadan?

Qizning oqshom havosida ko'ngilga g'am-alam solib ketganidanmi yoki qayg'uli-qora undoshlarga uyg'un, udning sharsharaday quyuluvchi ohangiga monand mayin jarangdar ohangli she'r satrining ta'siridanmikan?

U saf tortgan ustunlarni yoqalib, tobora quyuqlashib borayotgan tarafga sekin qadam tashlab, ortida qolgan talabalardan o'zining xayolparastligini yashirish uchun xivich bilan tosh plitalarga tiqillatib urib borarkan, Daulend, Berd va Nesh yashab o'tishgan asmi ko'z oldiga keltirdi.

Pinhona mayllar zulmatida ochiladigan ko'zlar, tong yog'dusini to'sadigan ko'zlar. Ularning xumorlanib qarashida suqlanib noz-karashma qilishdan ortiq yana qanday ma'no bor? Bu ko'zlarning yaltirab turadigan shu'lasi-chi - bu landavur Styuartning qasridagi oqava zovurga yig'ilib qolgan najas shu'lasi emasmi? U xayolan, xotira tili bilan xushbo'y vinoni tatib ko'rdi, mag'rur tovusning nazokatli harakatlaridagi mayin, nafis musiqani ilg'adi, xotira ko'zi bilan esa Kovent-Garden2 peshayvonidagi ko'ngilchan xonimlarni, ularning jozibali, makkorona himarilgan lablarini, mayxonalarda qo'ldan-qo'lga o'tib yuradigan, jazmanlari bag'riga otilishga shay cho'tir yuzli qizlarni, yosh juvonlarni ko'rdi.

Tasavvurida paydo bo'lgan bunday manzaralarda jonlangan qiyofalar unga huzur bag'ishlamadi. Ularda qandaydir qonni jo'shtiradigan sehr bor, biroq qizning qiyofasi boshqacha, ularga hech ham o'xshamaydi, yaqiniga ham yo'lamaydi. U haqda bunday xayollarga borish nojoiz. Hozir u bunday xayollarga borayotgani ham yo'q. Demak, uning o'ylari o'ziga bo'ysunmas ekan-da? Eski gap-so'zlar, xayollar xuddi Krenli sutday oppoq tishlari orasidan kavlab oladigan anjir doniday biroz badbo'y, biroz xushta'm.

Hozir qiz shahar bo'ylab yurib, uyiga borayotir. U qizni quchgan paytdagi muattar hidni avvaliga sezilar-sezilmas, keyin kuchliroq his etdi. O'ziga tanish bo'lgan yoqimli hayajon vujudini chulg'adi. Ha, bu qizning badanidan taralgan bo'y: hayajonga soluvchi, zoriqtiruvchi muattar bo'y; she'rlarida sirli ohanglarga ko'mib tashlangan iliq badan, uning tanidan taralgan xushbo'y hid va shabnamga to'yingan ichdagi mayin ko'ylak.

U ensasida g'imirlayotgan bitni sezib qoldi; katta ko'rsatkich barmog'ini qaytarma yoqasining ichiga tiqib ushladi, bir daqiqa barmog'ining uchi bilan uning muloyim, mo'rtgina, guruch donachasiday tanachasini ezg'aladi va o'lgan yoki o'lmaganini bilmay, otib yubordi. Xayoliga Korneliy a Lapidening g'aroyib gapi keldi; unda bit odam badanidan chiqqan terdan paydo bo'ladi, uni tangri boshqa barcha jonzotlar bilan birga oltinchi kunda yaratmagan, deyilgan edi. Ensasining terisi qichishi uning asabini qo'zg'adi. Yaxshi kiyinmagan, yaxshi yeb-ichmagan, bit bosgan tananing hayoti beixtiyor uning ruhini cho'ktirdi va qorong'uda ko'ziga tepadan tushayotgan bitlarning mo'rt, yaltiroq tanachalari ko'rindi. Osmon qa'ridan tushayotgan, axir, tun zulmati emas-ku. Yorug'lik-ku.

"Nur yog'ilar osmon qa'ridan"...

U hatto Neshning satrini to'g'ri eslay olmadi. Qizni eslaganda ko'z oldiga keltirgan barcha qiyofalar ro'yo edi. Uning tasavvurini sirka bosib ketdi. Uning fikrlari - badbin o'y-xayollardan paydo bo'lgan bitlar.

U ortga burilib, qator tizilgan ustunlarni yoqalab talabalar tomon yurdi. Bilganini qilsin! Jin ursin! Yaxshi ko'rmasa ko'rmas! Biror-bir ko'kragida yoli bor, toza-ozoda, har kuni ertalab yuvinib-taranadigan sportchini topar o'ziga! Battar bo'lsin!

Krenli cho'ntagidan yana bitta quritilgan anjirni olib, shoshilmay chappillatib chaynay boshladi. Templ uyqusiragan ko'zlariga shapkasini tushirib, ustunga suyanib mudrab o'tirardi. Binodan qo'ltig'iga charm papka qistirib olgan bir kaltabaqay yigit chiqib keldi. U poshnalarini va qo'lidagi shamsiyasining temir uchini tosh plitalarga taqillatib urib, to'dalashib turgan talabalar tomon yurdi. Salom bergan bo'lib, shamsiyani ko'tardi va hammaga qarata dedi:

- Xayrli kech, jentelmenlar.

Keyin shamsiyaning uchi bilan tosh plitalarga to'qillatib urib, hiringlab kuldi, uning boshi biroz asabiy qaltirardi. O'zlaricha irland tilida berilib gaplashayotgan zahil yuzli bo'ychan talaba, Dikson va O'Kiff unga e'tibor qilishmadi. Buni payqab, u Krenliga burilib, dedi:

- Xayrli kech, hoy janob!

Shunday deb u shamsiyasini ko'tarib Krenliga ishora qildi va yana hiringladi. Hali ham anjir chaynab o'tirgan Krenli, og'zini chapillatib, baqirib dedi:

- Xayrli deysanmi? Ha, yomonmas.

Kaltabaqay talaba unga diqqat bilan qaradi va gina qilganday shamsiyasini sermadi.

- Menimcha, - dedi u, sen, harqalay, ayon narsani ilg'ashni ixtiyor etding.

- Ha-da! - javob qildi Krenli va yarmi tishlangan anjirni kaltabaqay talabaning og'ziga tutib, yeyishni taklif qilgan bo'ldi.

Kaltabaqay rad etdi, biroq o'zining gapga chechanligidan g'ururlanib, hiringlab va shamsiyasini to'qillatib, jiddiy ohangda so'radi:

- Buni qanday tushunsa bo'ladi?..

U to'xtab, yarmi tishlangan anjirni ko'rsatib, baland ovozda qo'shib qo'ydi:

- Men buni nazarda tutayapman.

- Ha-da! - yana ping'illab qo'ydi Krenli.

вЂ”Buni, - dedi kaltabaqay, - ipso factum yoki qandaydir qochiriq deb tushunish kerakmi?

Dikson, suhbatdoshlaridan chetlashib, undan so'radi:

- Glinn, seni Goggins kutib o'tirgandi. U sen bilan Moynixenni qidirib "Adelfi"2ga ketdi. Buning ichida nima bor? - so'radi u Glinn qo'ltig'iga qistirib olgan papkani shappatilab.

- Imtihonga kerak narsalar, - javob qildi Glinn. - Men ularni har oy imtihon qilaman, berayotgan darslarimning natijasini ko'rib borishim kerak.

Shunday deb uning o'zi ham papkani shappatilab qo'ydi, sekin tomog'ini qirib, kulimsiradi.

- Dars berarmish! - qo'pollik bilan gapga aralashdi Krenli. - Sho'rlik yalangoyoq bolalar, ular senday yaramas maymundan dars o'qib kim bo'lardi. Ularga o'zing rahm qil, ilohim!

Krenli anjirdan yana bir bo'lakni tishlab uzib oldi va chiqitini otib yubordi.

- Bolalarni mening qoshimga kelishlariga izn bering va ularning yo'lini to'smang, - dedi Glinn yoqimli ovoz bilan.

- Yaramas maymun! - dedi battar qahri qo'zib Krenli. - Tangriga shak keltirgan yaramas maymun!

Templ o'rnidan turib, Krenlini itarib yubordi va Glinnga yaqinlashdi.

- Hozir siz aytgan bu so'zlar, - dedi u, - Injildan: bolalarni mening qoshimga kelishlariga izn bering va ularning yo'lini to'smang.

- Sen yana biroz uxlasang bo'larmidi, Templ, - dedi O'Kiff.

- Gap shundaki, ya'ni men aytmoqchi bo'lgan gap shuki, - davom etdi Templ Glinnga murojaat qilib. - Iisus bolalarning qoshiga

kelishlariga to'sqinlik qilmagan. Xo'sh, unda nega cherkov ularni, cho'qintirilmay turib vafot etsa, yoppasiga do'zaxga jo'natadi?

- Sen o'zing cho'qinganmisan, Templ, - so'radi zahil yuzli talaba.

- Yo'q, baribir, nega endi ularni do'zaxga jo'natishadi. Axir, Iisus ular qoshimga kelsin, deb turgan bo'lsa? - takrorladi Templ ko'zlari bilan Glinnga teshib yuborguday tikilib.

Glinn yo'taldi va asabiy qiqillab kulib yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib, shamsiyasini siltab, har bir so'zni salmoqlab sekin ming'irladi:

- Modomiki, bu agar sen aytganday bo'ladigan bo'lsa, men ham yuzingda ko'zing bormi demay so'rashga jur'at etaman: xo'sh, "bunday" degani qayerdan paydo bo'la qoldi?

- Chunki cherkov shafqatsiz, qari gunohkor xotinlarday marhamatsiz, - dedi Templ.

- Bu masalada sen eski aqidalarga yopishib olgansan chog'i, Templ? - quvlik bilan so'radi Dikson.

- Avliyo Avgustin cho'qintirilmagan bolalar do'zaxga tushadilar, deydi, - javob qildi Templ, - chunki uning o'zi ham rahmsiz qari gunohkor banda bo'lgan.

- Sen, albatta, bilag'onsan, - dedi Dikson, - biroq men, baribir, bunday holatlar uchun mahsharda javob beriladi-ku, deb hisoblardim doim.

- Nimasi bilan bahslashasan uning, Dikson, - jahl bilan gapga aralashdi Krenli. - Gaplashma u bilan, basharasigayam qarama, yaxshisi, bo'yniga arqon sol-da, baqiroq echkiday yetaklab uyiga olib ket uni.

- Mahshar emish! - qichqirdi Templ. - Mana sizga g'aroyib kashfiyot! Bu, axir, do'zaxning o'zi-ku!

- Biroq noxushliklardan xoli, - ta'kidladi Dikson.

U kulib turib bolalarga qaradi va dedi:

- Harqalay, men bu yerdagi ko'pchilikning fikrini aytdim, deb o'ylayman.

- Bo'lmasa-chi, - dedi Glinn qat'iyat bilan. - Irlandiya bu masalada yakdil.

U shamsiyasining uchini ayvonning tosh yotqizilgan yeriga urib taqillatdi.

- do'zax, - dedi Templ. - Iblisning urg'ochi juftlari to'qigan bu uydirmani men e'zozlashim mumkin. Do'zax - rimliklar o'ylab topgan, xuddi Rim devorlariday nurab qulagan bema'ni narsa. Biroq mashhur degani nima?

- Uni joyiga eltib uxlatgin! - qichqirdi O'Kiff.

Krenli Templga tashlandi, keyin to'xtab, oyoqlarini tappillatib, tovuqni quvganday kishladi:

- Kish!..q

Templ chaqqon o'zini chetga oldi.

- Bilasizlarmi, mahshar nima degani? - qichqirdi u.

- Bunday narsalar bizning Roskomonda qanday atalishini bilasizlarmi?

- Kish!.. Ket, yo'qol! - qichqirdi Krenli kaftini kaftiga urib.

- Balo degani, battar degani, - nafratlanib qichqirdi Templ, - mana, sizlarning mahsharlaring nima.

- Qo'lingdagi cho'pni berib tur, - dedi Krenli.

U Stivenning qo'lidagi tol xivichni tortib oldi va zinadan pastga qarab yugurdi, biroq Templ ortidan quvib kelayotgan oyoq tovushini eshitib, xuddi epchiloq hayvonday zum o'tmay qorong'uga kirib g'oyib bo'ldi. Krenlining og'ir etiklari maydonchada gursillab tovush chiqardi, keyin vazmin tapillab, chag'iltoshlarni sochib kelayotgan qadam tovushi eshitildi.

Qadamlar zardali edi, Krenli ilkis harakat bilan xivichni Stivenning qo'lga tutqazdi. Stiven uning iddaosida ayricha sabab borligini his etdi, biroq o'zini sezmaganga olib, bosiqlik bilan Krenlining qo'lga qo'lini tekizdi va xotirjam dedi:

- Krenli, men senga aytdim-ku, sen bilan maslahatlashadigan gap bor deb. Yur.

Ular hovlichani kesib o'tishdi. Ayvon zinasiga yetganda "Zigfrid"3dagi sayroqi qushning tovushiday mayin hushtak tovushi eshitildi. Krenli o'girilib qaradi va Dikson hushtak chalishdan to'xtab, qichqirdi:

- Yo'l bo'lsin, jo'ralar? O'yinni oxiriga yetkazmaymizmi, Krenli?

Ular tinch, sokin havoda "Adelfi" mehmonxonasidagi billiard o'yinini davom ettirish haqida baqirib-chaqirib va'dalasha boshlashdi. Stiven bir o'zi oldinga yurdi va Kilderstrit ro'parasidagi "Zarang osti" mehmonxonasi oldidan chiqdi, to'xtab, sabr qilib kutib turdi. Mehmonxonaning nomi, silliqlangan yog'ochning tussizligi, binoning ko'rimsiz old tomoni tasavvurida nafratomuz tikilib turgan kishining nazariday, ko'ngliga og'ir botdi. U asabi buzilib, mehmonxonaning xira yoritilgan ayvoniga qaradi va u yerda irland zodagonlarining xotirjam, silliq kechayotgan hayotini ko'z oldiga keltirdi. Ular qanday qilib yuqori lavozimlarni qo'lga kiritish, yer-mulk egalarini qo'lga olish haqida o'ylashadi; dehqonlar qishloq yo'llarida to'xtab, ularga egilib ta'zim qilishadi; zodagonlar turli-tuman fransuzcha taomlarning nomini bilishadi va chiyillagan, chinqirgan ovoz bilan xizmatkorlarga buyruq berishadi, biroq ularning kalondimog' ohangdagi buyruqlaridan madaniyatsizligi, ahmoqligi bilinib turadi.

Ular g'afatdan uyg'otishning iloji bormikan, qanday qilsa ularning farzandlaridan o'zlariga o'xshagan ojiz, notavon bo'lmagan avlod yetishadi. Tobora quyuqlashayotgan shom qorong'usida Stiven o'zi mansub bo'lgan xalqning o'y-xayollari, umid-orzulari qorong'u qishloq ko'chalarida, gavjum daraxtlar tagida, suv va botqoqliklar ustida ko'rshapalakday charx urib yurganini his etdi. Deyvin kechasi qishloq yo'lidan kelayotganda eshigi oldida uni qishloq ayoli kutib turgan. Ayol unga bir kosa sut tutib, uni ichkariga taklif qilgan, chunki Deyvinning ko'zlari yuvosh, bundaylar sir saqlay oladi.

Kimdir uning qo'lini mahkam siqdi va u Krenlining ovozi tanidi:

- Surdikmi?

Ular biroz jim ketishdi. Keyin Krenli gap ochdi:

- Bu la'nati telba Templ! Xudo haqqi, bir kun men uni urib o'ldiraman.

Biroq endi uning ovozida zarda sezilmasdi. Stiven o'ziga-o'zi savol berdi: qizning u bilan ayvon ostida tanishganini Krenli eslarmikan?

Ular o'ngga burilib, yo'lni davom ettirishdi. Biroz vaqt ikkalasi ham jim ketishdi, keyin Stiven gap boshladi:

- Krenli, bugun men juda qattiq janjallashib qoldim.

- Uydagilaring bilanmi? - so'radi Krenli.

- Onam bilan.

- Din masalasidami?

- Ha, - javob qildi Stiven.

- Onang necha yoshda? - biroz sukut saqlab so'radi Krenli.

- Hali uncha qarigani yo'q, - javob qildi Stiven.
- Onam mening hayitda cho'qinishimni xohlaydi.
- Sen-chi?
- Cho'qinmayman.
- Xo'sh, nima uchun?
- Bo'ysunmayman, - javob qildi Stiven.
- Bu gapni oldin kimdir ham aytgan, - dedi xotirjam ohangda Krenli.
- Nima qipti, endi men aytayapman, - qizishdi Stiven.
- O'zingni bos, azizim. Buncha qaynab-toshmasang, jin ursin, - dedi Krenli Stivenning qo'lini tirsagi bilan siqib.
Bu gapni u asabiy kulimsirab aytdi va Stivenning yuziga samimiy qarab, takrorladi:
- O'zing sezayapsanmi, sen juda asabiysan?
- To'g'ri, bilaman, - dedi Stiven ham kulimsirab.
Oralariga tushgan sovuqchilik ko'tarildi va yana ular o'zlarini qadrdon do'stlarday his etishdi.
- Sen vino va non Xristning tani va qoni ekaniga ishonasanmi? - so'radi Krenli.
- Yo'q, - dedi Stiven.
- Demak, ishonmaysan?
- Ishonaman ham, ishonmayman ham.
- Hatto juda ko'pchilik dindor kishilarda ham shubha bo'ladi, biroq ular shubhalarini yengishadi yoki shunchaki e'tibor qilmay qo'yishadi, - dedi Krenli.
- Ehtimol, sening gumonlaring juda kuchlidir?
- Men ularni yengishni istamayman, - e'tiroz bildirdi Stiven.
Krenli bir daqiqa nima deyishni bilmay turdi, keyin cho'ntagidan quritilgan anjir olib, og'ziga solmoqchi bo'ldi, biroq Stiven uni to'xtatdi:
- Hoy, to'xta, sen og'zingni to'ldirib turib men bilan bu masalada gaplasha olmasan.
Ular ko'chadagi fonus tagida to'xtashganda, Krenli yorug'da anjirni ko'zdan kechirdi, burnining kataklariga bir-bir bosib hidladi-da, kichkina bo'lakni tishlab uzib olib tupurib tashladi va qulochkashlab anjirni zovurga irg'itdi.
- Ket mening qoshimdan, la'nati, do'zax o'tida yon, - xitob qildi u o'zi uloqtirgan anjir ortidan.
U yana Stivenning qo'ltig'idan oldi.
- Qiyomat kuni bu so'zlarni eshitishdan qo'rqmaysanmi? - so'radi u.
- Xo'sh, evaziga menga nima lozim ko'riladi? - so'radi Stiven. - Dekanimiz bilan birga jannatda abadiy huzur-halovatda yurishmi?
- O'zingni bos, unutm, u jannatga tushadi.
- Ha, albatta, - dedi qizishib Stiven, - shunday aqlli, g'ayratli, bosiq, eng muhimi, zehni o'tkir2 bo'lsa.
- Juda qiziq, - dedi xotirjam ohangda Krenli, - sen o'zing dinni inkor qilayapsan-u, biroq uni vujudingga butunlay singdirib yuborgansan, bu meni ajablantirayapti. Kollejdaligingda ishonarmiding? Garov o'ynayman, ishonarding.
- Ha, - javob qildi Stiven.
- O'sha paytda baxtiyormiding? - yumshoq qilib so'radi Krenli. - Hozirgidan ko'ra baxtliroq eding-da, a?
- Ba'zida baxtir edim, ba'zida - yo'q. Lekin o'shanda men boshqacha edim.
- Qanaqa boshqacha? Nima deganing bu.
- Aytmoqchimanki, men u payt boshqa odam edim, hozirgiday emasdim, qanaqa bo'lishim kerakligidan ko'ra boshqacha edim.
- Boshqacha edim, hozirgiday emasdim? Qanday bo'lishim kerakligidan ko'ra boshqacha edim? - takrorladi Krenli. - Bitta savol bersam maylimi? Sen onangni yaxshi ko'rasanmi?
Stiven sekin boshini sermadi.
- Nimani nazarda tutayotganingni tushunmayapman, - dedi u xotirjam.
- Sen qachondir, kimnidir yaxshi ko'rganmisan? - so'radi Krenli.
- Ayollarni demoqchimisan?
- Men u haqda gapirayotganim yo'q, - sovuqroq ohangda e'tiroz bildirdi Krenli. - Men sendan so'rayapman: qachondir birovga yoki biror narsaga ko'nglingda muhabbat hissini tuyganmisan?
Stiven do'stining yonida qovog'ini solib, yerga qarab borardi.
- Men xudoni sevisga harakat qildim, - dedi u nihoyat yuragini ochib. - Nazarimda, men buni uddalay olmadim. Bu juda qiyin.
Men doim butun borlig'imni xudoning irodasiga bo'ysundirishga urindim. Gohida bunga erishdim ham. Ehtimol, men hozir ham...
Tuyqusdan Krenli uning gapini bo'ldi:
- Sening onang baxtli hayot kechirganmi?
- Qayerdan bilay? - dedi Stiven.
- Uning nechta bolasi bor?
- To'qqiztamidi, o'ntamidi, - javob qildi Stiven, - bir nechta o'lgan.
- Otang-chi... - Krenli chaynaldi, keyin biroz sukut saqlab dedi. - Men sening oilaviy ishlaringga aralashmoqchi emasman. Biroq sening otang, harqalay, badavlat kishi edi, to'g'rimi? Men sening bolalik paytingni nazarda tutayapman.
- Ha, - dedi Stiven.
- U kim bo'lib ishlardi? - so'radi Krenli biroz sukut saqlab.
Stiven bidirlab otasining ishlari-yu, kechirgan kunlarini sanay boshladi.
- Talaba-shifokor, eshkakchi, xushovoz xonanda, ashaddiy siyosatchi, mayda mulkdor, mayda omonatchi, aroqxo'r, yoqimtoy, sergap, kimningdir kotibi, yana vino zavodida kimdir, soliq yig'uvchi, singan savdogar, endi esa o'tmishini xirgoyi qilib yurgan bir darvesh.
Krenli kuldi va Stivenning qo'lini qattiqroq siqib, dedi:
ВЂ”Vino zavodida kimdir - zo'r ekan jin ursin!
- Xo'sh, yana nimalarni bilging kelayapti? - so'radi Stiven.
- Hozir qanday, yaxshi yashayapsizlarmi? Hammasi joyidami?
- Ust-boshimdan sezilmayaptimi? - qo'rslik bilan so'radi Stiven.

«Т»Xo'-o'sh, - dedi Krenli xayolchan, - sen, demak, boy-badavlat oilada tug'lgansan.

Bu gapni u ovozi balandlatib, texnikaga doir muhim atamalarni aytayotganday, dona-dona qilib aytdi va bu bilan o'zi aytgan gapga ishonqiramayotganini Stivenga bildirib qo'ygisi kelayotganiga ishora qildi.

- Sening onangga, harqalay, ancha qiyin bo'lgandir? - davom etdi Krenli. - Nega endi uni sen ortiqcha xafagarchilikdan xalos qilib qo'ya qolmaysan, hatto agar...

- Agar men buni istasam, - dedi Stiven, - bu menga hech gapmas, oson.

- Shunday qila qol-da, - dedi Krenli. - Onang aytganday qil. Shu qiyinmi senga? Agar ko'nglingda ishonmasang, ishonmay qo'ya qol, shunchaki rasmiyatchilik uchun cho'qinsang bo'ldi, xolos. Uning ko'ngli tinchiydi.

Krenli to'xtadi, Stivendan javob bo'lavermagach, oradagi jimlikni buzmad. Keyin, go'yo xayolida kechayotgan o'ylarni ovoz chiqarib aytayotganday, dedi:

- Biz dunyo deb ataydigan bu kir o'rada ona mehridan boshqa hammasi omonat. Seni ona dunyoga keltiradi, vujudida avaylab ko'tarib yuradi. Uning kechirgan azoblarini biz qayerdan bilaylik? Biroq u nimalarni boshidan kechirmasin, ko'nglidan o'tkazmasin

- bari har holda, chin bo'lishi kerak. Haqiqiy bo'lishi kerak. Uning chekkan uqubatlari oldida bizning g'oyalarimiz, orzularimiz hech gapmas. O'yin! Quruq safsata! Anov baqiroq echki Templning kallasidayam g'oya bor. Makkenning miyasidagiyam - g'oya. Yo'lda yurib borayotgan har qanday eshshak menda g'oya bor, deb o'ylashi mumkin.

Stiven, bu gaplar tagida nima yashiringanini bilishga urinib, atay tergab dedi:

- Paskal, agar xotiram aldama, o'zini onasiga o'ptirmas ekan, chunki u ayollarning teginishidan qo'rqan.

- Demak, Paskal - cho'chqa, - dedi Krenli.

- Aloiziy Gonzaga ham, chamamda, shunday qilgan.

- Unda Gonzaga ham cho'chqa, - dedi Krenli.

- Cherkov uni avliyo deb hisoblaydi-ku, - e'tiroz bildirdi Stiven.

- Kim kimni nima deb hisoblasa hisoblayversin, men bariga tupurdim, - qat'iy va qo'pol qilib, cho'rt kesib gapirdi Krenli. - Men uni, baribir, cho'chqa deb hisoblayman.

Stiven, har bir so'zini o'ylab salmoqlab dedi:

- Iisus ham onasi haqida odamlar oldida alohida ehtirom bilan gapirmagan biroq iyezuit ilohiyotchisi, ispan boyoni Suares2 uni haqli deb hisoblaydi.

- Ayt-chi, biror marta sening kallangga, - so'radi Krenli, - Iisus o'zini xaloyiqqa aslidan boshqacha qilib ko'rsatgan, odamlarni chalg'itgan, degan fikr kelmaganmi?

- Menimcha, boshiga bunday fikr kelgan birinchi odam, «Т»javob qildi Stiven, - bu Iisusning o'zi.

- Yo'q, men aytmoqchimanki, - ovozi keskin balandlatib davom etdi Krenli, - qachondir sening kallangga u ongli riyokor yoki oddiy qilib aytganda, ablah, degan fikr kelmaganmi?

- Tan olib aytaman, hech qachon mening miyamga bunday fikr kelgani yo'q, - javob qildi Stiven, - biroq qiziq, sen meni dinga kirgizishga urinmoqchi bo'lyapsanmi yoki o'zingni yo'ldan ozdirmoqchimisan?

Stiven uning yuziga qarab, bepisand kulimsirayotganini ko'rdi, yuzidagi bu ifodaga Krenli sirli ma'no berishga urinardi.

Tuyqusdan Krenli dadillashib, dangal so'radi:

- Vijdonan ayt-chi, mening gaplarim seni noqulay ahvolga solib qo'ymadimi?

- Biroz, - dedi Stiven.

- Xo'sh, nega endi? - davom etdi Krenli gapining ohangini buzmay. - Axir, sen o'zing dinimiz aldov ekaniga, Iisus xudoning o'g'li emasligiga ishonasan-ku.

- Bu gapingga men unchalik qo'shilmayman, - dedi Stiven. - U, harqalay, xudoning o'g'li bo'lsa kerak, Mariyamni emas.

- Shuning uchun ham sen cho'qinishni xohlamaysan-da, a? - so'radi Krenli. - Xo'sh, demak, sen bunga unchalik qo'shilmaysan?

Bundan chiqdiki, vino bilan non chindan ham xudo o'g'lining vujudi va qoni bo'lishi mumkin, bu shunchalik udum bo'lmasa kerak, deb qo'rqasan, shekilli?

- Ha, - xotirjam javob qildi Stiven. - Men buni his qilaman va shuning uchun bu menga g'oyibdan qo'rqinchli tuyuladi.

- Tushunarli, - dedi Krenli.

Stiven, uni hayron qoldirgan ohangda, gapida davom etdi.

- Men ko'p narsadan qo'rqaman, - dedi u, - itdan, otdan multiqdan, dengizdan, momaqaldiraqdan, mashinadan, tungi qishloq yo'llaridan.

- Biroq, nega sen bir burda nondan qo'rqasan?

- Mening nazarimda, - dedi Stiven, - men qo'rqan narsalar barisining ortida qo'rqinchli haqiqat bor.

- Demak, sen, - so'radi Krenli, - agar ko'nglingda ishonmay turib cho'qinsang, rim «Т»katolik cherkovi tangrisi la'natlashi va o'limga mahkum etishidan qo'rqasan, shundaymi?

- Rim «Т»katolik cherkovi tangrisi buni hozir qilishi mumkin, - dedi Stiven. - Biroq men timsoliga yolg'ondakam sig'inganimdan keyin vujudimda boshlanadigan kimyoviy jarayondan ko'proq qo'rqaman, axir, bu timsol ortida yigirma asrlik kuch-qudrat va ixlosu izzat-ikrom yotibdi.

- Agar hayotining xavf ostida qolsa, - so'radi Krenli, - sen bu kufni ado etarmiding? Deylik, sen katolik e'tiqodi quvg'in ostiga olingan davrda yashaganingda nima qilarding?

- Men o'tmish uchun javob bermoqchi emasman, - dedi Stiven. - Ehtimol qo'limdan kelmas.

- Demak, sen protestant bo'lmoqchi emassan.

- Men e'tiqodimni yo'qotdim, - javob qildi Stiven. - Biroq men o'zinning qadrimni yo'qotganim yo'q. Kishi bir mantiqli va izchil ma'nosizlikdan voz kechib, boshqa bir mantiqsiz va izchil bo'lmagan ma'nosizlikni qabul qilsa, buni chinakam hurlik, deb bo'ladimi?

Ular Pemburk tumanigacha yurib kelishdi va endi, ko'chada sekin-asta qadam tashlashib, chorabog'lardagi uylarning u yer, bu yeridan taralib turgan yog'dular ko'ngillariga xotirjamlik bag'ishlayotganini his etishdi. Bu yerdagi boy-badavlat va sokin turmush havosi ularning kambag'alliklarini ham bir qadar xayollaridan ko'targanday bo'ldi. Dafna butalari ortidagi oshxona derazasida chiroq miltillab nur sochar, u yerdan pichoq qayrayotgan xizmatkor ayolning xirgoyisi eshitilardi. Ayol "O Greydi atirgullari"ni ravon kuylardi.

Krenli eshitmoqchi bo'lib to'xtadi va shunday dedi:

- Multer cantar[19].

Lotincha so'zlarning mayin ifodasi shom qorong'usida dilbar musiqaday, erkalab silagan ayolning muloyim qo'liday yoqib tushardi. Ularning boshlaridagi ola-g'ovur o'y-xayollar bir qadar bosildi. Qorong'ulik ichida marosim chog'i ko'ringan, ayol qiyofasi paydo bo'ldi: oppoq libosga burkangan, mo'jazgina va o'g'il bolanikiday tetik jussa, belbog'ining uchlari yerga osilib turibdi. Uning bolalarnikiday jarangli va mo'rt ovozi uzoqdan eshitilayotgan jo'r ovozlari sadosi ichidan zulmatni yorib chiqayotgan ohu noladay eshitiladi:

- Et tu cum Jesu Galilaeo eras[20].

Yurak hapqiradi, ilk so'zida alanga olib, so'nggisida so'nib, xuddi yarqirab chiqqan navqiron yulduzday yangroq bu ovozga talpinadi. Xonish tindi. Ular yurib ketishdi. Krenli, xonish maqomiga moslab, naqoratning oxirgi satrlarini takrorladi:

Men erkamni toparman,

Illo, bo'lurman baxtli.

Gulimni men sevarman,

Gulimning ahdi qat'i.

- Mana, haqiqiy poyeziya, - dedi u. - Chin muhabbat shu.

U Stivenga ko'z qirini tashladi va g'alati kulimsiradi.

- Sening-cha, shu poyeziyami? Bu so'zlarda biror-bir ma'no bor deb o'ylaysanmi?

- Ulardan ma'no topish qiyin emas, - dedi Krenli.

Uning shapkasi qoshiga tushib turardi. U shapkasini teparoqqa surdi va Stiven daraxtlar soyasida uning rangpar, nursiz yuzini, katta qora ko'zlarini ko'rdi. Ha, uning yuz-ko'zi kelishgan, gavdasi ham qoruvli, kuchli. U ona mehri haqida gapirdi. Demak, u ayollarning mehrini tushunadi, ularning ko'ngli bo'shligini, ojizliklarini biladi.

Demak, ketish kerak! Bas, endi ketish kerak. Stiven yuragining tubida ketishga undayotgan qandaydir da'vatkor ovozi his etdi, bu ovoz uning Krenli bilan do'stligi barham topganini zo'r berib uqtirardi. Ha, u endi ketadi, endi u hech kim bilan kurasha olmaydi, peshonasida borini ko'radi.

- Men kesam kerak, - dedi u.

- Qayoqqa? - so'radi Krenli.

- Boshim oqqan tarafga, - javob qildi Stiven.

- Shunaqa de, - dedi Krenli. - Harqalay, bu yerda senga qiyin bo'ladi. Sen shuning uchun ketmoqchi bo'layapsanmi?

- Men ketishim kerak, - dedi Stiven.

- Faqat o'ylab yurmagan meni quvg'inlikka majbur qilishdi deb, - davom etdi Krenli. - O'zingni allaqanday shakkok yoki eldan ajralib qolgan kimsa deb o'ylamagan. Ko'pgina dindorlar shunday deb o'ylashadi. Bu seni ajablantirsa kerak? Biroq cherkov - bu shunchaki toshdan qurilgan imorat va hatto allaqanday qotib qolgan aqidalarga berilgan ruhoniylar makoni emas, axir. Bu odamlar shu bilan tirik. Men sening nimani istayotganingni bilmayapman. O'sha, biz birga Xarkort-stritdagi bekatda turganimizda menga aytgan gaplaringnimi?

- Ha, - dedi Stiven beixtiyor kulimsirab. Krenlining aytilgan gapni qayerda gapirilgani bilan qo'shib eslash odati uning kulgisini qistadi. - O'sha oqshom sen Dogerti bilan Selligepdan Lerresgacha qanday borsa yaqin bo'lishini yarim soat bahs qilding.

- To'nka! - dedi Krenli nafrati qo'zib. - Selligepdan Lerresga boradigan yo'lni u qayoqdan biladi? U qovoq kalla-ku, nimani bilardi u!

U xoxolab kuldi.

- Boshqa gaplarni-chi, - dedi Stiven, - boshqa gaplarni eslaysanmi?

- O'shanda sen aytgan gaplarnimi? - so'radi Krenli. - Ha, eslayman. Yashashning yoki san'atning shunday bir usulini topish kerakki, unda sen o'zingni bemalol, erkin namoyon etishingga imkon bo'lsin.

Stiven bu gapni ma'qullaganday shapkasini ko'taribroq qo'ydi.

- Erkinlik! - takrorladi Krenli. - Qayoqda! Sen hatto jinday kufirlikka qo'l urishga ham qo'rqasan-ku. O'g'rilik qila olasanmi?

- Yo'q, undan ko'ra tilanchilik qilgan yaxshi, - dedi Stiven.

- Agar sadaqa berishmasa-chi, unda nima qilarding?

- Sen mening, - javob qildi Stiven, - mulk huquqi shartli, sharoit taqozo etganda o'g'irlik qilinsa, bu jinoyatga kirmaydi, deyishimni xohlayapsan. U holda hamma o'g'irlik qilardi. Shuning uchun men bunday fikrni aytishdan tiyilaman. Yaxshisi, sen iyezuit ilohiyotshunosi Xuan Mariya de Telved2ga murojaat qil, u senga qanday sharoitda qirolni o'ldirish gunoh sanalmasligini va buni qay tarzda - taomiga zahar solibmi yoki kiyim-boshini yo bo'lmasa egarini og'uga bulabmi - amalga oshirganing ma'qulligini tushuntiradi. Mendan esa: sen o'zingni tunashga ruxsat berarmiding, deb so'raganing ma'qul. O'g'rilarni men shappa ushlab, adolat posbonining qo'lga topshirmsmidim?

- Xo'sh, buni sen qanday qilarding?

- Menimcha, - dedi Stiven, - bu harqalay, men uchun bor-yo'g'imni o'g'irlab ketgandan ko'ra og'irroq musibat bo'lardi.

- Tushunaman, - dedi Krenli.

U cho'ntagidan gugurt cho'pini olib, tishlarini kovlay boshladi. Keyin tomdan tarasha tushganday qo'qqisidan so'radi:

- Ayt-chi, sen, masalan, qiz bolani iffatidan mahrum qila olarmiding?

- Kechirasan-u, - dedi xushmuomalalik bilan Stiven, - buni, axir, ko'pchilik yigitlar orzu qilsa kerak?

- Sen-chi, sen bunga qanday qaraysan? - so'radi Krenli.

Uning oxirgi, xuddi kuyundining hididay achchiq tagdor gapi Stivenning xayolini alg'ov-dalg'ov qildi, ko'ngliga og'ir botdi.

- Menga qara, Krenli, - dedi u. - Sen mendan nima qilishni xohlashimni va nima qilishni xohlamasligimni so'rayapsan. Men senga nima qilishimni va nima qilmasligimni aytib qo'yay. Men endi o'zim ishonmaydigan narsaga sig'inmayman, hatto agar bu mening oilam, vatanim yoki cherkov bo'lsa ham. Biroq men o'zimni hayotning yoki san'atning biror bir shaklida qo'limdan kelguncha to'la-to'kis, erkin namoyon etishga harakat qilaman, bu yo'lda o'zim uchun ma'qul kelgan qurol - sukut saqlash, darbadarlik va ziyraklik bilan himoyalananaman.

Krenli Stivenning qo'lidan tutdi va uni Lison-park tarafga boshladi. U ayyorona kulib, Stivenning qo'lini ko'kragiga do'stlarcha bosib, go'yo mehribonlik ko'rsatmoqchi bo'ldi.

- Ziyraklik bilan?! - dedi u. - Sen-a? Bechora shoir!
- Sen meni shunga, - dedi Stiven uning soxta mehribonligidan hayajonlanib, - xuddi boshqa ko'p narsalarga iqrar bo'lganimday tan olishga majbur qilding.
- Ha shunday, bo'tam - dedi Krenli hazilini davom ettirib.
- Sen meni nimalardan qo'rqishimni tan olishga majbur qilding. Biroq men senga nimalardan qo'rqmasligimni ham aytib qo'yishim mumkin. Men yolg'iz qolishdan yoki boshqa biror kimsani deb haydalishtan qo'rqmayman, taqdirimga bog'langan narsalarni tark etishdan qo'rqmayman. Men yana xato qilishdan, katta gunohga, bir umrga yetguli, hatto gunohi azimga yo'l qo'yishdan ham qo'rqmayman.
Krenli qadamini sekinlatdi va endi jiddiylashib dedi:
- Yolg'iz, bir o'zing. Sen bundan qo'rqmaysanmi? Bu gapning ma'nosiga tushunasanmi o'zi? Boshqalardan bir chetda qolish ham gapmi, hatto do'sting ham bo'lmasa.
- Men bunga ham tayyorman, - dedi Stiven.
- Hech kimsiz, hatto eng oliyjanob, sodiq do'stdan ham muhimroq insondan ajralib, a?
Bu so'zlari Krenlining o'ziga ta'sir qilib ketdi. U o'zini nazarda tutib gapirdimikan, o'zining kimligini yoki kim bo'lishini xohlaganini nazarda tutdimikan? Stiven bir necha lahza uning qayg'uli yuziga jim qarab turdi. U doim qo'rqib eslaydigan o'zining yolg'izligi haqida gapirdi.
- Kim haqida gapiryapsan, - so'radi nihoyat Stiven.
Krenli javob qilmadi.

* * *

20 mart. Krenli bilan mening isyonim haqida uzundan-uzoq gaplashildi.
U bir nimalarni jiddiy uqtirishga urindi. Men o'zimni eshitayotganga soldim, hurmatini o'rniga qo'yayotganday ko'rsatdim o'zimni. U onasini yaxshi ko'rishini gapiraverib jonimga tegdi. Onasini mening ko'z oldimda gavalantirishga harakat qildi, biroq men tasavvur qilolmadim. Bir safar o'zi tug'ilganda otasi oltmish bir yoshda bo'lgani bexos og'zidan chiqib ketgan. Buni tasavvur qilish mumkin. Kelbati kelishgan fermer. Egnida keng-mo'l kostyum. Moshguruch soqoli kuzalmagan. Aftidan tozi quvib ov qiladi. Ayerresdagi hazrat Dvayerga cherkov badalini binoyiday to'lab turadi, biroq juda qo'li ochiq deb bo'lmaydi. Kechqurunlari qizlar bilan valaqlashib o'tirishdan zerikmaydi. Onasi-chi? Juda yoshmikan yoki munkillab qolganmi? Yosh emasdir-ov, unda Krenli boshqacha gapirgan bo'lardi. Demak, qari. Ehtimol, qarovsizdir. Yuragidagi alam shundan: Krenli - qurib-chiriyotgan daraxt mevasi.
21 mart, eratalab. Bu haqda kecha oqshom to'shakda yotib o'yladim, biroq hozir hech narsa yoqmayapti, qo'lim bormayapti, shuning uchun yozmadim. Ha, ozod qushdayman. Qurib-chiriyotgan daraxtlar - bu Yelizaveta va Zaxariya. Demak, u - Mubashshir. Dudlangan to'sh va quritilgan anjir bilan oziqlanishi bejiz emas. Tushungin-da: yemishi chigirtkayu yovvoyi asal. Yana - qachon u haqda o'ylasam, mudom beshafqat chopilgan bosh yoki kulrang parda orasidan mo'ralagan jonsiz niqob, yo bo'lmasa boqiy Xaloskor ko'z oldimga keladi. Bosh olish - bu ularda shunday ataladi. Lotin darvozasida Ioann ko'rsatgan mo'jizani tushunolmayman. Men o'zi nimani ko'rayapman? Qulfn buzishga zo'r berayotgan boshsiz Mubashshirni.
21 mart, oqshom. Ozodman. Ruhim yengil, o'y-xayolim erkin. Qo'y, mayli, o'lik jonlar o'zlarining murdalarini dafn etaversin. Ha. Mayli, tirik murdalar o'lik jonlari bilan qovushaversin.
22 mart. Linch bilan birga kasalxonaning kasal boquvchi semiz ayoli ortidan sudralib yurdim. Linchning o'ylab topgani. Ikki ozg'in och tozi buzoq ketidan tushgan.
23 mart. Uni o'sha oqshomdan beri uchratganim yo'q. Tobi yo'qmikan? Kamin oldida o'tirgandir-da onasining shol ro'moliga burkanib. Biroq parvo qilmaydi. Ovqatingni yeb olgin!
24 mart. Onam bilan tortishishdan boshlandi. Mavzu - Bibi Maryam. Yoshim va jinsimga ko'ra noqulay holatda edim. Bahona topib, vaziyatdan chiqib ketmoqchi bo'lib, Isoning otasi bilan va Maryamning o'g'li bilan munosabatlarini misol qilib keltirdim. Onamga din - tug'ruqxona emas, dedim. Onam ko'ngilchan. Sening xayoling buzuq, deb aytdi, men ko'p kitob o'qirkanman. Noto'g'ri. Kam o'qiymen, kam tushunaman. Keyin u, hali sen dinga qaytasan, dedi, hozir aqlim uncha tiniqlashmagan ekan. Buni qanday tushunsa bo'ladi: bu - cherkovni gunohning qora tuynugidan tark etish va unga ovoz chiqarib qilinadigan tavba-tazarru eshigidan qaytib kirishmi? Tavba qilolmayman. Unga xuddi shunday deb aytdim. Olti pens berib turing, dedim. Uch pens berdi. Keyin universitetga bordim. Dumaloqbosh Gess bilan ikkinchi bor to'qnashdim, uning ko'zlari tulkinikiday. Bu safar Bruno bahona bo'ldi. Gapini italyancha boshlab, buzilgan inglizchada yakunladi. Bruno g'irt shakkok bo'lgan, dedi u. Men esa uni olovda g'irtlar yoqishgan, dedim. U hech bir ginasiz mening gapimga qo'shildi. Keyin u risotto aiia bargamasca deb nomlanadigan italyan milliy taomining reseptini berdi. U "o"ni yumshatib aytganda qalin, go'shtdor lablarini cho'chchaytiradi. Tovushni muchchilayotganday tuyuladi. Ehtimol, muchchilar? Uning tavba qilishga qurbi yetramikan? Ha, bo'lmasa-chi, ikkita quv ko'zidan bir-bir tomchidan ikki tomchi obidiyasini oqizadi.
Stivens-Grin-parkni, mening parkimni oralab o'tayotib esladim: axir, o'sha oqshom Krenli bizning dinimiz deb atagan dinni mening emas, Gessining vatandoshlari o'ylab topishgan. To'qson yettinchi polkning askarlari - to'rtovlon xoch tagida o'tirishibdi va qur'a tashlashib, xochga chormix qilinganning kiyimini bo'lashib olishayotir.
Kutubxonaga bordim, uchta jurnalni o'qimoqchi bo'ldim. Foydasi yo'q. U haliyam qorasini ko'rsatgani yo'q. Meni bu qiziqtiradimi? Nimasi qiziqtiradi? Endi uni hech qachon ko'rmasligimmi? Bleyk yozgan:
Qo'rqaman, chunki Uilyam Bond qazo qildi,
Chunki u uzoq va og'ir yotdi.
Afsus, bechora Uilyam!

Qandaydir sabab bilan Rotondga borgan edim. Tomoshaning oxirida kiborlarning qiyofalarini ko'rsatishdi.
Ularning orasida yaqinginada qazo qilgan Uilyam Yuart Gladston ham bor. Orkestr "O, Villi, qaniydi oramizda bo'lsang!"ni ijro etdi.
Chindan ham gumrohlar millati!
25 mart, ertalab. Tuni bilan alaq-chalaq tushlar ko'rdim. Qaniydi, bir silkinib baridan xalos bo'lsang.
Uzun aylana dahliz. Yerdan osmonga ustunday buralib qop-qora bug' ko'tariladi. Allaqanday afsonaviy qirollarning son-sanoqsiz haykallari. Ularning horg'in qo'llari tizzalarida, ko'zlarini yosh qoplagan, chunki ularning ko'z o'ngida bandalarning gunohlari qop-

qora bug' bo'lib o'rlab turibdi.

Yana g'ordan g'alati jondor chiqib keladi. Jussalari odamlarnikidan kichikroq. Go'yo ular bir-biriga qo'shilganday. Ularning qorong'ida nurlanib ko'ringan yuzlarida taram-taram qora chiziq. Ular menga tikilib qaraydi, ko'zlarida esa savol alomati. Miq etmaydi.

30 mart. Bugun kechqurun kutubxona eshigi oldida Krenli Dikson bilan uning akasiga topishmoq aytdi. Ona bolasini Nil daryosiga tushirib yubordi. Hali ham ona mehri bilan band. Go'dakni timsloh tutib oldi. Ona timsoldan bolasini qaytarib berishni so'rayapti. Timsloh rozi: mayli, faqat bitta sharti bor, ayt-chi, bolani men nima qilmoqchiman - uni yamlab yutamanmi, yamlamay, deydi timsloh.

Bunday fikrlash tarzi, haqiqatdan ham, faqat sizning chirkin muhitda, sizning quyoshingiz ostida paydo bo'lishi mumkin, degan bo'lardi Lepid.

Meniki-chi? Menikining nimasi afzal? Nilga tashla uni, daryoga cho'ktir!

1 aprel. Oxirgi gap yoqmayapti.

2 aprel. Uni ko'rdim, Jonston kafesida Muni va O'Brayen bilan pirojniy yeb, choy ichayotgandi. To'g'ri, o'tib borayotganimizda birinchi bo'lib Linch tulki uni ko'rib qoldi. Linch menga: uning akasi Krenlini uylariga taklif qildi, deb aytdi. U o'zi bilan birga timslohini ham olishni unutmadi-mikan? Demak, endi u olam chirog'i bo'ldimi? Uni men kashf etgandim-ku. Ishontirib aytaman, men! Yurardi uiklouluk sho'rtumshuqlar ichida biqinib.

3 aprel. Finleyter cherkovi qarshisidagi tamaki do'konida Deyvinni uchratdim. U qora sviterda, qo'lida chavgon. Mendan chindan ham jo'nab ketayapsanmi, nega, deb so'radi. Men unga Taraga boriladigan qisqa yo'l - via Xolixed, dedim. Shu payt otam kelib qoldi. Ularni tanishtirdim. Otam hurmatimizni qildi. Deyvinga tamaddi qilib olishni taklif etdi. Deyvin borolmadi - namoyishga shoshayotgan edi. Biz uzoqlashgach, otam bu bolaning chehrasi ochiq ekan, dedi. Mendan nega eshkakchilar klubiga yozilmading, deb so'radi. O'ylab ko'rishga va'da berdim. Keyin u menga bir paytlar Pennifezerni qanday xafa qilganini gapirib berdi. Mening yurist bo'lishimni xohlaydi. Bu sening burching, deydi. Yana Nil botqog'i, timsohlari bilan.

5 aprel. Avji bahor. Pag'a-pag'a bulutlar suzadi. O, hayot! Qoramtir loyqa suv mavj urib oqadi, tepadan olma daraxtlari nozik barglarini to'kib turadi. Barglar orasidan qizlarning ko'zlari intizor boqadi. Qizlar - odobli va sho'x. Bari oqsariq yoki mallasoch. Qorasochlisi kerakmas. Oqsariq sochli qizlarning yuzlari naqsholmaday. Bir sakrab tutsang!

6 aprel. U o'zining o'tmishini eslaydi, albatta. Hamma ayollar eslaydi, deydi Linch. Demak, u ham o'zining va ham mening bolaligimni eslaydi, agar men qachondir bola bo'lgan bo'lsam. O'tmishni bugun o'z komiga tortadi, bugun esa faqat kelajakni paydo qilish ilinjida yashaydi. Agar Linchning gapi to'g'ri bo'lsa, ayolning haykali doimo egnida kiyimi bilan yasalgan bo'lishi va ayol bir qo'l bilan ketini uyalinqirab bекitib turishi kerak.

6 aprel, shom. Maykl Robartes boy berilgan go'zallikni xotirlayotir, qo'llari bilan uni quchgan chog'da, allaqachon bu dunyodan g'oyib bo'lgan go'zalni bag'riga bosayotganday tuyuladi. Boshqacha bo'lishi kerak. Mutlaqo boshqacha. Men hali dunyoga kelmagan go'zallikni bag'rimga bosishni istayman.

10 aprel. Karaxt, qop-qorong'i tun zulmati ostida, shahar sukunatiga qoyim, ko'rgan tushlarini unutmog' ilinjida uyquni tark etgan, xuddi horg'in oshiqday, silab-siyppashlariga, yelayotgan ot tuyoqlarining dupuriga beparvo. Endi, harqalay uncha karxtmas. Mana endi ko'prikka yaqin qoldi: bir nafas - sukunatni tilib, alam bilan, qorong'u derazalarni yonlab, kamon o'qiday uchib o'tadi. Endi ular bir yoqlarda, uzoqlarda; tim qorong'ulikda, olmosday yaraqlagan tuyoqlar mudroq uyqudagi dalalar uzra g'izillab uchadi - qayoqqa? - kimga peshvoz? - qanday xushxabar bilan?

11 aprel. Kecha oqshom yozganlarimni o'qib chiqdim. Allaqanday mavhum iztiroblar haqidagi mavhum so'zlar. Bu unga yoqishi mumkinmi? Yoqardi, menimcha. U holda, demak, menga ham yoqishi kerak.

13 aprel. BuB "suzgich" B uzoq vaqt xayolimni tark etmadi. Lug'atga qaradim. Topdim. Binoyiday qadimgi so'z. Jin ursin dekanni voronkasi bilan qo'shib! Nega u bu yerda paydo bo'ldi - bizni o'zining tiliga o'rgatish uchunmi yoki bizdan o'rganish uchunmi?

Nima bo'lgandayam, baribir, daf bo'lsin!

14 aprel. Jon Alfons Malrennen hozirgina Irlandiyaning g'arbidan qaytib keldi. Yevropa va Osiyoda chiqadigan gazetalar bu xabarni ko'chirib bosishlarini iltimos qilaman. Aytishicha, u tog'dagi kulbada qari cholni uchratgan. Cholning ko'zlari baqraygan, og'zida kalta trubka. Chol irlandcha gapiradi. Malrennen ham irlandcha gapiradi. Keyin chol bilan Malrennen inglizcha gaplashishadi. Malrennen unga olam haqida, yulduzlar haqida so'zlaydi. Chol o'tirgan ko'yi, tamakini buruqsitib, tupurib eshitadi. Keyin shunday deydi:

- Ha-ya, to'g'ri, dunyoning naryog'ida ajoyib maxluqlar yashaydi-da.

Men undan qo'rqaman. Uning baqraygan qizil ko'zlaridan qo'rqaman. Tonggacha u bilan olishish mening chekimga tushgan, hali yo mening yoki uning ajali yetmaguncha, uning sertomir yo'g'on bo'yinini bo'g'ib, hali... Nima hali? Hali u menga yon bermagunchami? Yo'q, men unga yomonlikni sog'inmayman.

15 aprel. Bugun u bilan Graften-stritda yuzma-yuz uchrashdim. Bizni olomon bir-birimizga duch keltirdi. Ikkalamiz ham to'xtadik. U mendan nega ko'rinmaysan, deb so'radi. Men haqimda har xil bo'lmag'ur gaplarni eshitganini aytdi. Bu gaplar, chamamda, atay vaqtini cho'zish uchun aytildi. She'rlar yozib turibsanmi, deb so'radi. Kim haqida? - so'radim men. Shunda u battar ajablandi, unga achinib ketdim va o'zimni ablahday his etdim. Darhol gapni o'sha Dante Algeri kashf etgan, mualliflik huquqini rasmiylashtirib olgan qahramonlik ohangidagi ko'tarinki mavzuga burdim: o'zim haqimda, rejalarim to'g'risida hovliqib gapira ketdim. Baxtga qarshi, gap orasida beixtiyor isyonkor mayllarim ham oshkor bo'ldi. Aftidan, men bir qop yong'oqqa o'xshab shaldiradim. Odamlar bizga qaray boshlashdi. Shu payt u qo'limni siqdi va ketayotib, aytgan gaplarim, albatta, amalga oshishiga umid bildirdi. Yoqimli-da, to'g'rimasmi?

Ha, bugun uni uchratib kayfim chog' bo'ldi. Judayam xursand bo'ldimi yo unchalikmasmi? Bilmadim. U bilan uchrashib ruhim ko'tariladi, bu men uchun allaqanday boshqacha, yangi bir tuyg'u. Demak, nimaiki o'ylagan bo'lsam, o'ylayotgan bo'lsam, nimaiki his etgan, his etayotgan bo'lsam, xullas, bugungi uchrashuvda bo'lgan hamma narsa tub mohiyati bilan... Qo'ysang-chi, og'ayni, yig'ishtir! Kechasi yotib o'yla, ertasi turib so'yla.

16 aprel. Yo'l tadorikin ko'r! Safarga otlan!

Qo'llar va ovozlari chorlayotir: oy yorug'ida qotgan yo'llarning oq qo'llari va kemalarning uzun qora qo'llari, ularning uzoq-uzoqlardagi mamlakatlarga eltishni va'da qilib chorlashlaridan yurak hapqiradi. Go'yo ular imlab chorlayotganday, biz birga bo'laylik - yonimizga kel, bizga qo'shil, deb aytayotganday. Ovozlari esa bunga jo'r bo'lib: sen bizdansen, birodarimizsan, demoqda go'yo. Osmon bu jo'r ovozlarga to'la, ular meni - safarga shay, o'zining navqiron, yosh qanotlarini dadil qoqib uchishga tayyor

This is not registered version of TotalDocConverter

26 aprel. Onam mening eskifurushdan sotib olgan yangi narsalarimni joylayotir. Shoyad, tug'ilgan uyingdan uzoqda do'st kim, dushman kimligini bilsang, insofga kelsang, deydi onam. Illo! Shunday bo'ladi, albatta. Shon-sharaflar bo'lsin senga, hayot! Men safarga otlanayotirman, ijod haqiqatini qayta-qayta anglab yetmoq va qalbimning qo'ri bilan xalqimning tengsiz, betakror aqlu irodasini namoyon etmoqqa jazm etib yo'lga chiqayotirman.

27 aprel. Rahnamoyim, ey aziz ustoz minba'd menga tog'day tayanch bo'l, azalu abad o'zing qo'llagaysan.

Dublin, 1904 - Triyest, 1914.

AvvalgiIII- qismB Keyingi

Б† Fil suyagi (ingliz, fransuz, italyan va lotin tillarida).

Б† Hindiston fil suyagi yetishtirib beradi (lotincha).

Б† "Notiqning nutqi ixcham, qo'shiqchining ashulasi rang-barang" (lotincha). Lotin grammatikasining va shu qo'llanmadan joy olgan lotin she'r tuzilishi qoidasining muallifi Manuyel Alvarishning (1526БЂ"1583) kitobidan.

Б† Ana shunday falokatlar (lotincha).

Б† Riyozat chekib zafar qozonmoq (lotincha).

Б† Qo'l qo'ydingmi? (lotincha).

Б† Nima? (lotincha).

Б† Umumjahon tinchligi uchun (lotincha).

Б† Nazarimda, siz o'taketgan yolg'onchisiz, avzoyingizdan ko'rinib turibdi - kayfiyatingiz juda rasvo.

Б† Kimning kayfiyati yomon - meningmi yoki sizningmi (lotincha).

Б† Urushdan boshi chiqmaydigan dunyoga tinchlik (lotincha).

Б† Kelinglar, koptok o'ynaymiz (lotincha).

Б† Pange, lingua, gloriosi Corporis mysterium... - Sharafla mening tilim, sharaflı vujudim asrorini... (lotincha).

Б† Vexilla Regis prodeunt - U shohona tug'ni ko'tarar(lotincha). Venansiy Fortunat (530БЂ"603) - ilk o'rta asr shoiri, umri oxirida Pufteda yepiskop bo'lgan.

Б†
Dovudning bashoratlari amalga oshdi,
Xalqlarga tantanali e'lon qilingan
Tangri daraxtda turib bizni boshqaradi degan
Haqqoniy munojotlarda (lotincha).

Б† Meningcha, Liverpuldagi kambag'allar judayam qashshoq yashashadi (lotincha).

Б† Mo"tabar qadimgi sulola (lotincha). Solnomachi ingliz Fits-Stivenlar sulolasini shunday ataydi. Bu sulolaning Stiven Dedalus oilasiga hech bir aloqasi yo'q, boz ustiga, o'sha sulola Irlandiyaning bosib olinishida kattagina xizmat ko'rsatgan. Bu o'rinda Tempı Stivenning ingliz madaniyatiga qiziqishi va uning irland milliy harakatiga qo'shilishni xohlamayotganiga kinoya qilayotir.

Б† Vaqtidan oldin, hovliqib (lotincha).

Б† Ayol kuylayapti (lotincha).

Б† Sen-da galileyalik Iisus bilan birga eding (lotincha). Injildan.